

Умумий психология фанидан маърузалар матни

Asosiy nazariy qism. (Ma'ruza mashg'ulotlari)

I modul. "PSIXOLOGIYAGA EVOLYUTSION KIRISH"

1-mavzu. Evolyutsion psixologiyaga kirish (2 soat)

Reja:

1. Psixologiya atamasini turli nomlari.
2. Ilmiy va ilmiygacha bo'lgan psixologiya.
3. Ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar va psixologiya.
4. Psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi.
5. Ilmiy va xayotiy psixologiya va ularning o'zaro aloqasi.
6. Ilmiy va xayotiy psixologiyani o'zaro xamkorligi.
7. Fanlar tizimida psixologiyaning o'rne.
8. Psixologiya tabiiy va gumanitar fan sohasi sifatida.
9. Matematik bilimlarni psixologiyadagi o'rne.
10. Ilmiy psixologik bilimlarni o'ziga xosligi

Psixologiya voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan, psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rganadi. Har kimga ma'lum hodisalar – sezgilarimiz, idrok, tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixika hodisalari jumlasidandir. Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari deb ataladigan xususiyatlar: odamning temperamenti (mijozi), xarakteri (fe'l-atvori), qobiliyat, ehtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi.

Psixik (ruhiy) hodisalarning butun majmui odatda psixika degan bir so'z bilan ataladi.

Psixika o'ziga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo'lib, faqat hayvonlar bilan odamlarga xosdir. Hayvonlar bilan odam, o'simliklardan farq qilib, yolg'iz organik hayotga ega bo'libgina qolmay, balki, shu bilan birga, psixik hayotga ham egadir. Lekin, ma'lumki, hayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikasidan sifat jihatidan farq qiladi. Odamda psixik hayotning yuksak formasi – ong bor. Odam ongli zotdir.

Psixik hayot hodisalari juda xilma-xil, ammo bir - biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Psixologiyaning vazifasi ana shu bog'lanish va munosabatlarning qonuniyatlarini ochib berishdir. Psixik hodisalar va butun psixika rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Shu sababli, psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishi kerak.

Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda va avvalo ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda meditsinada, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish kerak.

Shunday qilib psixologiya psixik hayot sohalari yoki, qisqacha qilib aytganda, psixikadan bahs etadi.

Psixologiyaning ahamiyati

Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyaning o'rganishni ham, avvalo, bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqe'likning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi,- psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi - psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Tushunish kishilar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi.

Odam psixologiyani o'rganar ekan, o'zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo'lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Psixologiyaning bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati shulardan iboratdir.

Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, meditsina, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san'at va boshqa sohalarida ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogika ishida, ya'ni yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati ayniqsa katta.

Pedagog o'quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan shu materialni bolalar qanday o'zlashtirayotganini – ko'ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat – e'tibor, hissiyot qanday namoyon bo'layotganini, bolalarning yosh hususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro'y berayotganini bilish lozim.

Ulug' rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy: «Agar pedagogika odamni har jihatidan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatidan bilib olishi kerak». (K.D.Ushinskiy, sobranie sochineniy, 8-tom, RSFSR pedagogika fanlarining akademiyasining nashri, 1950, 23-bet)

O'quvchini bilib olish – shu o'quvchining darslarni o'zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o'quvchining psixik hususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e'tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo'lishini bilish demakdir.

Ta'lim – tarbiya ishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko'nikma va malaka berish bilangina kifoyalanib qolmay, shuningdek, o'quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o'zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq kerak.

Har bir pedagog – o'qituvchi, tarbiyachi, maorif ishining rahbari – psixologiyani nima uchun bilishi kerakligi yuqorida aytilganlardan ravshan ko'rinib turibdi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta'limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda.

Ishning har bir turi, har bir kasb odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga mahsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va ma'suliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar mahsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Masalan, dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o'tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chira oladigan, aniq uyg'un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'rildi.

Korxonalar va boshqa xo'jalik, madaniy va ma'muriy muassasalarining hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilishi, ularni joy – joyiga qo'ya bilishi, ularga rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyatlari, xarakteri, mehnatga munosabati va boshqa shu kabilarning farqiga bora bilishi kerak.

Psixologiya meditsina bilan qadimdan bog'lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo'ladi.

Bunday kasalliklarni ham, asosan, psixologik vositalar bilan davolashga to'g'ri keladi. Vrach psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmoq uchun odamning normal psixologiyasini ham bilish kerak. Boshqa kasalliklarni, ayniqsa, nerv kasalliklarini davolashda ham vrach bemorning ruhiy holatini bila olishi va kasallikning borishiga ruhiy holatning ta'sirini nazarda tutishi lozim. Vrach bemorga psixik ta'sir ko'rsatish vositalarini, ishontirish, maslahat berish va boshqa shu kabilarning ahamiyatini bilish kerak.

Psixologiya sud ishida ham muhim rol o'ynaydi. Sud xodimi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so'roqda aytgan gaplarini psixologik jihatidan tahlil qila bilishi kerak. Kishilar biron ayb, jinoyat qilganlarida nima niyat bilan shunday qilganliklarini sud xodimi fahmlay bilishi kerak. Aybdorlarning individual hususiyatlarini ham bilib olishga to'g'ri keladi. Bularning hammasida ustalik bilan ish ko'rmoq uchun odamning psixikasini bilish, psixologiyani o'rganish kerak.

Psixologiyaning san'atdagi ahamiyatini ham ko'rsatib o'tmoq kerak. Har bir san'atkor (artist, muzikant, rassom va shunga o'xshashlar) kishilarga – tomoshabinlarga, tinglovchilarga o'z ijodi bilan ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak.

San'at arbobi obraz yaratish ustida ishlaydi, shu obrazning biror badiiy vosita bilan gavdalandiradi. Buning uchun san'atkor obrazni qanday elementlardan qay tariqa yaratilishini bilishi kerak. U ijodiy faoliyat psixologiyasini bilishi shart.

Psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham foydali. Har kim doimo boshqa kishilar o'rtasida bo'ladi, muayyan munosabatlar – tanish-bilishlik, oshna-do'stlik va boshqa shu kabilar tufayli boshqa kishilar bilan aloqa qiladi. Har birimizga boshqa kishilarning xarakter, havas, kayfiyatlarini bilib olishga, kishilarning bir-birini ajratishga va ularga ta'sir ko'rsatishga to'g'ri keladi.

Bu yerda shuni aytish kerakki, odamzod faoliyatining turli sohalarida psixologik bilimlarning amalda qo'llanish psixik hayot hodisalari, uni qonuniyatlari, haqidagi bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va oydinlashtirish uchun ham ko'p material beradi va shu bilan psixologiyani nazariy sohalarini boyitadi.

Psixologiyaning ilmiy bilish va amaliy ahamiyati shundan ham ko'rinadiki, psixologiyaning tarixiy taraqqiyotida unda bir qancha mahsus tarmoqlar ajralib chiqdi. Psixologiyaning bu tarmoqlari hozirgi vaqtda mustaqil fanlar darajasiga ko'tarildi.

Psixologiyaning shu tarmoqlaridan bir qismi ko'proq nazariy xarakterda bo'lsa, ikkinchisi ko'proq amaliy xarakterdadir.

Psixologiyaning ayrim tarmoqlari shulardan iborat: umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi (jumladan, bolalar psixologiyasi) pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, harbiy psixologiya, san'at psixologiyasi, sport psixologiyasi, sud psixologiyasi, meditsina psixologiyasi, psixopotologiya.

Shu psixologiya fanlaridan har birining o'ziga alohida tekshirish ob'ekti, o'z vazifalari bor va har biri o'zining tekshirish metodlaridan foydalanadi.

2-MAVZU. Psixikaning evolyutsiyasi va vujudga kelishi.Tabiiy va jinsiy tanlanish nazariyalari

(2 soat)

Reja:

1. Inson psixikasini umumiy qonuniyatlari, tizimi va funksiyalari.
2. Inson psixikasini tizimi.
3. Evolyusiyada tabiiy tanlanishning o'rni.
4. Darvin nazariyasi.
5. Evolyusiyada tabiiy tanlanishning o'rni.
6. Uilyam Djeym va instinktlar psixologiyasi.

7. Psixologiya tarixida psixika mezoni.
8. Psixikaning ob'ektiv va sub'ektiv mezonlari.
9. Psixikani rivojlanish bosqichlari.
10. Xatti -harakat shakllari.
11. Tug'ma va individual xatti -harakat.
12. U. Djeymsning instinktlar nazariyasi.
13. Evolyusiya" tushunchasi tabiiy tanlanish nazariyasini kelib chiqish shartlari.
14. Evolyusion nazariyaning asosiy shartlari, tabiiy tanlanish natijalari.
15. Evolyusion nazariyaning mazmuni.

Psixika haqida ta'limot.

Psixologiya eng qadimiy fanlardan bo'lib, bundan 2,5 ming yilga ilgari jon haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan. VII-V asrlarda o'tgan qadimgi grek filosoflarining asarlaridayoq kishining jonli va ruhiy hayoti to'g'risida juda ko'p hilma-hil fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Bu masalalar qadimgi Xitoy va qadimgi Xind mutafakkirlarining muhokamalarida ham katta o'rin tutadi.

Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta'limotni birinchi marta Aristotel (yeramizdan oldingi 384-322 yillar) «Jon haqida» degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo'lgan psixologiyani vujudga keltirgan kishi yoki psixologiya fanining «otasi» deb hisoblanadi.

Uzoq vaqtgacha psixologiya mustaqil fan bo'lmay, filosofiya tarkibiga kirib kelgan. Alohida ilmiy fan ma'nosidagi «psixologiya» termini ham yo'q edi. Bu termin XVI asr oxirida paydo bo'lib, XVIII asr o'rtalaridan boshlab hamma ishlatadigan bo'lib qoldi. Psixologiya XVIII asrning oxirida va XIX asrning boshlaridagina mustaqil fan bo'lib shakllanadi.

Qadimgi zamonlardan to bizning zamonimizgacha psixologiya sohasida idealizm bilan materializm o'rtasida kurash bo'lib keldi. Psixologiyadagi bu kurash hamisha sinfiy kurashning in'ikosi bo'lib keldi. Psixika, ong nima degan masala, shu bilan birga, odam organizmida psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlar o'rtasidagi munosabat masalasi ham shu kurashda markaziy o'rinni egallab keldi.

Psixika va ong haqidagi ta'limot idealistik va vulgar materialistik qarashlar hamda nazariyalarga qarshi kurashda chiniqa bordi.

Idealistlar, odamning psixik hayotini odam tanasi bilan qandaydir noma'lum yo'l bilan qo'shib, odamda gavdalangan, jismi yo'q moddiy bo'lmagan alohida bir narsaning ya'ni ruh yoki jonning zohir bo'lishi deb hisoblaydilar. (So'zlashganimizda va adabiyotda

ham «odamning joni» va «odamning ruhi» degan termin ishlatamiz. Ammo bu terminlarni biz moddiy bo'lmagan alohida bir narsani ifodalash uchun emas, balki «psixika» so'zini qay ma'noda ishlatsak, o'sha ma'noda ishlatamiz). Idealistik psixologiya namoyondalari psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati haqidagi masalani talqin qilishda yo psixofizik parallelizm yoki psixofizik o'zaro ta'sir nuqtai nazarida turadilar.

Psixofizik parallelizm tarafdorlari fiziologik va psixik hodisalar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yonma-yon (parallel ravishda) voqe' bo'ladi, deb hisoblaganlar. Bu qarashga ko'ra, odamning hayot faoliyati qo'shilib ketmaydigan ikki oqim – organik hayot bilan psixik hayotning harakatlanishidan iborat emish.

Psixofizik o'zaro ta'sir tarafdorlari ta'limotiga ko'ra, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z tabiati e'tibori bilan har hil bo'lsada, bir-biriga o'zaro ta'sir etadi: fiziologik hodisalar psixik hodisalarni vujudga keltiradi, psixik hodisalar esa fiziologik hodisalarga sabab bo'la oladi. Bu qarashga ko'ra, odamning hayot faoliyati go'yo harakatdagi zanjir bo'lib, unda fizik zveno bilan psixik zveno ketma-ket kelaveradi.

Fanga xilof idealistik muhokamalarga qarama-qarshi o'laroq, dalektik materializm psixik hayot qandaydir alohida, moddiy bo'lmagan bir narsani zohir bo'lishi emas, balki materiyaning yuksak darajasidagi mahsuli, ya'ni bosh miyaning hossasidir deb ko'rsatadi. Demak, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning alohida hossasi bo'lib, bu hossa ob'ektiv voqelikni alohida bir yo'sinda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir.

Psixik jarayonlar miyaning alohida hossasi bo'lib, faqat miyaning faoliyatiga bog'liq holda ro'y beradi.

Lekin psixikani materiyaning mahsuli deb bilish tushunchasini vulgar materializm namoyondalari targ'ib qilgan soxta (u ham mexanistik) tushunchadan farq qilish kerak. Mexanist va vulgar materialistlar tabiatdagi barcha hodisalarni – kimyoviy, biologik, fiziologik hodisalarni, shuningdek, psixologik hodisalarni ham materiya zarrachalarining fazoda faqat mexanik suratda siljishdan iborat deb bilar edilar. Ular psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlardan iborat bir narsa deb tushunar, psixik jarayonlar bilan fiziologik protsessning ikkovi bor narsa deb hisoblar edilar. Masalan: vulgar materializmning namoyondalari (Byuxner, Moleshott, Faxz) jigardan o't chiqib turgani singari miyadan ham fikr chiqib turadi, deb bilar edilar.

Mexanistlar nazarida, psixik hodisa fiziologik hodisaning o'zi-yu, uni odam faqat ichki, sub'ektiv tomondan idrok etar emish.

Dialektik materializm nuqtai nazaridan psixika, materiyaning mexanik harakati emas, balki harakatdagi materiyaning alohida hossasidir.

Shuningdek, psixik protsess moddiy protsessga bog'liq, degan so'zdan psixika, ong-fiziologik jarayonlardan boshqa bir narsa emas, degan ma'no aslo chiqmaydi. Fikr, ong – voqelikning sifat jihatidan boshqacha, o'ziga xos bir hodisasidir.

Psixika, ong – faqat yuksak darajada tashkil topgan materiyaning hossasidir.

Hayvonlar bilan odamlar organizmiga xos bo'lgan nerv sistemasi ana shunday yuksak darajada tashkil topgan materiya. Psixikaning bevosita moddiy substrati (asosi) – odamning bosh miyasidir. Odamning psixikasi, ongi – bosh miya funksiyasidir.

Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy qilib borgan sari turli qonuniyatlar va hossalari - mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va boshqa qonuniyat va hossalari paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi, organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina materiyaning psixika, sezgi, ong, tafakkur, deb ataladigan alohida hossalari vujudga keladi.

Olam taraqqiyoti tarixida psixika, ong, bo'lmagan davr o'tgan. Psixika olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichlaridagina paydo bo'ldi.

Psixika materiyaning alohida hossasi bo'lib, bu hossa ob'ektiv voqe'likni alohida bir ravishda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir. Aks ettirish degan so'zning ma'nosi har hil tushuniladi. Tevarak-atrofdagi voqe'likni aks ettiradigan ko'pgina narsalar ma'lum, masalan, suv aks ettiradi, ko'zgu aks ettiradi va hokazo. Bu misollarda biz fizik hodisa sifatidagi aks etish (in'ikos)ni ko'ramiz. Psixik hodisalar haqida so'zlashganimizda esa sifat jihatdan boshqacha, o'ziga xos ravishda aks etishini nazarda tutmog'imiz kerak. Bu aks ettirish sezgilarda, xotirada, tafakkurda va boshqa shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Insonning aks ettirish jarayoni o'z mohiyati va xarakteri jihatidan 2-bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish bo'lib, u sezish, hissiy qabul qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi bo'lib, u tafakkurdan iboratdir.

Hissiy bilishning boshlang'ich shakli - sezgidir. Chunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab bo'lib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim hossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi.

Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir.

Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig'ining ma'lum qismidagi qo'zg'alish – sezish, qabul qilish – ma'lum davrgacha o'z izini qoldiradi, ya'ni tashqi ta'sir to'xtagandan so'ng qo'zg'alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O'sha ta'sir etgan predmetga aloqador bo'lgan, unga qandaydir munosabatda bo'lgan hodisa ta'siri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin.

Miya qobig'ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo'zg'alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo'ladi. Hissiy bilish orqali ob'ektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

Odam bilan uning tevarak-atrofidagi olam o'rtasida doimo o'zaro bir-biriga ta'sir qilish jarayoni bo'lib turadi. Odam bu protsessda dunyoni o'z psixikasi bilan aks ettiradi. Shu bilan birga, voqe'lik odam ongida ko'zgudagi kabi passiv ravishda aks etmay, balki aktiv ravishda aks etadi: odam tevarak-atrofdagi olam bilan o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatar ekan, shu jarayonda olamga ta'sir etadi, uni o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Psixologiya fani psixikani o'rganar ekan, uni yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ob'ektiv voqe'likni aks ettirishdan iborat bo'lgan alohida hossasi deb biladi. Materiyaning bu hossasi materiyaning boshqa hossalardan sifat jihatdan farq qiladi va materiya taraqqiyotining faqat muayyan bosqichida vujudga keladi.

Psixik hodisani, idealistlar ta'lim bergani singari, fiziologik hodisadan ajratib qo'yish yaramaganidek, psixik hodisani, vulgar materialistlari ta'lim bergani singari, fizik hodisaga tenglashtirish ham yaramaydi. Psixik hodisa bilan fiziologik hodisa bir butun bo'lib bog'langandir. Buning ma'nosi shuki, psixologik va fiziologik hodisa sifat jihatidan boshqa-boshqa hodisalardir, ammo fiziologik hodisa bo'lmasa, ya'ni nerv sistemasi ishlamasa, psixologik hodisa bo'lishi mumkin emas; shunday qilib, psixologik hodisa ikkilamchi hodisa hisoblanadi.

Psixik hodisalar nechogʻlik murakkab boʻlmasin, ularni moddiy nerv-fiziologik negizidan ayirib oʻrganish yaramaydi. Bunday ayirish idealizmga olib borishi mumkin, xolos. Shu sababli psixikani oʻrganishda psixik hayotdagi hodisa va faktlarni ilmiy asosda tushunib olish uchun psixikaning moddiy negizini, yaʼni bosh miya va uning faoliyatini, psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini bilib olish kerak.

I.P.Pavlov yuksak nerv faoliyati fiziologiyasiga doir genial asarlarida psixik hodisalar moddiy substratining faoliyatidagi asosiy qonuniyatlarni va ayrim psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini ochib berdi.

Psixik hodisalarning klassifikatsiyasi

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon boʻladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlar ajratiladi.

Psixik protsess – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket oʻzgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga oʻtishdir.

Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subʼektiv psixik mahsullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuygʻular, tinchlik-farosat, hayajonlanish va maʼyuslanish, uygʻoqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emotsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga boʻlish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir boʻladigan ana shu turlar psixik funktsiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

S e z g i l a r – muayyan paytda sezgi organlarimizga: koʻruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga taʼsir etib turgan narsalardagi ayrim hossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, ogʻir, yengilni sezamiz.

I d r o k - Tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, muzika va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok – tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil hossalarning miyamizdagi obrazlaridir.

X o t i r a. Narsa va hodisalar hamda ulardagi hossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo'lgan obrazlari nom - nishonsiz yo'qolib ketmaydi - ular miyamizda o'rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko'nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o'rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko'ngildan kechgan narsalarning miyamizga o'rnashib (yesimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo'lgan ana shu psixik faoliyat xotira deb ataladi.

X a y o l. Narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo'ladigan obrazlardan tashqari, o'zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. Masalan, ibtidoiy odamning hayot sharoiti haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurimiz va shunga o'xshashlar ana shundaydir. Bu tasavvurlar xotiramizda bor tasavvurlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo'ladi.

T a f a k k u r . Idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumiyashtiriladi. Tafakkur - voqe'likning umumiyashtirilgan bevosita va eng to'liq hamda eng aniq intiqosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar – muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqe'likning idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to'laroq va chuqurroq bilib oladi.

N u t q. Tafakkur nutqqa chambarchas bog'liq. Fikrlarimiz – nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qilar ekanlar, fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq – kishilarning til vositasi bilan aloqa qilish usulidir.

D i q q a t. Yuqorida ko'rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat – ongimizning o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to'plash demakdir. Diqqat o'ziga alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning aktiv borishi va sifatli bo'lishi uchun zarur shartdir, xolos.

Ba'zi psixologlar (masalan G.A.Fortunatov) diqqatni psixik holatlarga qo'shadilar. Ammo, diqqat ong faolligining o'ziga alohida bir ko'rinishi ekanligini keyinroq yaqqol anglashiladi. Shu sababli diqqatni iroda sohasiga ham qo'shish mumkin.

Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan, fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga nisbatan ko'nglidan kechayotgan har xil yoqimli va yoqimsiz, xush yoki noxush tuyg'ular emotsional sohaga (yoki hissiyot sohasiga) kiradi.

Biz dilimizda xush yoki noxush tuyg'u xis qilamiz, do'stlik, vatanga muhabbat his qilamiz, urush olovini yoquvchilarga qarshi g'azab xis qilamiz. Odamning emotsional tuyg'ulari doimo uning ehtiyoj va manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan va fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga ijobiy yoki salbiy munosabati hissiyotda o'z ifodasini topadi.

Yemotsiyalar ham jarayon, ham holat bo'ladi.

Psixik faoliyatning yuksak ko'rinishi, ya'ni niyatimizga (oldindan o'ylagan maqsadimizga) yetmoq uchun shu maqsadga erishish yo'llari va vositalarini qamrab olib, shuningdek, uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda g'ayrat ko'rsatib qilinadigan faoliyat iroda sohasiga kiradi.

Ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) faoliyatni ixtiyorsiz (irodadan tashqari bo'ladigan) faoliyatdan ajratish kerak. Ixtiyorsiz faoliyat hayotimizdan tashqari va anglab, bilib g'ayrat ko'rsatmasdan turib yuzaga chiqadi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyat diqqat e'tiborda va ish-harakatda ko'rinadi. Shu sababli ixtiyorsiz diqqat bilan ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz harakatlar bilan ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) harakatlar farq qilinadi.

Psixologik hodisalar sub'ektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdagi obrazlari shaklida ro'y beradi. Ammo, barcha sub'ektiv psixik hodisalar sirtida, organizmizning xilma-xil o'zgarish va harakatida: mimika, imo-ishora, nutq pantomimikada o'z ifodasini topadi.

Odamning psixik hayoti organizm harakatlarida o'z ifodasini topadi, shu harakatlar yig'indisi esa xulq-atvor deb ataladi.

Odam psixikasining barcha tomonlari, inson xulq-atvorining turli-tuman hamma xususiyatlari asosan faoliyatida namoyon bo'ladi. Odam faoliyatining asosiy turlari: o'yin (bolalik davrida), ta'lim va mehnatdir. Faoliyatning barcha turlarida odam o'z atrofidagi voqe'likning idrok etadi, bir nimani eslab qoladi yoki esiga tushiradi, fikrlaydi, har-xil hislarni ko'nglidan kechiradi, o'z faolligini namoyon qiladi.

Bu yerda ko'rsatilgan xilma-xil psixik hodisalar bir-biridan ajralgan holda sodir bo'lmaydi.

Shu tariqa, psixik holatlar va psixik mahsullar psixik jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, odatda shu jarayonlar tarkibiga kiradi.

Psixik holatlar ro‘y beradigan psixik jarayonlarning o‘ziga xos foni hisoblanadi. Bu holatlar psixik jarayonlarga ta’sir etadi, ularni tezlatadi, kuchaytiradi yoki tormozlaydi, susaytiradi.

Mustahkamlangan psixik mahsullar murakkabroq jarayonlarning ro‘y berishi uchun asos - material hisoblanadi. Masalan, xayol, tafakkur jarayonlari tasavvur va xotira asosida voqe‘ bo‘ladi va hokazo.

Xuddi shuningdek, ayrim aqliy, emotsional va irodaviy jarayonlar bir-biri bilan bog‘lanmagan holda ro‘y bermaydi. Odamning psixik hayotini qandaydir birlamchi elementlarining yoki ayrim psixik jarayonlarning, ya’ni sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va shu kabilarning anchayin yig‘indisi deb o‘ylash yaramaydi. Har bir psixik protsess boshqa jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan holda sodir bo‘ladi. Masalan, sezgisiz idrok etib bo‘lmaydi, idrok esa xotira, tafakkur jarayonlariga, nutq, diqqat, hissiyot va irodaga bog‘liq bo‘ladi. Xotira va xayol jarayonlari tafakkur, nutq, hissiyot va iroda jarayonlariga bog‘liq. Tafakkur idrok bilan xotira asosida ro‘y beradi va nutq bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Nutqning o‘zi ham tafakkursiz bo‘la olmaydi.

Psixik hayotni o‘rganishda ayrim psixik jarayonlarni boshqa psixik jarayonlardan ajratib tekshirishga to‘g‘ri keladi. O‘rganishni osonlashtirmoq uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqa shu kabi jarayonlarni alohida-alohida tekshiramiz. Ammo har bir psixik protsessni o‘rganganda shu protsessning, masalan, xotira, xayol, tafakkurning boshqa jarayonlar bilan bog‘langan holda ro‘y berishini ko‘rsatib o‘tamiz.

Psixika bir butun yaxlit bir narsadir. Psixikaning bu birligi va yaxlitligiga sabab avvalo shuki, bosh miya faoliyati bir butun va yaxlitdir.

Psixik hayotning hamma tomonlari: aql, his va iroda shaxsning faoliyatda namoyon bo‘ladi. Shaxs olamni biladi, shaxs turli hislarni dildan kechiradi va shu shaxs ish-harakat qiladi.

Psixik faoliyatning barcha ayrim turlari yagona ong funktsiyasi-shaxsning funktsiyasidir.

Psixologlar ko‘pchiligi **psixik funktsiyalar** terminini o‘rniga **psixik jarayonlar** terminini ishlatadi.

Ammo psixik funktsiyalar terminidan foydalangan ma'qulroq. Funktsiya tushunchasining mazmuni kengroq. Bu tushuncha psixik protsessni ham, psixik holatni ham, faollikni ham, ish-harakatini ham o'z ichiga oladi. Funktsiya qanday bo'lmasin yaxlit bir narsaning qismi emas, balki namoyon bo'lishi, amal qilishi demakdir. Shuning uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hislar, iroda – psixika qismlari emas, o'zaro yonma-yon ro'y beruvchi jarayonlar emas, balki bir butun ongning funktsiyalari – bir butun shaxsning funktsiyalaridir.

3-mavzu. Shaxsni evolyutsion jihatdan rivojlanishi(2 soat)

Reja:

1. Shaxsni evolyusion jihatdan rivojlanishi.
2. Shaxs nazariyalariga zamonaviy qarashlar.
3. Evolyusion nazariyalar va shaxs.
4. Shaxs filogenezi va ontogenezi.
5. Ijtimoiy ishlab chiqarish inson hayotining usuli sifatida.
6. Mehnat faoliyat xususiyati: jamoviy, va boshqalar.
7. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.
8. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida.
9. Indivud, sub'ekt, shaxs, individuallik tushunchasi

Turning rivojlanishidan-filogenezdan farqli ravishda individning taraqqiyoti “ontogenez” tushunchasi bilan ishlatiladi. Bu tushunchani nemis biologi E.Gekkell taqdim etgan. Psixika ontogenezi insonning tug‘ilganidan to umrining yakunigacha davom etadigan uzluksiz rivojlanishi sanaladi.

Psixik taraqqiyot haqidagi masala boshqa so‘z bilan, ya’ni psixik taraqqiyotning harakatga keltiruvchi kuch masalasi orqali psixologiyadagi eng muhim muammolardan bir sanaladi. Uzoq yil davomida olimlar ushbu muammoga yondashgan bo‘lsalarda, ammo yagona bir to‘xtamga kelmadilar. Yosh psixologiyasi –psixologiyaning alohida sohasi bo‘lib, inson taraqqiyotining dalillari va qonuniyatlarini o‘rganadi¹.

Psixik taraqqiyotni belgilovchi ikkita an’anaviy kategoriya mavjud: biologik va sotsial.

“Muhit”, jamiyat taraqqiyotini asosiy belgilovchi roli to‘g‘risidagi tasavvur tarafdorlari mavjud bo‘lib, ular *sotsiogenetiklar deb nomlanadi*. Ushbu yo‘nalish vakillaridan bir ingliz filosofi Dj. Lokk hisoblanadi. Uning talqinicha bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo‘lgan toza doskaga (tabula rasa) o‘xshaydi. Olimlar shaxsning har qanday qirrasini shaxs tajribaga bog‘liq, tug‘ma omillar katta ahamiyatga ega emas degan g‘oyani qo‘llab quvvatladilar. Insonning psixik taraqqiyotida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati bilan bog‘lovchilar hozirgacha mavjud. Masalan, shaxs nazariyasining “vaziyatlilik” yondashuviga ko‘ra insonlar boshidan pok va pok emas, mehribon yoki vahshiy, fidoiy va egoist bo‘lmaydilar, ular vaziyatning bosimi ostida tarkib topadilar degan g‘oyaga tayanadilar.

Yuqoridagi yondashuvga qarama-qarshi g‘oyani ilgari surganlar esa fransuz faylasuflari R. Dekart va Jan-Jak Russolardir. Bu yo‘nalish vakillari biologizatorlar hisoblanadilar. Ularning fikricha shaxs taraqqiyotida belgilovchi rolni nasliy, genetik omillar belgilashi ta’kidlanadi. Bola tabiat qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadi

Shaxs rivojlanishida har ikkala yondashuvni uyg‘unligini ta’minlovchi qarashlar mavjud bo‘ldiki, bu *konvergeniya nazariyasi deb ataladi va V. Shternga tegishli*. U psixik taraqqiyot tug‘ma xususiyatlarni va tashqi ta’sirlarni oddiy

¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P.173

namoyon bo'lishi emas, balki ichki imkoniyatlarni taraqqiyotning tashqi shart-sharoitlari bilan o'zaro konvergensiya deb hisobladi.

Konvergensiya nazariyasiga ko'ra psixik taraqqiyot X – nasliy element va U-muhit elementlari ostida to'planuvchi jarayon sifatida qaraladi. Bu g'arb psixologiyasida eng keng tarqalgan konsepsiya sanaladi. Masalan, ingliz psixologi G. Ayzenk *80% muhit ta'sirida, 20% irsiyat ta'sirida aniqlanadi deb hisoblaydi.*

Ammo konvergensiya nazariyasi vakillari irsiy omillarning o'rni muhim hisoblab, muhit nasliy belgilarning tartibga soluvchi ruyobga chiqishini ta'minlovchi sanaydi. Konvergensiya nazariyasining biologik va sotsial omillarni mexanik qo'shishidagi cheklanganligi insonning tabiat va jamiyatdagi mohiyatini tushunishga olib kelmadi.

Masalani hal etishga yo'naltirilgan boshqa bir yondashuv ikki omilning ta'siri bilan bog'liqlikni psixoanaliz va ko'pgina neofreydistlarning ishlarida kuzatildi.

Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog'liq tushunishga harakat qildi.

Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog'liq bo'lib, biologik, u tug'ma va tabiiy berilgan bo'lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o'zaro to'qnash keladi. Reallik prinsipiga ko'ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiyat bilan mayllar o'rtasidagi nizo shaxsning turli instatsiyalari –“Hayvoniy Men” va “U” o'rtasidagi tafovutda aks etadi. “Hayvoniy Men” o'zida shaxsning sotsial rollarni o'zlashtirishi, “U” tada esa insondagi tabiiy boshlang'ich manba, chuqur mayllarni ifodalaydi².

Psixikaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliigi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'ilsa, u taqdirda voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo'lmish uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, o'z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

² Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 555.

Uchinchi davr - o'yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya'ni guruhiy o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko'zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari yetarli darajada bo'lmaganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o'spirinlik - o'zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolning uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati "rolni kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko'lamini kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo'lmaydi, vaholanki bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yetinchi davr - yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi unga uzluksiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik inson tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko'ngil sovish his-tuyg'ularini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lishlik bu yoshdagi odamlarning eng muhim

jihati, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi³.

J.Piaje⁴ intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo‘lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta’limotini o‘z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish,ko‘nikish) dan iborat bo‘lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog‘liq tushunishga harakat qildi.

Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog‘liq bo‘lib, biologik,y tug‘ma va tabiiy berilgan bo‘lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o‘zaro to‘qnash keladi. Reallik prinsipiga ko‘ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o‘rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiyat bilan mayllar o‘rtasidagi nizo shaxsning turli instatsiyalari –“Kayvoniy Men” va “U” o‘rtasidagi tafovutda aks etadi. “Kayvoniy Men” o‘zida shaxsning sotsial rollarni o‘zlashtirishi, “U”da esa insondagi tabiiy boshlang‘ich manba, chuqur mayllarni ifodalaydi⁵.

³ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 556.

⁴Boeree C. G. Jean Piaget/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3-10

⁵ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 555.

4-mavzu. Kognitiv jarayonlarni shakllanishi. (2 soat)

Reja:

1. Psixologiya va Ijtimoiy fanlarsida ong muammosi.
2. Ijtimoiy va individual ong.
3. Ongning vujudga kelishida: jamoa, mehnat faoliyati va nutq.

Ong haqida tushuncha

Ong-psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'z-o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ongning to'rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. **Ongsizlik** - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, psixologiya hayot faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir. Psixologiya fanining asosiy vazifasi psixik hodisalarni o'rganish va ilmiy asoslashdir. Psixik hodisalar ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Psixologiya shunday qonuniyatlarni mohiyatini ochishga, ularni tarkib topishi va rivojlanishini o'rganishga qaratilgandir. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni boshqarish, tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri olib borishga yordam beradi.

Inson ongining rivojlanishi

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud. Hayvonlar "tili" bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z to'dasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni chog'dagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqatgina signal

berolsa, inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular **tili o'rtasidagi** farqqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga, hayvon esa amaliy tafakkurga ega. Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda ish ko'rish qobiliyatiga ega. **Qurol yasash va uni asrash** qobiliyatiga egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Aniq vaziyatda qurol o'z rolini o'tab bo'lgach, shu zahotiyoq, hayvon uchun qurollik sifatini yo'qotadi. Odam ilgaridan o'ylab qo'yilgan reja bilan qurol yasaydi, quroldan tegishli maqsadlarda foydalanadi hamda uni saqlab qo'yadi. Odam nisbatan doimiy buyumlar olamida yashaydi. Odam quroldan foydalanish tajribasini boshqalardan o'rganadi va o'zi bu tajribani boshqalarga o'rgatadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi uchinchi farqi shuki, **inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi.**

Odam bilan hayvon o'rtasidagi to'rtinchi g'oyat muhim farq **hissiyot** o'rtasidagi farqdir. Rivojlanish sharoitlarining turlicha bo'lishi odam psixikasining hayvon psixikasidan ajratuvchi muhim farqlardan hisoblanadi. Agar odam insoniyat tajribasini o'zlashtirmas ekan, o'ziga o'xshagan odamlar bilan munosabatga kirishmas ekan, shaxs sifatida tarkib topmaydi. Inson ongining rivojlanishiga asosiy omil mehnat faoliyati, ya'ni odamlarning birgalikda qurol yasash va undan foydalanish faoliyatlari bo'lgan.

Mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ta'sir qiladi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi mehnatda rivojlanadi. Inson ongi evolyusion taraqqiyot jarayonida aks ettirishning eng yuksak shakli sifatida maydonga kelib, ong tufayli odam moddiy dunyodagi narsalarning ob'ektiv, barqaror xususiyatlarini ajrata oladi va shu asosda tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartira oladi. Demak, inson psixikasining oliy bosqichini ong deb atash mumkin.

5-mavzu. Insonda aks ettirish darajalari(2 soat)

Reja:

1. Faoliyat va ong birligi prinsipi.
2. Anglanilgan va anglanilmagan psixik hodisalar.
3. Ustanovka tushunchasi (D.N.Uznadze).
4. Faoliyat regulyatsiyasida anglanilgan va anglanilmagan hodisalarning o'zaro ta'siri

Faoliyatning tarkibi


Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiiy-ijod, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko'rsatadiki, faoliyat tashqi dunyoni ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatda inson o'z xatti-harakatlarini maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o'ylaydi, irodaviy zo'r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va maqlubiyatini o'ylaydi.

Faoliyat bir tomondan, shaxsning rivojlanishi va sifatlarining namoyon bo'lish sharoiti, ikkinchidan, shu faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxsning taraqqiyot darajasiga bog'liqdir. Barcha faoliyat turlari tarkibida uchta tarkibiy qismni: maqsad-motiv-harakatni ajratish mumkindir.


Maqsad - inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir.

Motiv - kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi.

Ish-harakat galdagi bitta oddiy vazifani bajarishga qaratilgan, nisbatan tugallangan faoliyatning tarkibi. Faoliyatga qaratilgan maqsad ozmi-ko'pmi uzoq yoki yaqin bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu maqsadga erishish odam tomonidan ana shu maqsad sari harakat qilish davomida uning oldida tug'iladigan qator juz'iy maqsadlarni izchillik bilan hosil qilishdan iborat bo'ladi. Quyidagi harakatning muhim tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.



Tashqi olamdagi narsalarning holatini va xossalarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni ish-harakat (**sa'i-harakat**) deb yuritiladi. Narsalar bilan qilinadigan istalgan bir ish makon va zamon bilan bog'liq bo'lgan ma'lum harakatlardan tashkil topadi. Masalan: "A", "I" harflarni yozishdagi harakatlar, bir-biridan farq qiladi. Odamlarning narsalar bilan qiladigan harakatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu harakatlar tashqi jihatdan juda ko'p, rang-barangdir. Shunday bo'lsa ham, odatda ular uchta sodda elementlardan tashkil topgandir; "olmoq", "joyini o'zgartirmoq", "quyib yubormoq" bu harakatlar odamning tanasi, oyoqlari va boshi bilan qilinadigan yordamchi harakatlar bilan amalga oshiriladi. Predmetli harakat tarkibi quyidagicha izohlanadi.



Inson faoliyatiga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilish tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglovchi matn paydo bo'ladi.

Inson faoliyati narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan sa'i - harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati, b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish), v) joy almashish (yurish-yugurish), g) aloqa vositalari sa'i-harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga; a) ifodali sa'i- harakat (imo-ishora, pantomimika), b) ma'noli ishora, v) nutqiy sa'i- harakatlarni kiritadi. Sa'i-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganidan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'i- harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning amalga oshishi, shart-sharoitlarga bog'liq. Jumladan: a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzdagi sa'i-harakatni taqazo etadi, b) avtomobilni haydash velosepedda uchishga qaraganda o'zgacha sa'i-harakat talab qiladi, v) ellik kilogramm shtangani ko'tarishda bir pudlik toshga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi, g) kartonga katta shaklni joylashtirish, qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha ob'ektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Ob'ektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A. Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida isbotlab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i - harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilish mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'i- harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa tamoyiliga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchisi **P.K.Anoxin teskari afferentatsiya** deb atagan. Afferentatsiya (lotincha afforens keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa axborotlarning tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini namoyon qiladi. Sa'i - harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsuloti timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'i-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular "Bo'lg'usi harakat modellari", "sa'i-harakat dasturi", "maqsadning dasturi", "miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari" singari tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari; "harakat akseptori" va "Ilgarilab aks ettirish" (P.K.Anoxin), "harakat-lantiruvchi vazifa" va "Bo'lg'usi ehtiyoj andozasi" (N.A.Bernshteyn), "Zaruriy mohiyat " va "Kelajak andozasi" (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvur-larning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi.

Narsalar bilan qilinadigan ish-harakatidan tashqari, odamning faoliyatini badanning ma'lum vaziyatini va qiyofasini saqlab turishni ta'minlaydigan harakatlar, organizmning bir joyidan ikkinchi joyiga o'rin almashtirishi, kommunikasiyani ta'minlaydigan harakatlar, ifodali harakatlar va nutq harakatlari mavjud.

Narsalar bilan qilinadigan ishlarni bajarish ma'lum tizimdagi harakatlarni amalga oshirishdan iborat. Harakatlar tizimi va maqsadi bilan, bu maqsad yo'naltirilgan narsalar xususiyati va ish sharoiti bilan bog'liqdir. Masalan, stakan va qalamni olish, piyoda va chang'ida yurish, og'ir va engil narsani boshqa joyga olib qo'yish, mayda va katta mixni qoqish, gantel va shtangani ko'tarish, harakatlari bir-biridan farq qiladi.

Harakatning boshqarilishi va uning natijalarini erishiladigan pirovard maqsad, taqqoslash yo'li bilan doim nazorat qilib boriladi va to'ldirib turiladi. Unday nazorat sezgi a'zolari yordami bilan erishilishi mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi. Demak, maqsad miyada, kelajakdagi faoliyat natijasida, tilakdagi kelajak modeli bilan ishning mazkur natijalari taqqoslanadi, xuddi ana shu ishning qay yo'sinda bo'lishi boshqariladi.

Harakatlarning istagan bir tomonlarini ularning motor, sensor va markaziy tarkibiy qismlari deb atash mumkin. Ishni amalga oshirishda bajaradigan vazifalariga muvofiq, ular ishni ijro qiluvchi, boshqaruvchi deb belgilanishi mumkin. Bu vazifalarning har birini kishi ongli va ongsiz ravishda bajarishi mumkin. Odam talaffuz qilmoqchi bo'lgan gapning grammatik shakli va mazmuni hamisha ong yordamida oldindan payqab olinadi. Odatda, ishdan ko'zlangan maqsad va shuning bilan birga ishning umumiy xarakteri hamma vaqt anglab olinadi. Masalan, velosipedda ketayotgan odam mutlaqo ongsizlik holatida buning uddasidan chiqq olmaydi.

Bajariladigan harakatning ma'lum tomonlari dastavval to'la anglab boshqarishni talab qilinadi, undan keyin ishning bajarilishi ongning ishtirokini borgan sari kamroq talab qiladi. Bunday hollarda ishning bajarilishi avtomatlashadi.

Odamdagi maqsadga muvofiq harakatlarning amalga oshirilishi va avtomatlashuvi malaka deb aytiladi. Ishning tuzilishi shunday qisman avtomatlashuvi tufayli o'zgarish imkoniyati quyidagidan iborat:

1. Harakatlarni ijro qilish usullarining o'zgarishi. Bundan avval har biri alohida-alohida bajarilgan ayrim harakatlar bir butun harakat tarkibidagi oddiy harakatlar o'rtasida hech qanday "to'xtab qolish" va tanaffuslar bo'lmaydigan bitta yaxlit aktga aylanadi. Masalan, kotibaning o'rganayotgan haydovchi, yozishni o'rganayotgan bola harakatini ko'rish mumkin.
2. Ishni bajarishda sensor, ya'ni hissiy nazorat usullarining o'zgarishi. Ishni bajarish ustidan qilinadigan ko'rish nazorati ko'p jihatdan muskul nazorat bilan almashinadi. Masalan, mashinistkaning xat yozishdagi, haydovchi motor ovoqidagi, po'lat quyuvchi metal rangining o'zgarishini farq qiladi.
3. Ish-harakat markaziy boshqaruvchi usullarining o'zgarishi. Diqqat ish-harakatining usullarini idrok qilishdan ozod bo'ladi va asosan ish-amalning hamda natijalarni idrok qilishga qaratiladi. Ayrim hisoblash, qarorga kelish va boshqa intellektual operatsiyalar tez va birlashgan holda "intuitiv" bajarila boshlaydi.

Malaka faoliyat tarkibida o'ziga xos o'rin tutadi. **Malaka** deb mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullariga aytiladi. Malaka ish unumdorligining ortishiga, vaqtni tejashga, aqliy faoliyatni bir muncha muhimroq narsalarga safarbar qilishga imkon beradi. Malaka quyidagicha hosil qilinadi:

- a) mehnat harakatlari, ularni egallab olishning zarur ekanligi va ahamiyatini anglash;
- b) harakat namunasini esda olib qolish;
- v) malaka namunalari ko'p marta bajarish, mashq qilish;
- g) izchillik bilan olib boriladigan mashq natijasida harakatlar tezlashadi, xatolar kamayadi;
- d) malaka harakatlarni avtomatlashtirish bilan shakllanadi. Ayrim ortiqcha harakat elementlari tushib qoladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlardan va malakalardan foydalana olish **ko'nikma** deyiladi.

Malaka turli yo'llar bilan ko'rsatish, tushuntirish, ko'rsatish va tushuntirishni qo'shib olib borish orqali hosil qilinishi mumkin.

Har bir ko'nikma va malaka odamning o'z tajribasida avval egallab olgan malakalari asosida yuzaga keladi va amal qiladi. Malaka, ko'nikmalarning ayrimlari kishining ko'nikma hosil qilishiga va malakali ishlashiga yordam beradi, boshqa birlari halaqit beradi, uchinchilari, yangi ko'nikmalarni o'zgartirib boradi. Bu hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deyiladi.

Avval hosil qilingan malakalarning yangi malakalarga ijobiy ta'siri malakalarning ko'chishi yoki **malakalar induksiyasi** deb ataladi. Masalan, matematika darsida hosil bo'lgan ko'nikmani, fizikada qo'llash mumkin.

Faoliyatning yana bir qismi odat bo'lib, ko'nikma malakalardan hech qanday samara yoki natijaga ega emasligi bilan ajralib turadi. Odatda odam tomonidan beixtiyor, ongsiz tarzda muayyan maqsadga yo'naltirilmagan holda amalga

oshiriladi. Ba'zi hollarda odatlar shaxs tomonidan nazorat qilinishi mumkin, lekin har doim ham aqlli va kerakli harakatlar bo'lmashligi mumkin.

Faoliyatning asosiy turlari

Odamlarning faoliyati ongli faollik sifatida inson ongining tarkib topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi. Inson faoliyatida taraqqiyotning asosi hamda ong mazmunining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi, shu bilan birga faoliyat odam shaxsini tarkib toptiradi. Odamlarda har xil turdagi faoliyatlarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti juda ham murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon. Bolaning faoliyati uning kamoloti davomida faqat asta-sekin ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ongli maqsadga mos faoliyat shaklini egallab boradi. Inson faoliyati asosan uch turga bo'linadi: o'yin, mehnat, ta'lim faoliyati. Bu faoliyat turlari bola shaxsining tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'yin. Bola bir yoshga to'lgandan boshlaboq unda faoliyatning sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday shart-sharoitlardan birinchisi o'yindir. O'yin faoliyatini hayvon bolalarida ham uchratish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanish, yolg'ondakam urishishlar, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin. Bolalarda ham o'yin ularning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai tahlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakatli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

O'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga mashq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatlari boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi. O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyati tusini oladi va muayyan ma'noda axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga harakat qiladi.

O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilgandan to maktab ta'limigacha uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Ta'lim faoliyati o'yin faoliyatining pirovardida yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum axborotlarni, bilimlarni, harakatlar va amallarni o'zlashtirishdan iboratdir. Odamning o'z maqsadiga ko'ra batamom o'rganish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyati ta'lim faoliyati deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, ta'lim faoliyati o'z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: ma'lum bir

nazariya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ob'ektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni o'zlashtirish. Bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishda yuzaga keladigan usul va operatsiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Ta'lim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab bo'lib, bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

Ta'lim faoliyati ma'lum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol ta'sir etib, ularning ta'lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o'rganish tomon yo'naltirishdir. Shunday qilib, ta'lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma'lumki, ta'lim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bog'liqdir. Bizning maktablarimizda har qanday ta'lim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan bo'yicha ta'lim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishontirish, ko'rsatish, rag'batlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnat faoliyati - ma'lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati ma'lum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi. Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning iste'mol qilinadigan narsalarni, ya'ni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, ya'ni kiyim-kechak oziq-ovqat va boshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Mehnat faoliyati o'z mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham o'ziga kerak bo'ladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto birgina narsani boshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning uchun odam hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni jamiyatdan oladi, o'z ehtiyojlarini qondiradi.

6-mavzu. Psixik jarayonlarni shakllanishida tilning ahamiyati .Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi(2 soat)

Reja:

1. Mehnat faoliyatida tilning shakllanishi va vujudga kelishi.
2. Nutqning funksiyasi.
3. Muomalaga kirishish shaxsning faolligi sifatida.
4. Nutqli va nutqsiz muomala.
5. Muloqotning tizimi.
6. Ongni rivojlanishi va unga ijtimoiy tarixiy tajribalarni o'zlashtirilishi.
7. O'zlashtirish jarayonining tavsifi.
8. Intereorezatsiya tushunchasi bolaning birgalikdagi faoliyatdan alohida faoliyatga o'tish holati.
9. Eksteriorizatsiya tushunchasi ijodiy faoliyatni shakllanishidagi o'rni.
10. Yuqori psixik funksiyalarni shakllanishi.
11. Yuqori psixik funksiyalarni ixtiyoriy xarakteri
12. Ongning shakllanishi va inson shaxsi

Yosh tushunchasi. Psixologik yosh va psixik rivojlanishni davrlashtirish

Yosh – bu psixologiyaning fundamental va murakkab kategoriyalaridan biri.

Shaxsning individual rivojlanish analizi shuni ko'rsatadi-ki, konkret shaxs hayot yo'li nuqtai nazaridan yosh kategoriyasi bir qancha pozitsiyalarga ko'ra qarab chiqilishi mumkin.

Biologik yosh organizm funksiyasi va moddalar almashinuv holatini mazkur xronologik yoshga tegishli bo'lgan populyatsiyaning rivojlanish darajasi o'rtacha ko'rsatkichi bilan solishtirish orqali aniqlanadi. Bunga asos qilib har bir inson organizmida sodir bo'ladigan genetik, morfologik, fiziologik hamda neyrofiziologik o'zgarishlar olingan.

Psixologik yosh individning psixik rivojlanish darajasi (aqliy, emotsional va b.) bilan unga muvofiq keladigan normativ daraja o'rtasida bog'lanishni yuzaga keltirish yo'li bilan o'rnatiladi.

Sotsial yosh shaxsning sotsial rivojlanish darajasini (masalan, ma'lum sotsial rollarni egallash yo'llari) uning tengdoshlari uchun statistik normal daraja bilan solishtirish orqali o'lchanadi.

Shuningdek, shaxsning *sub'ektiv yoshi* bo'lib, u ichki hisob sistemasiga ega. Bunga ko'ra, inson o'z yoshiga o'zi baho beradi. Sub'ektiv yosh asosini o'z-o'zini his etish tashkil qiladi. Shunga ko'ra, sub'ektiv yosh xronologik yoshdan holi hisoblanadi. Inson o'zini haqiqiy yoshidan katta yoki bo'lmasam kichik his qilishi mumkin.

Psixologik tadqiqotning predmeti shaxsning psixologik yoshi, asosiy vazifasi esa hisob sistemasini qidirish va xronologik birlikni o'lchash hisoblanadi. Shunga ko'ra, psixik rivojlanishni davrlashtirish amalga oshiriladi.

Har qanday davrlashtirishning maqsadi rivojlanish bosqichlarida bir-biridan farqlanuvchi o'ziga xos davrlarni belgilash hisoblanadi. Psixologiya tarixida bir necha bor psixik taraqqiyotni davrlashtirishga harakat qilingan. Uni sistemalashtirish L.S.Vigotskiyning "Yosh muammolari" nomli kitobida ishlab chiqilgan. O'sha vaqtdagi barcha davrlashtirishlarni olim uch guruhga ajratgan va buni metodologik jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Shuning uchun ham, uning bu sistemalashtirishi hozirgi paytda zamonaviy davrlashtirishlarda ham foydalanilmoqda.

Davrlashtirishning birinchi guruhida rivojlanish jarayonining o'zi bosqichlarga bo'linmagan, balki boshqa xronologik tizimlarning bosqichma-bosqich shakllanishi analogiyasiga ko'ra yaratilgan. Bunga misol qilib, S.Xollning jamiyat rivojlanish bosqichlari haqidagi tasavvurlar analogiyasi bilan yaratilgan davrlashtirishini aytish mumkin. U yer qazish va kovlash bosqichi (0-5 yosh), ov va bosib olish bosqichi (5-11 yosh), chorvachilik bosqichi (8-12 yosh), dehqonchilik bosqichi (11-15 yosh), savdo va sanoat bosqich (15-20 yosh)lariga ajratib, ularni jamiyat rivojlanishining hayvonot bosqichi, ovchili va baliqchilik davri, yovvoyilikning tugashi va sivilizatsiyaning boshlanishi bilan bog'lagan.

L.S.Vigotskiy ikkinchi guruhga rivojlanishning qandaydir bitta belgisi asos qilib olingan davrlashtirishlarni kiritgan. Bunga misol qilib, P.P.Blonskiyning sxemasini olish mumkin. U o'z sxemasini dentisiya (tishlar chiqishi va almashinishi)prinsipiga ko'ra ishlab chiqqan. Unga ko'ra, tishsiz bolalik, sut tishlari bor bolalik, tishlar almashinishi davri, doimiy tishlar bo'lishi bolaligi.

Ikkinchi guruh davrlashtirishidagi asosiy o'rinni asosida intellektual strukturalar rivojlanishi yotgan J.Piajening davrlashtirishi egallaydi. Intellekt rivojlanishi atrof-muhit bilan muvozanatga erishish omilida namoyon bo'lib, quyidagi to'rt bosqichda kuzatiladi:

- 1) tafakkurning operatsiyalar oldi bosqichi va uning reflekslar hamda moslashuvchan reaksiyalari (sensomotor intellekt);
- 2) ong oldi va intuitiv tafakkur (obrazlar va simvollar bilan bog'liq ichki tafakkur);
- 3) konkret operatsiyalar bosqichi;
- 4) formal operatsiyalar bosqichi deb nomlaydi.

Tabaqalangan yosh davrida bolalarda kattalar bilan faol aloqa kirishish ehtiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo'lgan ehtiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha muloqot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdagi inqirozni keltirib chiqaradi. Yuzaga kelgan nizolar ya'ni qarama-qarshilik o'z yechimini nutq orqali muloqot davrida topadi va bola o'sishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tayotganini ifodalaydi. Bolaning nutq faoliyati takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko'lam kengayib boradi. Natijada haqiqiy ma'nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, bolaning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda bolaning o'sishini ta'minlovchi ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar yaratilishi – bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo'ladi.

L.I.Bojovich olib borgan tadqiqotning natijasi tug'ilish davriga kelganda bolaning miya po'stlog'i faoliyat ko'rsata boshlasa-da, aslida u na anatomik va na funksional jihatdan rivojlangan bo'lishini ko'rsatdi. Vaholanki, uning psixik dunyosida vujudga keladigan ehtiyojlarning kuchi, davomiyligi, barqarorligi ana shu rivojlanishga bog'liqdir. Organlarning rivojlanishi bolaning funksional holatiga aloqadorligi sababli bosh miyaning rivojlanishi ham unga yangi qo'zg'atuvchilarning ta'sir qilishiga va bu ta'sirning bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida faoliyat uyg'otishiga bog'liqdir. Bosh miya markazlari esa jadallashgan orientirovka faoliyatining kuchliligi tufayli funksional jihatdan rivojlanadi.

Mohir tadqiqotchi N.M.Askarinning fikricha, katta yoshdagi odamning tabassumi yoki yoqimli ovozidan boshqa hech qanday qo'zg'atuvchi go'dakda shunchalik quvonch va shodlik his-tuyg'usini vujudga keltira olmaydi. Shu sababli quvonch tuyg'usini uyg'otish va mustahkamlash uchun tarbiyachilar go'dak bilan tez-tez muloqotda bo'lishi, yoqimli ohangda, samimiy suhbatlashib turishi lozim.

Harakatning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o'rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan ta'kidlashicha, 2–3 haftalik go'dakda ko'z konvergentsiyasi vujudga kelsa ham, o'z nigohini turli jismlarga qaratib turish jarayoni juda qiyin kechadi, hayotining 3–5 haftalarida esa uning nigohi oz fursat bo'lsa-da, muayyan ob'ektga to'plana boshlaydi. 4–5 haftalik go'dakda 1–1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ikki oylik bola 2–4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o'rganadi, u uch oyligida 4–7 metr oraliqdagi jismlarni ham payqay oladi, nihoyat, 6–10 haftalik go'dak hatto, aylanayotgan narsalarning harakatini idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik hissiy organlarining ko'z bilan turli funksional aloqalar o'rnatishi qaror topadi. Go'dak to'rt oyligida uning jismga tikilishi va tomosha qilishi nisbatan barqaror bo'ladi.

D.Kolberga fikrlariga qaraganda bolalarda qo'l harakati hali beixtiyor xususiyatga ega bo'lib, jismlarni maqsadga muvofiq harakatlantirishdan ancha uzoqdir. Bola 4 oyligidan boshlab narsaga qo'lini yo'naltiradi, asta-sekin unda paypaslash uquvi namoyon bo'la boshlaydi, 5–6 oyligida narsani ushlash va uni o'ziga tortib olish (qo'ldan yulib olish) ko'nikmalari shakllanadi. Harakat va teri tuyush organlari sifatida qo'sh vazifani o'tovchi ko'rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan birmuncha kechikadi. Bola 6 oyligida unda o'tirish, turish, emaklash, yurish, gapirish ko'nikmalari shakllanadi.

Yuqoridagi hollarning moddiy asosini o'rgangan J.Piaje bolada bosh miya yarim sharlari po'stlog'i o'z funksiyasini boshlashini, bu hol barcha idrok qilish organlarida, eshituv, ko'ruv apparatlarida shartli reflekslar paydo bo'lganidan dalolat berishini uqtiradi. Olimning fikricha, eshitish, ko'rishning yuksak analizatorlari, hattoki, ularning kortikal bo'limlari rivojlanganidan keyin bolada harakat va harakat hodisasi rivojlanadi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotlaridan ko'zning rivojlanishi 4 oylik go'dakda ayrim harakatlarni va harakatlanuvchi ob'ektlarni kuzatish imkonini yaratadi, degan xulosa chiqaradi. Mazkur yosh davrida predmetning harakati ko'z harakatini vujudga

keltiradi. Uning rivojlanishi qo‘l bilan paypaslash harakati paydo bo‘lishi bilan boshlanadi.

Bolaning harakati o‘z qo‘lini silash va ushlab ko‘rishdan boshlanib, choyshab va ko‘rpachalarni paypaslashga borib yetadi. Odatda, bola qo‘lini uzoq vaqt ko‘rpacha va choyshab ustida harakatlantiradi. Tashqi ta’sirga javob sifatida paydo bo‘lgan psixik jarayonning mazmuni qo‘lning jism ketidan emas, balki jism bo‘ylab harakat qilishidan iboratdir.

D.B.Elkonin L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy psixologiyadagi tajribasiga tayanib, har bir rivojlanish davrini to‘rt kriteriyaga asoslanib tahlil qilishni taklif etgan. Bularga:

- 1) sotsial holatlar rivojlanishi – bolaning munosabatlarga kirishish jarayoni;
- 2) asosiy (yetakchi) faoliyat turi;
- 3) yangidan shakllanadigan rivojlanish;
- 4) krizis.

D.B.Elkonin har bir davrni ikki bosqichga ajratib, birinchi bosqichda shaxs motivasion-ehtiyojlar sohasida o‘zgarishlar bo‘lishi, ikkinchisida esa operasion-texnik sohani o‘zlashtirish sodir bo‘lishini ta’kidlagan. Olim tomonidan ketma-ketlik qonuni kashf etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, har bir davrda faoliyat turi navbatma-navbat o‘zgarib turadi: bir faoliyat turini amalga oshirganda, masalan, jamiyatdagi normalarga muvofiq tarzda boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishganda, albatta, keyingi faoliyat turiga, misol uchun, predmetlardan foydalanish usulida orientatsiyani amalga oshirishga o‘tiladi. Har gal bu ikki orientatsiya turlari o‘rtasida doimo qarama-qarshilik vujudga keladi.

D.B.Elkonin bo‘yicha bola rivojlanish davr va bosqichlari:

- ilk bolalik davri ikki bosqichdan iborat: go‘daklik tug‘ilish krizisi bilan (shaxsning motivasion-ehtiyoj sohasi), va ilk yosh davri, 1 yosh krizisi bilan (operasion-tenik soha);

- bolalik davri 3 yoshlar krizisi bilan boshlanib, maktabgacha yosh davrini o‘z ichiga oladi (shaxsning motivasion-ehtiyoj sohasi). Ikkinchi bosqich 7 yoshlar krizisi bo‘lib, unga kichik maktab yoshi davri kiradi (operasion-tenik soha);

- o‘smirlik davri 11-12 yoshlar krizisi bilan boshlanadigan o‘smirlik (shaxsning motivasion-ehtiyoj sohasi) va 15 yoshlar krizisi bilan bog‘liq ilk o‘spirinlik davrlariga bo‘linadi (operasion-tenik soha). D.B.Elkoninning fikricha, 3 va 11-12 yoshdagi krizislar munosabatlar krizisi hisoblanib, uning natijasida shaxs munosabatlarida yangi orientatsiyalar shakllanadi. 1, 7 va 15 yoshdagi krizislar dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lib, olamdagi narsalarga bo‘lgan orientatsiyalarni o‘zgartiradi.

Zamonaviy yosh davrlari psixologiyasi bolaning psixik rivojlanishini davrlashtirishda yetakchi sifatida D.B.Elkonin davrlashtirishini qabul qilishgan. Lekin ushbu davrlashtirish faqat ilk yosh davrlarini o‘z ichiga olgan. Shunga ko‘ra zamonaviy psixologiya oldida turgan asosiy muammolardan biri katta yoshdagi shaxslarning psixik rivojlanishini davrlashtirishdir.

7-mavzu. Psixik jarayonlar va miyaning o'zaro aloqadorligi. (2 soat)

Reja:

1. Psixofiziologik muammo.
2. Miya va insonning psixik jarayonlari.
3. Psixik jarayonlar holatiga qarab muommoni tadqiq qilish va yechimi.
4. Psixofiziologik ta'sir holatlari.
5. Psixik jarayonlarni fiziologik holatlardan cheklanganligi.
6. Psixologik bilimlarni tahlil qilish qonuniyatlari.
7. Maqsadga qaratilgan faoliyat.
8. Obrazlar asosida faoliyatni nazorat qilish.
9. Faoliyatning o'ziga xosligiga qarab tobe'lik holatlari.

Miya va psixika

Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyani alohida xossasi bo'lib, u ob'ektiv olamni alohida bir tarzda aks ettiradi. Yuksak darajada tashkil topgan materiya deganda biz miyani tushunamiz. Demak inson va hayvonlar psixikasining moddiy asosini markaziy nerv sistemasining eng yuksak qismi bo'lmish bosh miya tashkil etadi. Ammo insonlar miyasi hayvonlar miyasiga qaraganda qancha murakkabroq tuzilgan bo'ladi. Odam miyasi hajmi jihatidan ham katta. Agar maymun miyasining og'irligi 400-500 g bo'lsa, odam miyasining og'irligi o'rta hisobda 1400 g dir.

Miya funksiyasi organizm hayotida shunchalik murakkabki, buni biz miya butun gavda og'irligining 2 foizini tashkil qilishidan va organizmga kiradigan kislorodning 18 foizidan ortiqrog'ini ishlashidan ham ko'rishimiz mumkin. Hayvon taraqqiyotining qanchalik yuqoriroq bosqichida tursa, uning tanasiga nisbatan miyasi shunchalik og'irroq bo'lib boraveradi.

Miyaning tanaga bo'lgan nisbati: Kit miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{20000}$, fil miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{400}$, maymun miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{100}$, Odam miyasining tanasiga nisbati $\frac{1}{46}$.

Ayniqsa, bosh miya katta yarim sharlari kishi organizmi hayotida muhim ahamiyatga ega. Odamda o'rtacha 14-15 milliard neyronidan iborat. Eng muhim rolni miya po'stining peshona qismi o'ynaydi. hayvon taraqqiyotining yuqoriroq bosqichiga qanchalik ko'tarilsa, miya yarim sharlari po'stining peshona qismi shunchalik kattaroq bo'ladi.

Inson bosh miyasi, hayvon miyasidan ancha og'irdir.

Odam miyasi - 1400 g.

Ot miyasi - 650 g.

Gorilla miyasi - 400 g.

Ho'kiz miyasi - 500 g.

Kit miyasi - 2800 g.

Fil miyasi - 4000 g.

Individning psixik hayotida miyaning og'irligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo miyaning tuzilishi juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kishining aqli haqida miyaning og'irligiga qarab hukm chiqarish to'g'ri emas. Ba'zi kishilar miyasining vazni o'rtacha vazniga qaraganda ancha og'ir bo'lgani shuningdek, ba'zi kishilarning miya vazni o'rtacha darajadan kamroq ham bo'lgani ma'lum.

Masalan: I.S.Turgenevning miyasi 2012 g, V.M.Bexterevning miyasi 1720 g, I.P.Pavlovning miyasi 1653 g, D.I.Mendeleevning miyasi 1751 g, Anatol Fransisning miyasi 1017 g bo'lgan.

Odamning bosh miyasi kishi psixikasining o'ziga xos takrorlanmas, murakkab organi hisoblanib, u katta yarim sharlar, miyacha, oraliq miya, o'rta miya va uzunchoq miyadan iborat.

Bosh miya orqa miya bilan markaziy nerv tuzilmasini tashkil qilib, odam organizmidagi barcha organlarning o'zaro faoliyati va bir-biri bilan bog'lanishini hamda uning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasini ta'minlaydi. Psixik faoliyatlarning ko'pgina qismi bir necha qator bo'lib, joylashgan nihoyatda ko'p nerv hujayralaridan (15 milliarddan ko'p) tashkil topgan, kulrang modda qatlamidan iborat bo'lgan bosh miya katta yarim sharlari qobiq ining faoliyati bilan bog'liqdir.

Nerv tizimi nerv to'qimasidan tashkil topgan bo'lib, u o'z navbatida nerv hujayralaridan iborat.

Har bir nerv hujayrasi, ya'ni neyron yadrosi bo'lgan juda ko'p tarmoqlangan kalta o'simtalar - **dendritlar** va bitta uzun o'simta - **akson**dan iborat hujayradan tashkil topgan.

Turli nerv hujayralarining tutashgan joyi **sinaps** deyiladi va u bir neyron boshqasiga impulslarni o'tkazish (to'xtatish yoki ushlab qolish)ni ta'minlaydi.

Nerv hujayralari to'plami miyaning kulrang moddasini, nerv tolalarining to'plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi. Nerv to'qimasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Markaziy nerv tizimi bosh va orqa miyadan iborat. Orqa miya umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan iborat. Orqa miya ikkita yarim, ya'ni o'ng va chap qismlardan iborat bo'lib, ularni uzunasiga ketgan oldingi va orqa kesiklar ajratib turadi.

Orqa miyada nerv tolalarining tutamlari joylashgan bo'lib, sklet muskullari, nerv va shilliq qavatidagi periferik nerv uchlaridan qo'zg'alish nerv impulslari ko'rinishida, ular orqali miyaga u yerdan esa periferiyaga yetkaziladi.

Orqa miyada ongsiz reflektor harakatlarning gavda va qo'l-oyoqlar muskullarning, shuningdek bir qator fiziologik jarayonlarning tomirlarni harakatlantiruvchi, teri ajratuvchi va boshqa markazlar joylashgan.

Bosh miya qutida joylashgan bo'lib, orqa miyaning ustida joylashganga o'xshaydi. Bosh miyada uzunchoq miya, orqa miya, o'rta miya, oraliq miya va oldingi miya farqlanadi.

Orqa miya, Varoliy ko'prigi va miyachadan iborat bo'lib, uzunchoq miya bilan birgalikda miya sopini tashkil qiladi. Miya sopi orqa miyani davomidek

tutashgan. Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqori bo'limlariga impulslar o'tadi va orqaga qaytadi.

Uzunchoq miyaning yadrolari murakkab refleks aktlarida ishtirok etadi; so'rish, chaynash, so'lak ajratish va hokazo.

Miyacha tana harakatlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi. O'rta miya-to'rt tepalik qizil yadro muskul tonusining me'yoriy taqsimlanishini, tovush va yorug'lik qo'zg'atuvchilarini hamda og'irlik kuchiga nisbatan tananing to'g'ri joylashishini idora etadi.

Oraliq miyada sezuvchanlikning oraliq markazlari mujassamlashgan. Oldingi miya va uni qoplab turgan po'stloq bosh miyaning oliy qismlarini tashkil etadi.

Oldingi miya bosh miyaning eng katta qismini deyarli 80 foizini tashkil qiladi va peshona sohasidan ensagacha cho'zilgan yoriq bilan ajrashgan ikkita o'ng va chap yarim sharlardan bir-biri bilan qadoqsimon tana yordamida birikadi.

Yarim sharlarning barcha yuzasi (qariyb 2200 sm) miya po'stlog'i deyiladi. Miya po'stlog'i kulrang moddadan tashkil topgan. Uning qalinligi turlicha bo'lib 4-5 mm.gacha boradi.

Bosh miya katta yarim sharlari qobiqining yuzasi odamda katta sohaga ajratiladi, peshona (eng katta), tepa, ensa va chakkadan iborat. Bir xildagi hujayralar qatlamidan iborat qismlar (qobiq shakli va faoliyatining vazifalari turlicha bo'lgan oltita qatlam hujayralaridan tashkil topgan) qavatlaridan (maydon) iborat. Odamda hammasi bo'lib 52 ta maydon mavjud. Bosh miyaning po'stlog'i ostida yotgan qismlarini qobiq osti sohasi deyiladi. qobiq osti sohasi va qobiq osti tutamlari umumiy sezuvchanlikning differensiyalashgan markazlari hisoblanadi. Bu soha bizning emosiyalarimiz va instinktlarimiz bilan bog'langan.

Periferik nerv tizim markaziy nerv tizimi bilan ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Periferik nerv tizimi markaziy nerv tizimidan chiqib, tarmoqlanib, shu bilan birga butun organizmni markaziy nerv tizimi bilan bog'lovchi nervlardan tashkil topadi.

Bosh miyadan 12 juft, orqa miyadan esa 31 juft nervlar chiqadi. Periferik nervlarning ikki turi: sezuvchi va harakat nervlari farqlanadi. Sezuvchi nervlar nerv uchlaridagi tuzilmalarda ta'sirlovchilar tufayli hosil bo'lgan qo'zg'alishni markazga, ya'ni orqa miya va bosh miyaga yetkazib beradi. Ushbu nervlar boshqacha qilib aytganda, qo'zg'alishni qabul qiluvchi markazga intiluvchi yoki afferent nervlar deyiladi. Harkatlantiruvchi (motor) nervlar markazdan kelayotgan impulsni muskullarga va bezlarga yetkazadi. Bu nervlarni markazdan qochuvchi yoki efferent nervlar deb ham ataladi.

Vegetativ nerv tizimi - orqa miya bo'ylab va undan chetda joylashgan nerv tizimlari alohida tutamlar va nerv tugunlarining chigallaridan iboratdir. Vegetativ nerv tizimining alohida tutamlari ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish va boshqa organlarida joylashgan bo'lib, ichki organlarning faoliyatini idora qiladi.

Vegetativ nerv tizimidan (uning markazlari gipotalamusda orqa miyaning kurak va yuqori bel segmentlarida joylashgan) va parasimpatik nerv tizimidan (uning markazlari o'rta miyadagi turli tepalikda Varoliy ko'prigida, uzunchoq miyada va orqa miyaning dumg'aza qismida joylashgan) iborat.

Simpatik va parasimpatik nerv tizimi ichki a'zolar faoliyatini idora qilishda o'ziga xos "antagonistlar" qarama-qarshi bo'lib, bir organ faoliyatini qarama-qarshi holatga keltiradi.

Masalan, simpatik tizim yurak faoliyatini tezlashtirsa, parasimpatik tizim esa bu faoliyatni susaytiradi. Organizmning me'yordagi faoliyati simpatik va parasimpatik vegetativ nerv tizimining ma'lum bir "muvozanatida" saqlanadi. Vegetativ nerv tizimi emosional kechinmalarda katta rol o'ynaydi.

Odamning ko'pincha psixik jarayonlarini, xususiyatlarini va holatlarini idora etishda retikulyar formasiya alohida rol o'ynaydi. Retikulyar formasiya orqali miyada uzunchoq va keyingi miyada joylashgan nerv tolalari tarmoqi bilan o'zaro birikkan to'rsimon tuzilmadir. U bosh miyaning elektrik faoliyatiga, bosh miya qobig'ining funksional holatiga, qobiqosti markazlariga, miyachaga va orqa miyaga ta'sir qiladi.

Ilmiy psixologiyada miya psixikaning organi sifatidagi o'rganish tarixi ikkita yo'nalishda borgan organizm va muhit munosabatlarini idrok etish asoslarini o'rganish va miyaning alohida tuzilmalarini morfologiyasi va funksiyasini ochishdan iborat.

8-mavzu. Harakat inson faoliyatning birligi sifatida. Xatti-harakat qurilmalari. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaga kirish (2 soat)

Reja:

1. Harakat faoliyatni tahlil qiluvchi asosiy mezon sifatida.
2. Faoliyat va operatsiyalar.
3. Maqsad va motivlarni o'ziga xosligi.
4. O'qish jarayonining maqsadlari.
5. Harakat qismlari: orientirovka, bajaruvchi, nazorat.
6. Xarakatning operatsiyaga o'tishi.
7. Harakatli vazifalar va bajarish holatlari.
8. Harakatni korreksiya qilish.
9. Xatti-harakat tushunchasi. (P.K.Anoxin).
10. Koordinasion harakat tushunchasi. (N.A.Bernshteyn) xarakatlarni rivojlanishi.
11. Psixomotorika tushunchasi Harakatning maqsad sari intilish xususiyati.
12. Zoopsixologiya fan sifatida tarkib topishi.
13. Hayvonlar xatti-harakatlarini o'rganishdagi yondashuvlari.
14. Bixeviorizm, etologiya.
15. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyani Rossiyada o'rganilishi (V.A.Vanger, N.N.Ladigina-Kots va boshqalar).

Hayvonlarning ko'nikmalari

Taraqqiyotning yuqori bosqichidagi hayvonlarda harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda, xatti-harakatning individual o'zgaruvchan shakllari - ko'nikma va intellektual harakatlar ham mavjud. **Ko'nikma** - bu hayvonlarda shartli bog'lanishlar asosida yuzaga keluvchi va avtomatik ravishda sodir bo'luvchi harakatlardir, ya'ni biror faoliyatni takrorlanib turishi natijasida asta-sekin hosil qilingan xatti-harakatlardir. Nerv tizimining rivojlanishi jihatidan hayvon qanchalik yuqori o'rinni egalasa, u o'zida shunchalik murakkab ko'nikmalarini hosil qila oladi. Instinktlarga qaraganda, ko'nikma xatti-harakatlarning ancha o'zgaruvchan shakli hisoblanadi. Hayvonlarning ko'nikmalari, ota-onalaridan "o'rganish" yo'li bilan ham hosil bo'ladi. Masalan, bo'rilar bolalarini ovga o'rgatadilar, qari bo'ri qilgan harakatni yosh bo'ri takrorlaydi, bu taqlid qilish instinktiga asoslangan, xatti-harakatlar ko'nikmasidir. Uy hayvonlarini odam "o'rgatganda" ular ko'p ko'nikmalar hosil qiladi. Shuningdek, sirkda o'rgatilgan hayvonlar xilma-xil juda murakkab ko'nikmalarni namoyon etadilar. Ma'lumki, hayvonda odam tomonidan ko'nikmalar hosil qilinishi **o'rgatish yoki dressirovka** deyiladi. Mashhur hayvon o'rgatuvchi V. Durovning ta'kidlashicha, ma'lum narsaga o'rgatishda hayvonlar kerakli harakatni bajargan paytda ularga ovqat berib, rag'batlantirgan, shu yo'sinda murakkab ishlarni bajarishga o'rgatgan. Masalan, ayiqlarni velosipedda yurishga yoki samovarni stolga qo'yishga, fillarni uyin tushishga va shu kabi murakkab xilma-xil ko'nikmalarga o'rgatgan. Hosil bo'lgan ko'nikmalar hatto ayrim instinktlarni to'xtatib g'o'ya oladi. Jumladan, baliqlarda shartli bog'lanishlar ancha tez hosil bo'ladi. Shartli bog'lanishlarning hosil bo'lishi uchun yorug'lik, rang, narsaning shakli, shuningdek, tovush va ta'm belgilari signal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bog'lanishlar tez o'zgarmaydigan bo'ladi.

Chunonchi cho'rthanbaliqda mayda baliqlarni ovlashga oid shartli refleks osongina hosil bo'ladi. Lekin bu refleksni susaytirish juda qiyin. Tadqiqotda mayda baliqlar cho'rthanbaliqdan shisha bilan ajratib qo'yilganda yirtqich yangidan vaqtinchalik bog'lanish hosil qilmagunga qadar uzoq vaqt davomida shishaga urilib turdi, shisha olib qo'yilgandan so'ng esa yangi bog'lanish o'z navbatida uzoq vaqt saqlanib turadi. Shundan keyin cho'rthanbaliq yonida suzib yurgan mayda baliqlarga umuman ahamiyat bermay qo'yadi. Bu faktlardan ma'lumki sharoit o'zgarib ketganda shartli bog'lanishlar hayvonlarning xatti-harakatlarini bir oz o'zgartirishi mumkin ekan. Shunday qilib, ko'nikmalar bir-biridan muhim jihatidan farq qilishi mumkin: bir holatda ko'nikmalar o'zlarining avtomatizmlarga ko'ra instinktlarga yaqinlashsalar, boshqa bir holatda intellektual harakatlarga yaqinlashadilar.

Hayvonlarning intellektual harakatlari .

Aql (intellektual) bosqichi hayvonlarning deyarli murakkab faoliyati bilan tavsiflanib, u aks ettirishning murakkab turidir. "Hayvonlarning borliqni psixik aks etish usuli intellektual faoliyatga o'tishida alohida narsalargina emas, balki ularning munosabatlarini aks ettirish ham vujudga keladi. Hayvonlar rivojlanishning bu bosqichida, narsalar orasidagi bog'lanishlarni aks ettira oladilar.

Nemis zoopsixologi V.Kyolerning tadqiqotlarida maymunlarga yetib bo'lmaydigan joyga xo'rak qo'yiladi. Xo'rakdan yaqinroq, lekin bevosita yetib bo'lmaydigan joyga uzun tayoq qo'yiladi. Bu tayoqqa yetishish uchun qafasda qisqa tayoqcha bilan xo'rakni olib bo'lmaydi. Maymun esa birinchi bosqichda qisqa tayoq bilan uzun tayoqni oladi. Ikkinchi bosqichda esa uzun tayoq orqali xo'rakni olishga muvaffaq bo'ladi.

A.N.Leontevning fikricha, muvaffaqiyatsiz harakatlardan so'ng to'satdan javobni topishi aqliy xatti-harakatlarning yana xususiyatidir. Bu hodisa V.Kyoler tomonidan "insayt"-ravshanlashish deb atalgan.

Aqliy xatti-harakat boshqa ikki xususiyati mavjud bo'lib, bu topilgan muammoning yechimini tez eslab qolish va shu bilan shakllangan operatsiyalarni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'tkaza olishdir.

Hayvonot olamining yuksak bosqichdagi vakillari (quruqlikda yashovchilardan, xususan, odamsimon maymunlar, dengiz hayvonlaridan delfinlar) instinkt, ko'nikmalarni egallashdan tashqari yana murakkab harakatlarni bajara oladi, hayvonlarning bunday xatti-harakatlarini intellektual harakatlar desa bo'ladi. Intellektual xatti-harakatlar hayvonning ancha yuksak shakldagi psixik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u tug'ma instinktlar va hayotda hosil qilingan ko'nikmalar hayvonning yashash sharoiti talablariga javob bera olmagan taqdirda yuzaga keladi. Yuksak taraqqiy qilgan hayvonlar ular uchun ma'lum muammolar bilan bir qatorda yangi bo'lgan narsani ham hal qila oladilar. Masalan, tajriba o'tkazilgan asbob ikkita bo'sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg'aning ko'z o'ngida inga bog'langan xo'rak bir parcha go'sht joylashtirildi. Qarg'a xo'rakning naycha ichiga kirib ketganini ko'radi. Qarg'a shu zahotiy oq ikkinchi naychaning oxiriga sakrab boradi va xo'rakning paydo bo'lishini kutib turadi. Shuningdek, maymunlarda o'tkazilgan tadqiqot ham bunga yaqqol misoldir. Qafasning shipiga banan osib, qafas ichiga ikki - uchta yashik yoki bir ikkita qamishli tayoqcha qo'yadilar. Maymun qafas ichiga kirishi bilan mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Maymun tevarak-atrofiga ko'z yugurtirib, yerda yotgan qamishni ko'radi, va bu qamish bilan mevani qoqib tushirishga harakat qiladi. Lekin unda ham bo'yi yetmaganidan so'ng qamishlarni olib, bir necha vaqt ular bilan turlicha harakatlarni qilib ko'rib, ular bir-birini ichig kirib, uzunlashadi, keyin maymun bananni qoqib tushiradi. Yoki yerda yotgan yashikni ustma-ust qo'yib uni mevaning tagiga surib keltiradi va ustiga chiqib mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Shunda maymun yerda yotgan boshqa yashiklarni ustma-ust qo'yib, narvon qiladi va ularning ustiga chiqib mevani olib yeydi.

Kishi ko'ziga maymunlar nechog'li aqlli hayvon bo'lib tuyulmasin, ammo ularning tafakkuri nihoyatda tordir. Bu fikrni isbotlash uchun shunday bir tajriba o'tkazilgan. Yashik qo'yilgan meva oldiga spirt lampasi yoqib, yonib turgan spirt lampasining tepasiga suvli - jo'mrakli bak va stakan qo'yiladi. Mevani olish uchun maymun avval olovni o'chirish kerak bo'ladi. Bir odam olovni o'chirib, ovqat olish yo'lini maymunga ko'rsatadi, maymun bakdagi suvdan krujkaga quyib olovga sepadi va so'ng mevani olib yeydi. Keyinchalik suv to'ldirilgan bak boshqa stolga ko'chiriladi. Maymun bir stoldan, ikkinchisiga o'tish uchun uzun ko'prik yasab

ko'prik orqali boshqasiga o'tgan va bakdan krujkaga suv to'ldirib yana org'asiga qaytgan, nihoyat olovni o'chirib, mevani olib yegan. Aynan maymun atrofida suv turib bundan foydalanmagani qiziqdir. Bu maymunda umumlashtirish xususiyati yo'qligidan dalolat beradi, ya'ni har qanday suv olovni o'chira olishini maymun mutloqo tushunmaydi, u o'zi ko'rgan ishini, ya'ni bakdan olingan suv bilan olovni o'chirishnigina qila oladi, xolos. Bulardan ma'lumki, aqlni ishlatish bilan biror bir masalani hal qilishda maymun masalani yechishni barcha zarur shartlarini ko'ra olmaydi, ulardan faqat ayrimlarinigina fahmlaydi, xolos. Maymunlarning intellektual harakatlari har qanday harakatlarni sinab ko'rish jarayonida aniq amaliy tafakkur tarzida sodir bo'ladi. Taqlidchanlik - maymunlar hulq-atvorining xarakterli xususiyatidir. Masalan, maymun supurgi bilan polni supuradi va "lattani ho'llab siqadi", "polni artadi", "yuvadi". Odatda, maymunlar harakatning natijasiga emas, balki harakatning o'ziga taqlid qiladilar. Maymun polni supurar ekan, axlatni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuraveradi-yu, lekin axlatni poldan tozalab ola bilmaydi.

Shunday tadqiqot o'tkazilgan uyga bo'sh chelak va quruq latta qo'yilgan. Maymun latta bilan polni artadi va har safar u lattani chelakka tushurib aylantirib siqadi, bu ishni maymun farrosh qilgani kabi bajaradi. Shuningdek, maymun qalam bilan daftarga "yozadi" (chiziqlar chizadi) va unga diqqat bilan qaraydi. Maymunga qalam o'rniga tayoqcha berilsa, qam u "yozishni" davom ettiradi. Intellektual harakatning natijasiga taqlid qilish maymunlarda uchramaydi.

Amerikalik olimlar **G.Xarlou, M.Xarlou, S.Suomilarning** tadqiqotlari yangi tug'ilgan maymunlar bolasi sun'iy onaning ayrim turlarigagina haddan ziyod ixlos qo'yishi mumkinligini ko'rsatadi. Tajriba qo'yidagicha olib boriladi, ya'ni Makaka maymunining yangi tug'ilgan bolalarini xuddi haqiqiy onasining kattaligida qilib ishlangan sun'iy ona bilan qafasga solib qo'yiladi. Maymunchalarning biriga metall kraskadan yasalgan "ona", ikkinchisiga yog'och silindrdan yasalib, tukli mato bilan o'ralgan "ona" to'g'ri keladi. Yumshoq onalik maymuncha ko'p vaqtini uning yonida o'tkazadi, uni goh quchoqlar, goh uning ustiga ham chiqib ketardi. U har gal xavf tug'ilsa, onasining himoyasiga qochib borgan. Metall onaga tekkan maymuncha esa juda qiynaldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maymunlarning bolalari sut bergan onadan ko'ra, sut bermasa ham matodan yasalgan onani afzal ko'rishadi. Matodan yasalgan onalar maymunlarda xavfsizlik va ishonch hissini uyg'otadi.

Biroq yuksak taraqqiy etgan katta maymunlarning instinktiv xatti-harakati, bir hujayrali hayvonlar instinktidan jiddiy farq qiladi. Yuksak taraqqiy etgan maymunlar (jumladan shimpanze)da xatti-harakatning uya qurishdek tug'ma shakli mavjuddir. Tabiiy sharoitlarda ular har kuni daraxtlarda shox-shabalardan uya qurishadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maymunlar uya qurishda, materiallarni tanlash chog'ida amaliy tahlilga binoan ish ko'radilar. Tadqiqot jarayonida maymunlarning binokorlik "faoliyati" kemiruvchilar (kalamush)ning uya qurishi bilan taqqoslab ko'rildi. Qattiqligi turlicha materiallar, jumladan, daraxt shoxlari va qoqoz mavjud bo'lgan holda shimpanze va kalamushlar qam uyani bir xil tipda, ya'ni uyaning asosiy qismini qattiq materialdan yasab, ichiga ancha yumshoqroq material

to'shaydi. Agar shimpanze va kalamushga faqat yumshoq material berilsa, u holda ikkalasi ham uyani shu materialdan qurishga tushadi. Lekin ular tavsiya qilingan materialdan uyalarini yasab bo'lganlaridan keyin ularga ancha dag'alroq material berilsa, u holda hayvonlarning reaksiyalarida darhol sifat farq ko'rinadi. Shimpanze ancha dag'al materialga ega bo'lganidan keyin shu zahotiyoq uyasini qayta qurishga kirishadi. Yumshoq materialdan qurilgan inshootini bir chekkaga surib qo'yadi va ancha dag'al materialdan uyaning asosini qura boshlaydi. Shundan keyingina u yumshoq materialdan foydalanadi, uni uyasining ichki yuzalariga to'shaydi, kalamushlarda ham xuddi shunga o'xshash vaziyatni ko'rishni davom ettiradilar, dag'al materialni yumshoq material ustidan tushay beradilar. Shunday qilib, uya qurish maymunlarda garchi instinktiv harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo'lsa, ham bu harakatlar tashqi shart-sharoitlar hisobiga olingan holda yuz beradi.

II modul “SHAXS PSIXOLOGIYASI”

11-mavzu. Shaxs psixologiyasining metodologik prinsiplari(2 soat)

Reja:

1. Metodologiya ilmiy metodlar nazariyasi sifatida.
2. Shaxsni o'rganish. Psixologiya tarixida shaxsning o'rni.
3. Shaxsni etnik va gender jihatdan o'rganish. Shaxsni baholash.
4. Shaxsni tadqiq etish. Inson tabiati haqidagi tadqiqotlar.
5. Shaxsni tadqiq etish metodlari.
6. Shaxs nazariyalarini belgilovchi mezonlar.
7. G'arb psixologiya maktabalarida shaxsni tadqiq etish g'oyasining o'ziga xosligi.
8. A.G.Asmolov bo'yicha shaxsni tadqiq etishda bilish vaziyatlari xususiyatlari.
9. Shaxsni o'rganishda tizimlilik prinsipi darajalari, komponentlari va tuzilma hosil qilish mexanizmlari (S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananov, V.S. Merlin).
10. Faollik prinsipi va unga doir uch yondashuv (N.A. Bernshteyn, P.K. Anoxin, D.N. Uznadze, A.N. Leontev).
11. Taraqqiyot prinsipi: determenantlari, darajalari va shaxs rivojlanish bosqichlari (Z. Freyd, E. Erikson, N. MakVilyams), determinizm prinsipi (Dj. Uotson, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev), nazariya, eksperiment va amaliyot birligi prinsipi (D. Kempbell, V.N. Drujinin, T.V. Kornilova)., determinizm prinsipi.
12. Shaxs psixologiyasi, ko'p qirraligi.
13. Indivd,shaxs,individuallik. Shaxsning turli fanlar nukta nazaridan o'rganilishi.
14. Shaxs muammosi va fanning metodologik darajalari.
15. Shaxsga nisbatan evolyusion tarixiy va tizimli yondashuv.
16. Shaxs fenotipik xususiyatlarining ontogeneza rivojlanishi.
17. Inson tabiatini evolyusion jihatdan tadqiq etish.

Inson tabiatining o'ziga xos tomonlaridan biri uning jamiyat hayoti bilan bog'langan tomoni bo'lib, bu shaxs muammosini o'rganishni taqozo etuvchi jihati hisoblanadi. Inson mavjudligining turli jabhalardan o'rganish uzoq tarixiy davrli an'analarga ega. Bu esa insonning shaxslilik aspektidagi ko'p o'lchamlilik, ko'pqirralilik va xilma xillik uning o'ziga xosligini belgilaydi. Ular quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

- shaxs fenomenining tushunish asosida qarashlar, e'tiqod, tafakkurlash uslublari bilan bog'liqligi.
- shaxs tushunchasining fanlararo statusga egaligi.
- shaxsning tavsiflashning imkoniyatlari keng va boy ekanligi.
- individ, individuallik, faoliyat sub'ekti va shaxs tushunchalarining o'zaro o'xshashligi va o'zaro aloqadorligi.
- shaxs tushunchasi etimologiyasining xilma xilligi.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron bir tanbeh berishning o'zi kimgadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlar, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning manguqlikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlarini bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyandalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shveysariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar.

Har bir shaxsning hayotda erishgan yutuqlari, baxtini xarakterlovchi ma'lum mezonlar borki, uni o'rganishda alohida fan yo'nalishiga zarurat tug'iladi. Bu esa

insonning ijtimoiy faolligini ta'minlovchi shaxs tushunchasi bilan xarakterlanadi. Shaxs faol faoliyat sub'ekti bo'lib, u hayotining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib boradi.

Shaxsning qanday tarkib topishi uning yaxshi oila a'zosi yoki ota-ona bo'lishi, uning salomatligi ham hayotda egallaydigan karerasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxs hayotda o'zining imkoniyati va tanlovlarini cheklashi yoki kengaytirishi mumkin. U shaxsning boshqa insonlar bilan ma'lum tajribalar almashuviga xalaqit berishi yoki boshqalar uchun ko'proq xizmat qilishiga olib keladi.

Hayotda shunday toifa insonlar uchraydiki, ular boshqalarni o'ziga jalb eta oladigan yoqimli va xushmuomala bo'ladilar. Bunday insonlar bilan do'stlashishi, ular bilan do'st, qo'shni yoki hamkab bo'lish xohishi paydo bo'ladi.

Agar siz boshqaruvchi bo'lsangiz, u holda uni xodim sifatda tanlagan bo'lardingiz. Agar siz biror bir hayotiy qarorni qabul qilishga harakat qilsangiz munosabat o'rnatayotgan kishingizni idrok etishingizga ko'ra muomala o'rnatasiz. Siz biladigan shunday mashhur insonlar borki, ular bilan munosabat o'rnatish ba'zan og'ir kechadi. Bunday qiyofali insonlar dushmonona, tajovvuzkor, nodo'stona, yoqimsiz yoki qiyin munosabat o'rnatuvchilardir. Siz ular bilan muomala qilishda, xodim sifatida tanlashda o'zingizni chetga olasiz.

Bunday sharoitda siz shaxs haqida qanday xulosaga kelganingiz singari, boshqalar ham sizga xuddi shunday xulosalarga kelishlari shubhasiz. Bunday o'zaro o'rinalmashuvchi mulohazalarga doimiy ravishda yangi insonlar bilan tanishish zarurat tug'ilgan sotsial vaziyatlarda duch kelinadi. Bu esa shaxsning o'ziga bo'lgan xos xislatlarini aniqlashga olib keladi, masalan, tanishingiz kirishimli yoki tortinchoq. Bu faktorlarni tahlil eta olish shaxs haqidagi umumiy tasavvurlarga ega bo'lishga yetarlicha imkon beradi.

Shaxsni izohlash. Shaxs psixologiyasining predmeti uni izohlashga nisbatan anchagina murakkab xarakterga ega, chunki insonlar xilma xil bo'lganligi bois har xil vaziyatlarga qarab, o'zgarib turadilar. Shu sababli shaxsni tushunarli tilda izohlash uchun mos aniqlik va izohga ega bo'lish lozim. O'z navbatida shaxsni mos tarzda izohlashga mos keladigan tilga ham ega bo'lish kerak. Oqibatda shaxsni o'rganishning o'ziga xos prinsiplari va baholash vositalari-testlarni shakllantirishga olib keldi.

Psixologiyada shaxsni tushunishda uning xarakterlovchi bir qator tushunchalarni qo'llashga olib keldi:

№	<i>Sifatlar</i>
1.	Yoqimli- jizzaki
2.	Tirishqoq- maqta nchoq
3.	Quvnoq -surbet
4.	Talabchant-hukmron
5.	Xavotirlanuvchan -irodali
6.	Qo'zg'aluvchan-betoqat
7.	Ziyrak- beozor
8.	Injiq- nekbin

9.	O'ziga ishongan - bardoshli
10.	Jiddiy- bo'shang
11.	Zaharxanda- sezgir
12.	Muloqotmand-hokisor
13.	Sabr-bardoshli-ishonuvchan
14.	Erkin –qasoskor

1-jadval. Shaxsni baholash sifatlarining namunasi

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarni mavjudlik holati va sizga yoqimlilik, siz erishishingiz zarur bo'lganlarini ro'yxatini tuzish talab etiladi. Ushbu sifatlarini o'qituvchi yoki ota-ona misolida va real baholashingiz mumkin bo'ladi. Ushbu toifa sifatlarining kengaytirilgan varianti 300 ta sifatdan iborat (Gough & Heilbrun , 1983) . Bu esa shaxsni yanada kengroq baholash imkoni beradi.

Shaxs psixologiyasida o'rganiladigan asosiy muammolardan biri shaxs rivojlanishini tahlilidir. Shaxs psixologiyada tahlil qilishda uning hayotining barcha bosqichlari, ongsizlik ta'sir ko'rsatadimi yoki bolalikdan keyingi davrlarda shaxs sifatida o'zgarish yuz beradimi? Ushbu tarzda savollarga javob izlash zarur bo'ladi.

Mazkur masalalarni shaxs psixologiyasining metodologik masalalaridan hal etish uchun qator shaxs nazariyalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarning har bir muammoning o'ziga xos boshqotirma sifatida uning hal etishga e'tibor qaratganliklarini guvohi bo'lamiz.

Hattoki, ayrim yondashuvlarni o'rganish esa o'nlab yillarni taqozo etadi. Shaxs psixologiyasi esa mazkur masalalarga javob topishga intiladi.

Ongni o'rganish. Shaxs muammosini o'rganishga yondashuvning bir jihatini uning ongini o'rganishga yo'nalganligidir. Psixologiya shaxsning ushbu jihatini o'rganishda tabiiy fanlarning metodlarini modifikatsiya qilish asosida erishdi. **V.Vund** va boshqa psixologlar inson tabiatini o'rganishda tabiiy-ilmiy fanlar ta'sirida insonning aqlini o'rganishda foydalandilar. Ushbu tadqiqotlarda psixik jarayonlar eksperimental o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ularda cheklanishlar bor edi.

Xulq-atvorni o'rganish. 20-asrning dastlabki o'n yilligida amerikalik olim Djon B. Uotson biologik masalalarni o'rganishga e'tibor qaratdi va bu esa shaxs xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Vilgelm Vundtning qarashlariga zid edi. Uotsonning bu harakatlari bixeviorizm deb nomlandi. U psixologiya inson tabiatining moddiy jabhalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdi. Uning g'oyasicha, tashqi xulq-atvor psixologiyaning o'rganish asosi bo'la oladi. Bu esa xulq-atvorni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Bixeviorizm esa inson tabiatini mexanik tasvirini o'zida ifoda etdi. Keyinchalik bu g'oyani Skinner boyitdi.

Shaxs psixologiyasining metodologik masalalarini boshlang'ich bo'g'inidan biri sifatida Freyd faoliyatini qayd etish mumkin. Venalik vrach Freyd psixoanalizga asos soldi. Bu esa uning vrachlik faoliyatida emotsional buzilishlardan aziyat chekkan insonlarni o'rganish orqali o'zining ilmiy yondashuviga asos soldi. U o'zining uzoq vaqtli seanslari asosida uning hayotiy

to'g'risidagi ijodiy talqinlari taqdim etdi. Uning yondashuvi eksperimental o'rganishdan keskin tafovut qildi. Freydning psixoanalitik yondashuvi inson tabiati haqidagi noyob qarashlarni ishlab chiqishga sabab bo'ldi.

G.Olportning xizmatlari hisobida o'tgan asrning 30-yillariga qadar Garvard universitetida shaxs psixologiyasi amerika psixologiyasida bir tizimga keltirishga erishildi. Buning uchun tadqiqot ishlari, o'quv kurslari va ilmiy jurnallar nashr etishga erishildi.

Shaxsni baholash metodlari. Shaxsni nazariy o'rganish oqibatda uni baholash metodlari shakllantrildi. Ushbu metodlar o'zining ob'ektivligi, ishonchliligi va aniqligi bilan farq qiladi. Metodlar o'z navbatida shaxsni o'rganish nazariyalariga muvofiqdir.

Bugungi kunda shaxsni baholashda asosiy yondashuvlar quyidagi tadqiqot metodlariga tayanadi:

O'zi haqida hisob berish yoki ob'ektiv materiallar orqali baholash;

- proektiv metodlar;
- klinik intervyu;
- xulq-atvorni baholash vositalari;

Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash:

– Shaxsning tipi va qirrasini bir insonning boshqasidan farq qilish imkoniyatini beradi.

– **Nomotetik yondashuv**- guruhdagi insonlarni bir-birini biror bir xususiyati yoki shaxslilik qirrasiga ko'ra qiyosiy o'rganish.

– **Ideografik yondashuv**-bir insonni boshqa kishilar bilan qiyoslamasdan o'rganish.

Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari:

– verifikatsiya- nazariyaning empirik jihatdan tekshirilganligi va uning tasdiqlanganligi.

– kengqamrovli ekanligi - yaxshi nazariya boshqalari bilan bir xil sharoitda xulq-atvor fenomenlarini keng spektrda tushuntirishi.

– tatbiqiy qimmatga egalik - nazariya, inson hayotiy imkoniyatlarini oshirish uchun amaliy istiqbollarni tavsiya etish.

– nazariya bilan tadqiqot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

Shaxsning uzoq hayot yo'lida turli xil toifa insonlar hayot yo'lini tanlashda bir biridan farq qiluvchi faoliyat yo'nalishiga ega bo'ladi. Bu esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchi, doimiy ravishda quvnoq bo'lishi boshlagan ishining qanday tarzda yakunlashiga sabab bo'ladi. Shaxsning maqsadiga erishishida uning optimistligi, emotsional barqarorligi uning ishonch va e'tiqodidan og'ishidan saqlaydi. Yana murakkab yo'lga duch kelganda unda

Tolkina Sem Gemji o'zining tafovutli va ishonchli xulq-atvor modelini namoyish etadi. Bu shaxs modeli shaxsning tafakkur, tuyg'ulari va harakatlar modelini tavsiflovchi hisoblanadi (buni Den MakAdams va Djennifer Pals (2006) taqdim etgan), unda sotsial vaziyatlar va o'zining qirralarida ifoda etuvchi shaxs tabiatining noyob ko'rinishi sanaladi.

Shu bois navbatdagi masalalar insoniyat tarixining madaniy merosi sifatida xizmat qiladigan shaxs nazariyalariga qaratiladi. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan istiqbollar shaxs psixologiyasining muammolari yo'nalishini aniqlashga yordam beradi va bugungi kun tadqiqotlarda hal etilishi kerak bo'lgan masalalarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Xorijiy psixologiyadagi shaxs muammosiga doir ilmiy manbalarni tahliliy jihatlarida quyidagi ilmiy g'oyalar mazmuniga e'tibor qaratiladi:

- Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosida bolalik va ongsiz shahvoniylik motivlari shaxsga ta'sir ko'rsatishi tahlili taqdim etilgan.

- Gumanistik psixologiya yondashuvida esa shaxsning o'sishi va o'zining Menini shakllantirishida ichki imkoniyatlarning o'rni yuqori ekanligi ilgari suriladi.

Bunday klassik yondashuvlar inson tabiatini yoritishning keng istiqbolini taqdim etadiki, ular yaqqol shaxslilik aspektdan ilmiy izlanishlar olib borishga xizmat qilmoqda. Shaxs muammosini o'rganayotgan doir zamonaviy tadqiqotlar muammoni shaxslilik, biologik jihatdan o'rganayapdilar. Ularning asosiy mezonlari inson bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuviga ham tayanadi. Shuningdek, ular qadr-qimmat, og'ishlar, madaniy muhit ta'siri va boshqa jihatlar, xususan, ongsizlikni ham o'rganmoqdalar⁶.

12-mavzu. Klassik psixoanaliz va uning modifikatsiyalari(2 soat)

Reja:

1. Psixoanaliz nazariyasi psixik voqelikni ilmiy bilish shakli sifatida.
2. Psixologik nazariyaning o'ziga xosligi.
3. Implisit konsepsiya (Dj. Bruner va R. Tagiuri).
4. Eksplicit konsepsiya. Z.Freydning klassik psixoanalizi.
5. Ilmiy ijodning uch bosqichi: affektiv jarohat modeli, topik va strukturali modellar.
6. Freyd bo'yicha psixoseksual taraqqiyot bosqichlari.
7. K.Yungning analitik psixologiyasi. Psixika tuzilmasi.
8. Arxetip va psixik funktsiya tushunchalari.
9. Individuatsiya va uning bosqichlari.
10. Shaxs tpologiyasiga yondashuvlar. A.Adlerning Individual psixologiyasi.
11. Nomukammallik tuyg'usi va nomukammallik kompleksi.
12. Shaxsiy va konstruktiv ustuvorlik hamda sotsial qiziqishlar, iodiyl Men.
13. Hayotiy maqsad va hayotiy uslublari tushunchalari.
14. Klassik psixoanalizning olti tamoyili.
15. Zamonaviy psixoanalizning asosiy yo'nalishlari ego-psixologiya (X. Gartmann, A. Freyd, E. Erikson), ob'ektiv munosabatlar psixologiyasi (M. Klyayn, M. Balint, X. Koxut).

⁶ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 553.

16. Psixoanalitiklarning ishlarida mehr va ajralish muammolari (Dj. Boulbi, M. Maler).
17. Ko'chish ap qarama-qarshilik. Ko'chish reaksiyasining namoyon bo'lish tiplari, ko'chishning asosiy elementlari, ko'chish turlari klassifikatsiyasi.
18. Qarama-qarshilik va uning klinik namoyon bo'lishi.
19. Qarama-qarshilik klassifikatsiyalari.
20. Psixologik mexanizmlar va ularni diagnostika metodlari.

Klassik psixoanalizda Z.Freydning shaxsga doir qarashlari mujassamlashgan. Uning ilmiy faoliyatini affektiv travma modeli, topik va strukturaviy modellardan iborat uch bosqichga ajratish mumkin. Freyd bo'yicha psixoseksual rivojlanish bosqichlar. K.Yungning Analitik psixologiyasi. Psixika tuzilmasi. Arxetiplar va psixik funksiyalar tushunchalari. Individuatsiya va uning bosqichlari. A.Adlerning Individual psixologiyasi. Nomukammallik kompleksi va nomukammallik kompleksi. Shaxslik va konstruktiv ustuvorlik hamda sotsial qiziqishlar, ijodiy Men. Hayot maqsadi va yashash uslubi tushunchalari. Psixoanalizning olti tamoyili. Zamonaviy psixoanaliz: ego-psixologiya (X. Gartmann, A. Freyd, E. Erikson), ob'ekt munosabatlar psixologiyasi (M. Klyayn, M. Balint, X. Koxut). Psixoanalitiklar ishida aloqadorlik va mustaqillik masalalari. (Dj. Boulbi, M. Maler). Ko'chish va qarshili ko'rsatish. Ko'chish reaksiyalarining tiplari, ko'chishning asosiy elementlari.

Mashg'ulot maqsadi: shaxsning eksplisit va implisit nazariyalar to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar:

1. Z.Freydning psixoanaliz nazariyasini talqin qila oladi.
2. Z.Freyd izdoshlarining shaxsga doir nazariy qarashlarini qiyosiy tushuntira oladi.


Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi⁷

Z.Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Agar ko'chadagi 100 insondan so'rasangiz taniqli psixologning nomini bilishlari haqidagi mulohazani Kit Stanovich (1996) ilgari suradi. Freydning klinik psixologiya va psixiatriyadagi ilmiy qarashlarini alohida o'ringa ega. Z.Freyd nimani o'rgandi? U she'riyat, pesa va falsafaga juda qiziqishi bo'lganligi sababli, o'z tadqiqotlari uchun vaqtni bekorga sarflamadi. U tibbiyot yo'nalishida tahsil olgandan so'ngra xususiy amaliyot bilan shug'ullandi. U amaliyotda nevrologik sababga ega bo'lmagan ruhiy o'zgarishga ega bo'lgan pasientlarga duch keldi. Masalan, baqquvvat bo'lsa-da, pasient qo'ldagi sezgilarni yo'qolishining sababini Z.Freyd insonning aqliga bog'liqligini aniqladi. Bunday holatda pasientni davolash yo'li uning o'z-o'ziga munosabatini o'zgartirishda degan xulosaga keldi.

Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishlarning psixologik sabablari mavjudligi to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashif qildi. Uning fikricha ko'zi ojizlik yoki karlik, beixtiyor ko'rmaslik va eshitmaslik xohishi

⁷ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

insonga keskin xavotlikni uygʻotar ekan. Freyd gipnoz ongsizlikka yoʻl deydi va pasientlarni davolashda undan foydalandi. Gipnoz pasientlari gipnoz tufayli oʻzlarining anglab boʻlmas qobiliyatlarini ochdilar. Soʻngra u pasientlar oʻzlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga koʻra pasient oʻzining dardlarini bayon etadi. Bu esa pasientlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanishlarning sababi pasientlarning oʻtmishi bilan bogʻliq, bolalikdagi tuygʻulariga borib bogʻlanishini taʼkidladi. Kasalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazariyasini psixoanaliz davolash metodi bilan bogʻladi. Freyd nazariyasining umumiy koʻrinishi quyidagi 1-rasmda keltirilgan:



1-rasm.

Id, Ego va super Ego (Id (U), Ego (Men), Super-Ego (Kayvoniy-Men))⁸

Freyd topografik modeldan foydalanib, psixik hayotni uch darajasini ajratdi:

- Ong
- Ongoldi
- Ongsizlik

Ong darajasi

Ong darajasi aniq damdagi insonning maʼlumotlarini sezgi va kechinmalaridan tashkil topadi. Ong miyada saqlanuvchi maʼlum kam foizli axborotlarni qamrab oladi. Soʻngra maʼlumotlar ong oldi yoki ongsizlik sohada yuklanadi.

Ongsizlik soha

• Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir. Bu ongga qanchalik bosim oʻtkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qoʻzgʻalishlarini saqlovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar koʻpincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

Ongsizlik soha

⁸C. George Boeree: Personality Theories. Original E-Text Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgboree/perscontents.html> P 5.

• Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir. Bu onga qanchalik bosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'zg'alishlarini saqlovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar ko'pincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

• Ongoldi soha, ba'zan xotiraga kirish mumkin bo'lgan, o'zida barcha tajribani kiritadi, ayni damda anglanilmagan, ammo tasodifiy yoki minimal kuch sarflash natijasida unga tez qaytishi mumkinligi.

• **U-** psixikaning ongsizlik qismi bo'lib, biologik instinktli mayllardan iborat: agressiya va seksual. U seksual mayl -libido bilan to'yingan. Insonda yashirin energetik tizim bo'lib, bu quvvat har bir kishida miqdori- doimiy o'lchamga ega. Ongsiz va irrasional bo'ladi. U qoniqish, ya'ni so'ngida baxt, eng asosi inson hayotidagi asosiy maqsad tamoyiliga bo'ysunadi.

• **MEN** Ikkinchi tamoyil-gomeostaz- ichki muvozanatni saqlashga tendensiya. Men (Ego)-ong –doimiy ravishda U bilan nizoda bo'ladi, seksual mayllar ta'sirida bo'ladi. U jamiyat ta'siri ostida shakllanadi. Menga uch ta kuch ta'sir ko'rsatadi:U, Kayvoniy Men va insonga o'z talabalarini qo'yuvchi jamiyat. MEN ular o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga harakat qiladi, qoniqish emas, balki reallik tamoyiliga bo'ysunadi.

• **KAYVONIY MEN** axloqiy standartlarni tashuvchi, shaxsning bu qismi tanqid, senzora, vijdon roli bajaradi. Agar Men U ga mos harakatni amalga oshirsa yoki unga mos qaror qabul qilsa, Kayvoniy Men unga qarshi chiqadi. Natijada aybdorlik, uyat, vijdon ta'nalari ko'rinishidagi jazoni boshdan kechiradi.

Psixoanaliz atamasi

- Shaxs nazariyasi va psixopatologiyasi;
- Shaxsdagi buzilishlarning davolash metodi;
- Insonning anglashilmagan fikr va tuyg'ularini o'rganish metodi.

Shaxs strukturasi⁹

Psixologiyada shaxsning himoya mexazmlar to'g'risidagi qarashlarning tub ildizi Z.Freydning shaxs nazariyasi borasidagi izlanishlariga borib taqaladi. Freydning psixodinamik konsepsiyasiga ko'ra shaxs tuzilmasi va himoya mexanizmlari ma'lum tizimlashtirilgan. Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilmasi uchta tarkibiy komponentlardan iborat:

“**Id**”sohasi-bu shaxsning instinktli jihati bo'lib, unda shaxsning eng kuchli instinktlari o'rin olgan. Ular shaxs xulq-atvorini to'g'ri va chet yo'llar bilan aniqlash va namoyon bo'lishini ifodalaydi. “Id” sohasi vazifalarini **qoniqish tamoyiliga** asosan bajaradi.

Z.Freyd psixoanalitik nazariyasida qayd etishicha, psixik jarayonlar qoniqish tamoyiliga ko'ra avtomatik tarzda boshqarilar ekan. Hech qondirilmaganlik ichki ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi. O'z navbatida u psixik faollikni vujudga kelishiga olib keladi. Bu faollik zo'riqishni va qoniqmaganlikni susayishiga yoki qoniqishga olib keladi.

⁹ C. George Boeree: Personality Theories. Original E-Text Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgboree/perscontents.html> P 5.

Hayot va o'lim instiktlari¹⁰

Freydning psixodinamik nazariyasida ikkita asosiy instiktlarga ajratiladi: hayot instinkti (libido, eros) sifatida seksual instinkt; vayrongarchilik, buzg'unchilik sifatida e'tirof etiluvchi o'lim instiktlari (mortido, tanatos). Inson xulq-atvorining bu shakli shaxsning destruktiv instinkti sifatida namoyon bo'lib, agressiyani ham instinkt natijasi deb baholaydi. Ularning hayotiy zarurat sifatida namoyon bo'lishini to'sib qo'yish shaxsda jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatiladi. Bu esa nevrozning asosi hisoblanadi. Asarlarining birida Freyd motido instinkti haqida to'xtalgan bo'lib, unda shaxs o'zini o'zi saqlash uchun (yo'q qilmaslik) o'zga kishini yoki o'zgalarni yo'qotishga intiladi. Freyd uchun eng hal etuvchi jihat, bu inson xulq-atvorida jamiyat rivojlanishidagi qonunlarini emas, irrasional psixik kuchlarning namoyon bo'lishini hisobga olgan, unda intellekt voqelikni faol aks ettiruvchisi vosita emas, balki bu kuchlarni maskirovka qiluvchisi hisoblanadi. Indivud bilan ijtimoiy muhit abadiy va yashirin kurashda bo'ladi. Uning psixoanalitik qarashlarida kuchaytiruvchi holatda instiktdan intellektning kuchlirog'i.

“Ego” sohasi-bu shaxsning ongli tomonini ifodalovchi rasional qismidir. “Ego” doimiy ravishda “Id” sohasi bilan o'zaro ta'sirlashuvda bo'ladi, ikki asosiy instiktlar

Men tomonidan tanlanadigan mexanizm hali aniq ta'biri mavjud emas.

Siqib chiqarish jinsiy xohishlar bilan kurashishda foydalaniladi.

“Men” va “Ono”ning titib kurish va “Ustun menning” shakllanishiga qadar bir necha himoya mexanizmidan foydalaniladi.

Barcha himoya mexanizmlarining maqsadi “Men”ga yordam berishdan iborat. Shu sababli ham u uchta asosiy bezovtalanishga yo'naltirilgan, ya'ni Menni zararlashi mumkin bo'lgan nevrotik, axloqiy, va real.

Biroq Men ichdan chiqadigan norozilikdan himoyalaniq qolmasdan, ilk davrlarda Men xavfli instinktiv stimullar bilan tanishadi, shuningdek u norozilikni kechiradi.

Agar tashqi qoniqish yoki manfaatning asosiy manbai tashqi ob'ekt bo'lgan holda unda shunchalik yuqori norozilikni kechirishga sabab bo'lib qoladi.

Yosh bolaning Meni ko'proq qoniqish prinsipi bilan yashaydi. U tashqaridan bo'ladigan norozilikni hali ko'p kechirmaydi.

Shaxsning rivojlanishi¹¹

Z.Freyd pasientlarining hayotini kuzatish asosida shaxs shakllanishini dastlab beshyilda amalga oshirishini xulosaladi. Bolalar shaxs sifatida shakllanishida qator psixoseksual davrlarni boshdan kechirishini va bu bosqichlar alohida quvvat manbai erogen zonalarining o'rniga bog'liq deb ko'rsatdi. Freyd ishonch bilan o'g'il bolalarning fallik bosqichdagi genetik ta'sir tufayli onasiga nisbatan otasini rashq qilishini qayd etdi. Buning sababini grek afsonasi “Shox Edip afsonasiga tayanib,”

¹⁰ C. George Boeree: Personality Theories. Original E-Text Site: <http://www.ship.edu/%7Ecgboree/perscontents.html> P 6.

¹¹ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 556.

“Edip kompleksi” orqali tushuntirdi. Edip o‘zi bilmagan holda otasini o‘ldirib, Onasiga uylanadi.

Freyd psixoseksual rivojlanish bosqichlarini 5 davrini keltirib o‘tadi. U quyidagi 1-jadvalda o‘z aksini topgan:

1-jadval

Psixoseksual bosqichlar

№	Bosqichlar	Yosh davrlari	Libido yo‘naltiriladigan zona
1	Oral	0-1,5	Og‘iz
2	Anal	1,5-3	Anus
3	Fallik	3-6	Jinsiy a‘zolar
4	Latent	6-12	Mavjud emas
5	Genital	12-18	Jinsiy a‘zolar

*Himoya mexanizmlari*¹²

Z.Freyd o‘z nazariyasida shaxsning himoya mexanizmlarini ajratishga ham erishdi.

Ko‘pincha nizoli zonalar psixika strukturasini U, salbiy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta’sirlanish, bezovtalanish va umidsizlik) frustratsiyagaolib keldi. Frustratsiya MENni har xil “chiqarish klapan”lari yordamida zo‘riqlashlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizmlari deyiladi.

- repressiya : tashvish sabab narsa mavjudligiga behush inkor o‘z ichiga oladi;
 - rad etish, ya’ni noma’qul ma’lumotni ochiq rad etish, qo‘shilmaslik;
- reaksiya: biri qarama-qarshi bo‘lgan id turtki ifoda o‘z ichiga oladi albatta odamni haydash
 - proeksiya – o‘zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob’ektlarga ko‘chirish orqali paydo bo‘lgan xolatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
 - identifikatsiya – o‘zini axborot egasiga o‘xshatish, uning o‘rniga o‘zini qo‘yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o‘zlashtirish;
 - regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma’qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o‘zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;
 - yolg‘izlanish-jamiatdan o‘zini olib qochish, o‘zidagi o‘zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, bunda shaxsning faoliyati passiv tus oladi;
 - rasionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o‘zida himoya instinktlarini paydo etish;

¹² Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-P59..

- Sublimatsiya : o'zgartirish yoki tabiatan energiya qiziq tomonidan id impulslarini joy o'z ichiga oladi va uni ijtimoiy maqbul xulqda ifodalashga yo'naltiriladi.

Z.Freydning izlanishlari undan keyinchalik bir qator yangi yo'nalishlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

2. Z.Freydning izdoshlari

2.1. K.Yung va uning Analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K.Yung. Yungning shaxs muammosiga doir yondashuvi Analitik psixologiya deb nomlanib, u o'ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

Shaxs tipologiyasiga doir yondashuvi:

Ekstraversiya – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlari doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarni tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya-«tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalari qat'iy amal qiladigan. Muloqot doiralar cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

Psixik funksiyalar

To'rtta asosiy psixik funktsiyaga e'tibor qaratdi:

- Tafakkur-rasional.
- Hissiyot-rasional.
- Sezgi –irrasional.
- Intuisiya-irrasional.
- Fikrlovchi tip-biror narsaning qadr-qimmatini aniq faktlar va mantiqiy mulohazaga tayanib baholaydi.
- Hissiyotli tip-yaxshi-yomon, go'zal-xunuk tamoyiliga asoslanib emotsional baholaydi.
- Intuitiv tip-hayotiy voqealarning mazmunini ongsizlikda, tuyg'usi va taxminlariga ko'ra baholaydi.
- Sezgiga asoslanuvchi tip-sezgi a'zolariga tushuvchi, tashqi olam haqidagi axborotlarga tayanadi
- Psixikaning tuzilishi.
- Ong.
- Shaxsiy ongsizlik-o'zida qachonlardir anglangan, hozir siqib chiqarilgan va unutilgan nizo va taassurotlar, yetarlicha ifodalanmagan hissiy taassurotlarni qamrab oladi. ShO- o'zida emotsional zaryadlangan, bir fikr, tuyg'u va taassurotlarning ustuvor bo'lib qolishidan iborat komplekslarni tashkil etadi.
- Kollektiv ongsizlik-insoniyat va avlodlarning xotira izlarining yashirin saqlanishi . Unda bizning o'tmish emotsiyalarimiz va insoniyatga xos fikrlar va tuyg'ular aks etgan.

Arxetiplar

• Arxetiplar — birlamchi model yoki kollektiv ongsizlikning tarkibiy elementi hisoblanadi. Ular oʻzida insonlar idrok etganlarini, kechinmlari va voqealar taʼsiriga javob berishini maʼlum obrazlarda ilgari surishlari tugʻmalik shaklini namoyon etadi.

• Eng asosiy arxetiplardan biri Men arxetipi, ota, ona, Xudo, donishmand va boshqa arxetiplaridir. Arxetiplar oʻzida simvollar koʻrinishida namoyon boʻladi. Masalan, Mariya, Mona Liza va boshqalar. Hoch, oltitomonli yulduz, budda gʻildiragi.

Shaxs strukturasi

• Shaxs strukturasi quyidagi tuzilmalardan iborat: ego, person, anima (animus), soya va oʻzlik

• Ego — ongning markazi boʻlib, oʻz-oʻzining anglashning asosi hisoblanadi.

• Person — bu jamoa kishisi boʻlib, inson oʻzini boshqalar bilan oʻzaro munosabatda namoyon qiladi.

• Salbiy va ijobiy personlar mavjud. Birinchi navbatda u individuallikni ifodalab, kommunikatsiyaga muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan — person individuallikni boʻgʻib qoʻyishi mumkin. Shu bois person-ongning yuqori qatlami, ego ancha chuqurlashuv, botiq qismi.

• Soya oʻzida shaxsning siqib chiqarilgan tomonini ifoda etadi. Soya egoning aks ettirilishida mavjud. Soya shaxsning sotsial standartlar mavjudligi bilan murosaga qila olmasligini ifodalovchi xohishlarini qamrab olgan. Soya-hayot quvvat, ijod manbaini saqlovchi sanaladi. Shu sababli ego soya quvvatini zarur oqimga yoʻnaltiradi.

Anima va animus

• Anima — erkakdagi ayolning ichki timsoli, yaʼni ongsiz namoyon boʻluvchi ayollik tomoni;

• Animus — ayollardagi erkakning ichki timsoli, uning ongsiz namoyon boʻluvchi ayollik timsoli. Yung anima va animus inson xulq-atvorida uygʻunlashagan tarzda namoyon boʻlishi kerak, bu uning har tomonlama muvofiqlashuvini taʼminlaydi.

Oʻzlik

• Oʻzlik — shaxsning yaxlitlik arxetipi.

Oʻzlik onglilik va ongsizlikni birlashtirib, boshqa barcha elementlar uyushuvini tashkil etuvchi aynlana markazi hisoblanadi. Ruhning barcha jabhalarini integratsiyasiga erishganda, inson uygʻunlikni sezadi. Shu sababli, oʻzlikni rivojlanishi inson hayotining bosh maqsadidir.

2.2. A.Adlerning Individual psixologiyasi

• Alfred Adler (1870-1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi.

• Uning asosiy asarlari: «Nerv xarakteri haqida» (1912), «Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti» (1920), « Insonshunoslik» (1927), «Hayotning mazmuni» (1933).

Inson tabiati

- Inson-yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm; individuum (lat.) — bo'linmas. Inson hayotiy faolligining hech bir namoyon bo'lishini izolyatsiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.

- Inson hayoti — shaxs uchun ahamiyatli maqsadlar yo'nalishidagi o'sish va rivojlanishga uzluksiz harakat hayot maqsadlari insonning taqdirini belgilaydi.

- Inson xulq-atvori-irsiyat va muhit ta'siri natijasiga emas, balki insonning o'z hayotining arxitektori sanalgan ijod kuchidan ham iborat

- Individ jamiyatdan tashqari ko'rib bo'lmaydi, uning xulq-atvori esa sotsial kontekstdan tashqarida. Har bir insonda umumiylik va sotsial qiziqishning tabiiy tuyg'usi mavjud, ya'ni hamkorlikning sotsial munosabatlariga tug'ma ravishda intilish mavjud.

- Inson xulq-atvori o'zi va atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi «appersepsiya sxemasi».

- Erishilmagan maqsad yoki vazifalar inson xulq-atvorini yo'naltirib, harakatlantirib turadi.

- Insonga yagona, yaxlit, unsurlari bir-biri bilan o'zaro muvofiq keluvchi mavjudod sifatida qaraydi.

Individuum miya va tana, onglilik bilan ongsizlik, tafakkur, tuyg'u, harakat, shaxsda namoyon bo'luvchilar yagonadir.

- Shaxsning strukturasini hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

- Shaxsning strukturasini hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Individuum jamiyatdan, boshqa insonlardan xoli holda bo'lmaydi, insonning xulq-atvori sotsial determinantlar bilan aniqlangan sotsial mazmunda sodir bo'ladi, oqibatda insonda boshqa insonlar bilan hamkorlikda sotsial o'zaro munosabatlarda ishtirok etishga intilishni ifodalovchi sotsial qiziqishlar shakllanadi.

- Nomukammallik kompleksi atamasini A.Adler fanga olib kirib, ushbu tuyg'uni barcha bolalar jismoniy o'lchamlari, kam kuchligi va imkoniyatlarining pastligi oqibatida boshdan kechiradilar.

- Kelajakda juda kuchli, kompleksga aylantirish, ijobiy o'sish va rivojlanishni qiyinlashtirishi mumkin. Biroq o'rtacha darajali nomukammallik bolada "kuchli bo'lish yoki boshqalardan kuchli bo'lish"ga, kamolotga, ustunlikka, o'zining qobiliyatlarigi rivojlantirishga undash mumkin

- Kamolotga intilish tug'ma bo'lib, bu hayotning bir bo'lagi, hayotga intilishning bo'lmasligi ma'nosiz, deydi A.Adler.

- Mukammallik masqad ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

- Agar u ijtimoiy manfaatga va boshqalarning foydasiga yo'naltirilgan bo'lsa, rivojlanish konstruktiv va sog'lom yo'nalishga ega bo'ladi. Bu rivojlanish, ko'nikma

va malakalarning kamol toptirish, mukammal hayot uslubiga ega bo'lish uchun ishlashga intilish. Biroq ayrimlar mukammallikka boshqlar ustidan humkronlik qilish orqali erishishga urinadi. Bu hokimiyat va agressiyada namoyon bo'ladi.

• Har bir inson intilish va erishishiga mujassamlashuvchi o'zining hayot uslubini ishlab chiqadi. Ularning shakllanishi bolalikdan boshlanib, nomukammallik, ishonchsizlik, kattalar olamida bo'lishga ojizlik kompleksi sifatida shakllanib boshlaydi. Hayot maqsadi bundan himoyalani, qondirilmagan bugungi hayot bilan yorqin, mukammal kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.

Hayot uslubi va shaxs tiplari

• **Boshqaruvchi tip.** Bu tip insonlar o'ziga ishongan va g'ayratli, ahamiyatsiz sotsial manfaatlarga, agar bular mavjud bo'lmasa. Ular faol, ammo sotsial rejada emas, ularga boshqalarning baxt-saodati ahamiyatsiz, ular tashqi olam ustidan hukmronlik qilish xos. Asosiy hayotiy muammolarini ular dushmanlik, antisotsial hal etadilar (jinoyatchilar, narkomanlar, qonunbuzarlar).

• **Oluvchi tip:** tashqi olamga tekinxo'rlik va o'zining ehtiyojlarining ko'p qismini boshqalar hisobiga qondirishga intiluvchi odamlar. Ularda sotsial manfaatlar yo'q, ular boshqalardan ko'proq narsa olishga intiladilar. Ularning faolligi yuqori emas, ularning boshqalarga azob-uqubat keltirish ehtimoli kamroq.

• **Qochuvchi tip:** bu insonlarning sotsial qiziqishlari „, shaxsiy muammolarni hal etishdagi majburiy faolligi past, ular muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadilar va hayotiy muammolarini yechishdan qochadilar. Ular qiyinchilik yoki omadsizlik tug'diradigan barchasidan qochadilar.

• **Sotsial tip.** Bu yetuk talabga javob beradigan, sotsial manfaatlar bog'lab turadi va yuqori faollikka ega. Bu inson boshqa insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatuvchi, ular bilan munosabatga qiziquvchi, insonlarning asosiy hayotiy muammolarini hal etuvchi muammolarni-ish, sevgi, do'stlik-hamkorlikni, shaxsiy mardlikni, mas'uliyatni talab etishini biladi va boshqa insonlarning rohat-farog'atida o'zining hissassi qo'shishga tayyor.

13-mavzu. Psixologiyada shaxsni o'rganishlar nazariyasi. Gumanistik psixologiyada shaxs (2 soat)

Reja:

1. O'rgatish qonuni (E. Torndayk). Dj.B.Uotson va E.K. Tolmenning insonga nazariy qarashlari.
2. K.Xallning o'rgatish nazariyasi. Skinnerning operant shartlanganlik nazariyasi. Operantlik va respondentlik xulq-atvor.
3. O'rgatish jarayon sifatida. Mustahkamlash rag'batlantirish va jazolash ko'rinishida.
4. Mustahkamlash tartiblari. Psixopatologiyada o'zlashtirilmagan va adaptatsiyalashmagan reaksiyalar.
5. Gumanistik psixologiyaning asosiy prinsiplari.
6. Olportning shaxs qirralari nazariyasi.
7. Motivlarning funksional avtonomiya prinsipi.
8. Zarurat motivlari va taraqqiyot motivlari.
9. A.Maslouning o'zini o'zi kamol toptirish nazariyasi.

Bixeviorizmning asosiy g'oyasi¹³

20-asrda amerikalik psixologiya maktabining haqiqiy qiyofasi sifatida maydonga chiqdi. Uning asoschisi Djon Uotson (1878-1958) bu yo'nalishning haqiqiy yo'l boshchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bixevio tushunchasi (behavior) inglizchadan tarjima qilganda xulq-atvor degan ma'noni anglatadi. Bixeviorizm tushunchasi tarjima qilganda –xulq-atvor psixologiyasi ma'nosini anglatadi.

Xulq-atvorni tahlil qilish to'liq ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, tashqi kuzatiladigan reaksiyalar bilan cheklanadi. Insonning fikri, ongini ko'rib bo'lmaydi, ularni o'lchash mumkin emas, bundan ko'rinadiki barchasini ob'ektiv qayd etish imkoniyatini bo'lmaydi. Insonning ichki olamida kechayotganlarni o'rganish mikoni yo'q. Demak, shaxs “qora quti” sifatida ishtirok etadi. Inson harakatining tashqi ifodalanishining ob'ektivligini stimullar va vaziyatlar shartlaydi. Shunday ekan psixologiyaning vazifasi stimullar bo'yicha namoyon bo'ladigan ma'lum reaksiyalar belgilaydi.

Bixevioristlar nuqtai nazaricha shaxs mazkur insonga xos xulqiy reaksiyalarning majmuidan iborat. Stimul-reaksiya (S–R) formulasi bixeviorizmga yetakchi hisoblanadi. **Torndayk effekti** qonuni S va R o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtiradi, agar mustahkamlanish bo'lganda. U ijobiy bo'ladi, qachonki rag'batlantirish, kutilgan natija olinganda, moddiy rag'batlantirish yoki salbiy bo'ladi, qachonki, og'riq, jazolash, omadsizlik, tanqidiy ogohlantirish yuz berganda.

¹³ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

Insoning xulq-atvori ko‘pincha ijobiy qo‘llab-quvvatlashni kutgandan, ba‘zan salbiy kuchlar qochishga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, bixeviorizm yo‘nalishiga ko‘ra shaxs individga nisbatan ongli tartibga solingan instiktlar, sotsiallashtirilgan emotsiyalar, yangi ko‘nikmalarni shakllanishiga ko‘maklashuvchi plastiklik, muhitga molashuviga ko‘maklashuvchi va ularning saqlashga xizma qiluvchi qobiliyatlarni o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Bu shaxsning uyushgan va nisbatan barqaror ko‘nikmalar tizimidan iborat ekanligini anglatadi. Oxirgi barqaror xulq-atvor asosini ularning yangi hayotiy vaziyatlarga moslashuvi, o‘zgarishi yangi ko‘nikmalarni shakllanishiga olib keluvchilar tashkil etadi.

Bixevioristlar odamni u yoki bu harakatlar, reaksiyalar, xulq-atvorni programmalashgan, aniqlovchi, o‘rganuvchi mavjudoddir. O‘zgarishlar va mustahkamlash o‘zgarganda uni talab etiladigan xulq-atvorga programmalash mumkin.

Bixeviorizm mazmuniga psixolog Tolmen S-R reaksiyaga shubha bilan qarash orqali, unga o‘zgarish kiritishga erishdi. U ushbu sxemaga o‘zgarish kiritdi va uni S-I-R tarzda ifodalashga olib keldi. Bu yerda I-individning irsiyatiga, fiziologik holatlari, oldingi tajribasiga bog‘liq bo‘lgan psixik jarayonlar.

B.Skinnerning operant bixeviorizmi

Berris Frederik Skinner 1904 yil pensilvaniya shtatidagi, Saskuexanneda tug‘ilgan. Uning oilaviy muhiti samimiy va erkin, intizom qattiq bo‘lgan, hamda munosib xizmat ko‘rsatganda rag‘batlantirilgan. Skinner butun yoshligi davrida roliklik samakatlarni, korusellarni, aravalarni konstruksiya qilish bilan ko‘p shug‘llangan. Bu yoshlikdagi ixtirolar kelajakda uni harakatlarini kuzatish modifikatsiyasiga qiziqishidan darak berardi. Uni shuningdek, maktabda o‘qishga qiziqishi katta bo‘lgan, hamda unga bilim bergan o‘qituvchilarini iliqlik bilan xotiralaydi.

Skinner 1926-yilda Gamilton kolledjida o‘qib, gumanitar fanlar, ya‘ni ingliz adabiyoti bo‘yicha bakalavr darajasini olgan. Skinner o‘z xotiralarida talabalik hayotiga haqiqiy moslasha olmaganligini aytadi. Kolledjni bitirgach u ota-onasining uyiga qaytib kelgan va yozuvchilik bilan yozuvchilik bilan shug‘ullanishga harakat qilgan, lekin bu orzusi ro‘yobga chiqmagan. Skinner hotirasida maqsadsiz o‘qiganligini, kemalar modelini yasaganligini, rayalda rayal chalganligini, o‘zi ixtiro qilgan radiosini eshitganligini, mahalliy gazetalarda yumar maqolalar chop etganligini, ammo boshqa hech narsa yozmaganligini va psixiatrga ko‘rinishni o‘ylab ko‘rganligini aytgan.

Skinner yozuvchi bo‘lishdan voz kechib Garvord Universitetiga psixologiyani o‘rganish uchun o‘qishga kiradi. U bu sohada hammadan orqada ekanligini tushunib, o‘ziga qattiq o‘quv jadvali o‘rnatadi va bunga ikki yil davomida qat‘iy amal qilib keladi.

1931-yilda doktor darajasiga loyiq topiladi. 1931-1936-yillarda Skinner Garvardda ilmiy ish bilan shug‘ullanadi, u o‘zini ilmiy qarashlarini hayvonlarning

asab sistemasini o'rganishga qaratgan. 1936-45 yillarda u Minisot Universiteti o'qtuvchisi bo'lib ishladi. Bu davrda Skinner juda ko'p ijodiy ishlar bilan shug'ullangan va AQSh da yetakchi bixiviorist sifatida tanilgan. 1945-47 yillarda u Indiana shtati universiteti psixologiya kafedrasini mudiri lavozimida ishlagan, 1947-74 yilga qadar Garvordda notiq bo'lib ishlagan va nafaqaga chiqqan. Skinnerning ilmiy faoliyati juda ko'p taqdirlangan. Jumladan ilmiy faoliyatlari uchun prezident medalini olgan. 1971-yilda Amerika psixologlari assotsiatsiyasining quydagi yozuvlari bitilgan "Xulq-atvorni o'rganish revalyusiyasini amalga oshirishda psixologik tekshiruvchilar pioneri, nazariya lideri, texnologiya ustasi" oltin medaliga sazovor bo'lgan. Skinnerga 1990-yilda Amerika psixologlari assotsiatsiyasi prezidenti Skinnerga tashakkur bildirgan. Skinner ko'pgina kitoblarni muallifi bo'lgan. U "Organizmning harakati" (1938-yil), "Uoldin-2" (1948-yil), "Insonning Xulq-atvori va fan" (1953-yil), "Verbal Xulq-atvor" (1957-yil) va boshqa bir qator asarlarini yozgan. Uning yozgan asarlaridan "Uoldin-2" romano kolledj talabalari orasida keng tarqalgan.

Uning tarjimai holi "Tarjimai-hol psixologiyasi tarixi" asarining 5-tomida yoritilgan. Skinner 1990-yilda Leykemiya kasalligi orqali vafot etgan.

Skinnerning nazariyasiga yondashuvlari: Bixeviorizm uchun "xulq" asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi cheklab o'tilgan. Ko'pgina persanolog nazariyotchilar ikki xil yo'nalishda ishlaydilar:

- 1) Albatta, insonlarning barqaror bir-birlatidan farqini o'rganish;
- 2) Shaxslarni xulq-atvorini turli va murakkabligini gipotetik tushuntirish.

Bu yo'nalishlar ko'pgina konsepsiyalarning asosini tashkil qilgan. Skinner fikrichi mavhum (abstrakt) nazariya majburiy emas.

Individni xulq-atvorini unga tashqi muhitni ta'sirini o'rgatish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Skinner ta'kidlashicha psixologiya, ayniqsa o'qitish yetarli darajada rivojlanmagan shu sababli ulkan masshtabli nazariya mavjud bo'lmagan. Shuningdek u, nazariy yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazish lozim emasligini, chunki ular kuzatuv faktorlariga tushuncha berib, hodisalarni turli terminlar va o'lchamlaeda ta'kidlab, ularni turli me'yorlarda o'lchab bo'lmaydi.

Skinner insonning xulq-atvor nazariyasini yaratib, psixologlarga soxta ishonch paydo qilib, amalda xulq-atvor va atrof-muhit bog'liqligini ko'rsata olmagan.

Skinner o'zini nazariyotchi deb hisoblagan va shaxsni o'rganish nazariyasini yaratib bergan.

Skinner o'z intervyusida: "men o'zga dunyo, aql va asab sistemasini nazariyasini yaratib, xulq-atvorni tushuntirishga harakat qilaman. Bunday nazariyani muhim va foydali deb hisoblayman. Bundan tashqari bular, xavfli hamdir, chunki bezovtalanishga asos bo'ladi. Men shaxs xulq-atvorini umumiy nazariyasini xush ko'raman, chunki ko'p faktorlarni birlashtirib umumiy tushuncha beradi.

Tashabbuskor shaxs doira tashqarisida, Skinner radikal bixeviorist sifatida, insonlar tashabbuskorligini va xulq-atvorini ichki faktorlar bilan bog'liq ekanligini inkor etib, (masalan: ongsiz impuls). Bu konsepsiyalar to fikrlar bo'li, hozirda ham

mavjud bo'lib kelmoqda, chunki xulq-atvorn boshqarayotgan atrof-muhitsharoiti inkor etilmoqda.

Tashabbuskor inson, biz boshqacha izohlay olmaganligimiz sababli mavjud va xizmat qiladi. Uning mavjudligi bizning nodonligimizga bog'liq, biz xulq-atvor haqida ko'proq bilganimiz sari, tabiiyki u o'z tashabbuskorligini yo'qotib boradi.

Shaxsni bilish uchun tashabbuskor shaxsni aqli, sezgi, xarakteri, reja, maqsadi va boshqalarni bilish, xulq-atvorni ilmiy analiz qilishga yordam beradi.

Skinnersning interopsixik sabablari qarshiligini o'rganish uchun nomaqbul fenomenlari bog'liq emas, balki turli terminlar bilan atalib, aniqlik kiritish mumkin emasligida, fan tarixida ta'kidlanishicha aqliy xulosalar konsepsiyasidan chekinish lizim, ko'rinishini o'zgartirmay, empirik o'rganish uchun, masalan iqtidorli talabalarni kolledjdanda o'qishdan chetlatish sababini o'rganib, biz tushuncha berishimiz mumkin, chunki u omadsizlikdan juda qo'rqadi, chunki uning motivi bo'lmaganligi sababli yoxud u omadsizlikdan ongsiz qo'rqib, o'z ustida kam ishlaganligi. Bunday talabani o'qishdan chetlatish gipotezalari, tushuntirish bo'lib, Skinner fikricha, bular hech narsani oydinlashtirmaydi, agar barcha motivlari hamda uni o'qishdan chetlatish sabablari aniqlanmasa.

Avvalo, bu holatni kuzatib, so'ng qo'shimcha tushunchalar berib aniqlik kiritish mumkin. Agar iqtidorli talaba o'qishdan chetlatilsa, buni sababini tekshirish uchun ushbu holatga qonuniy sharoitlar sabab bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Masalan: talabani uxlashiga yotoqxonadagi shovqin halaqit berganligi sababli, yaxshi uxlay olmay, charchab yaxshi o'zlashtira olmaganligi iqtisodiy qiyinchilik sababli haftasiga 40 soatdan ishlashga majbur bo'lib, shug'ullanish uchun vaqti yetmasligi yoxud u talabalar basketbol jamoasida o'ynaganligi sababli, ko'p darslarga qatnasha olmaganligi sababli o'zlashtirishi pasayganligi va.h.klar. Skinnersning bu tushunchalari, holatga javobgarlikni tashabbuskor shaxsga emas, balki uni tevarak-atrofdagi sharoitga bog'liqligini ko'rsatadi. Skinner tushunchasi bo'yicha tevarak-atrof, sharoit barcha holatlarni aniqlaydi.

Skinner boshqa nazariyalar bilan solishtirganda oson ziddiyatlashgan xarakterdagi nazariyani taklif etmadi. U o'zining nazariyasida o'zining tadqiqotchilik yo'nalishida shaxsni yaqqol tarzda ifodalovchi holatni taqdim etmadi.

Uning nazariyasi faqatgina shaxsni emas, balki butun xulq-atvorni tushuntirishga harakat qildi. Skinner psixologiya aniq dalillar asosida va tadqiqotlar laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidladi. Skinner psixologiya xulq haqidagi, organizm nima qilishi haqidagi fan ekanligi ta'kidladi. Uning xulq-atvorni o'rganishi psixoanalitikka, qirralar, ekzistensial, kognitiv, va gumanistik yondashuvlarga antipoddir. Uning yondashuvi nafaqat predmet, metodologiya va maqsadi bilan tafovutlanadi.

Shaxsni tuo'ntirishda kalit sifatida ko'pgina boshqa nazariyalar insonning ichki olamiga nazar soladi. Sabablar, motivlar insonning kamoloti va xulq-atvorini yo'naltiradi hamda har bir insonning ichida kechadi.

Bunga teskari Skinner xulq-atvorni tushuntirishda ichki tomon bilan bog'liq biror bir xulosaga kelmadi. Ongsiz ta'sirlar, himoya mexanizmlar, qirralar va

boshqa harakatga keltiruvchi kuchlar ilmiy psixologiyada o‘rin olmaydigan jihatlar ham mavjud.

Skinner ham o‘z navbatida fan uchun foydaligidan ichki kuchlar mavjud bo‘lishini inkor etmadi. Skinner aniq kuzatib bo‘lmaydigan va fanga aloqador bo‘lmagan fiziologik jarayonlarga analogik mulohazalarni qo‘lladi.

Inson bilan bog‘liq bahslar-vaziyatlarda Skinner atrof-olam yoki vaziyatlarni e‘tiborga oldi. Eksperimental o‘rganish predmeti jihatidan Skinnerning yondashuvi boshqa nazariyachilardan keskin farq qildi. Bir qator tadqiqotchilar emotsional beqaror, boshqalar esa me‘yordagi yoki o‘rtacha barqarorlikdagi shaxslarga e‘tibor qaratadilar.

Skinnerning xulq-atvor haqidagi insonlarga qo‘llagan g‘oyalari kalamush va kabutarlarni xulqini o‘rganish uchun qo‘llanilgan. Inson shaxsini haqida xulosalash uchun kabutarni o‘rganish kerakmi? Skinnerning qiziqishlari bolalar kechinmasi yoki katta yoshdagilarning tuyg‘ularini emas, qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan xulqiy reaksiyalarni aniqlashga qaratilganligini unutmaslik lozim. Stimullarga nisbatan ba‘zan javoblar odamlar, ba‘zan hayvonlar yaxshi javob berishlari mumkin. Skinner inson xulq-atvori boshqa jonzotlar bilan solishtirganda murakkab ekanligini e‘tirof etdi. Tafovutlar esa darajali, tabiiy shaklda emas. Fundamental jarayonlarda o‘xshashdir deb xulosaladi. Shu bois fan oddiydan murakkabga qarab o‘rganib, dastlab oddiy jarayonlarni o‘rganishi kerak. Shunday qilib, u jonvorlarning xulq-atvorini o‘rganishga jazm qildi. Bu esa inson xulq-atvoriga qaraganda soddaroqdir deb o‘rganishga kirishgan.

Skinnerning ishi amaliy jihatdan yo‘lga qo‘yilgan. Uning tadqiqotlardan olgan terapevtik metodlari har xil kasalliklar, xususan, psixoz, aqliy taraqqiyotdan ortda qolish va autizmni davolashda foydalanildi. Uning xulq-atvoriga bag‘ishlangan g‘oyalari bo‘yicha modifikatsiya qilgan metodlari maktab, tashkilot, tuzatish muassasalari va kasalxonalarda tatbiq etildi.

Asosiy xulq-atvor

Skinner ikki xil xulq-atvorni o‘rganishga e‘tibor qaratdi: sharstsiz reflektor – shartli reflektor va operant xulq-atvor. Javob xulq-atvor o‘zida maxsus stimullarga javob sifaida namoyon bo‘ladi. Aynan reflektor xarakterdagi xulq-atvor sifatida tizza refleksini misol sifatida keltirish mumkin. Impulsislar tatbiq etiladi va javob yuzaga keladi. Bu avtomatik tarzda yuz beradi.

Operant xulq-atvor organizm atrofdagi faol ta’sir ko‘satadi va bu faol harakat ta’sirida ular mustahkamlanishi yoki inkor etilishi mumkinligini ifodalaydi. Skinner bo‘yicha aynan mavjudodlarni moslashuvida egallanuvchi ushbu reaksiyalar ixtiyoriy xulq-atvor shakli hisobalanadi. Konkida uchish, fortepianoda kuy chalish, xat yozishni o‘rganishning barchasi insonning operant harakatlariga misoldir. Organizm uchun ularning oxiri yoqimli bo‘lishi, operant reaksiyalarni takrorlash ehtimoli ortadi.

Bixevriorizmning zamonaviy ko‘rinishlardan biri sotsial o‘rganishlar nazariyasi.

14-mavzu. Shaxs ekzistensial psixologiyasi. Har xil psixologiya maktablarida shaxs nazariyalari (2 soat)

Reja:

1. Psixologiyada ekzistensial yo‘nalishning vujudga kelish tarixi.
2. Karl Yaspers va Martin Xaydegger – faylasuf-ekzistensialistlarning psixologiyaga ta’siri.
3. Lyudvig Binsvanger va Medard Bossning.
4. Viktor Franklning ishi shaxs psixologiyasidagi ekzistensial an’ana misolida.
5. K. Levin maydon nazariyasining asosiy prinsiplari.
6. Maydon nazariyasining strukturaviy qismi: psixologik maydon va shaxs, shaxs ichki hududi, perseptual-motor qatlam, subhudud tushunchasi, valent ob’ektlar.
7. Nazariyaning dinamik qismi: psixik quvvat, haqiqiy ehtiyojlar va kvaziehtiyojlar, zo‘riqish, zo‘riqishning reduksiya prinsipi.
8. K. Levin maktabining eksperimental ishlari.
9. Kognitiv psixologiyaning vujudga kelishi.

1. Экзистенциал психологияда шахс.

An’anaviy hayotning mazmuninig muammolari falsafaning predmeti hisoblanadi. Faylasuflar odamning hayotining mazmuni nima va u qanday bo‘lishi kerakligi masalasini yechadilar va h.k. Mavjud psixologiya fanlari tizimi doirasida, hozircha qat’iyan hayotiy - mazmuniy muammolarga yo‘naltirilgan, aniq ta’riflangan, maxsus intizom yo‘q.(bunga o‘xshaganlarning bir qismi biologik sababdan tortib g‘oyaviy sababgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni ko‘rib chiqadigan ruhlanish (motivatsiya) nazariyasini o‘z ichiga oladi). Shuning uchun hayot mazmunining muammosi bilan alohida maktab - ekzistensial psixologiya shug‘ullanadi. "Ekzistensiya" tushunchasining o‘zi, so‘zma-so‘z tarjima qilganda “paydo bo‘lish”, “vujudga kelish”, “shakllanish” ma’nolarini anglatadi. Bu butun ekzistensializmning mohiyatini nafaqat psixologiya va psixoterapiyada, balki falsafa, san’at, adabiyot va hokazolarda ham aniq aks ettiradi. Unda odam psixodinamik mexanizmlari, xulq-atvor shakli, tabiiy va shaxsiy sifatlarining statik to‘plami sifatida emas, balki doim bor bo‘lgan va bo‘luvchi mavjudot sifatida asosiy rol o‘ynaydi.

Psixologiyada ekzistensial yo‘nalish XX asrning birinchi yarmida Yevropada ikkita g‘oyaning chegarasida vujudga keldi: bir tomondan bu o‘sha paytda odamning holis va ilmiy tahlilining ko‘rsatmasi va deterministik qarashlari bilan hukmronlik qilgan ko‘plab psixolog va terapevtlarning qanoatlanmasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu psixologiya va psixiatriyaga katta qiziqish uyg‘otgan ekzistensial falsafaning shiddatli rivojidir. Natijada psixologiyada Karl Yaspers, Lyudvig Binsvanger, Medard Boss, Viktor Frankl kabilar tomonidan taqdim etilgan yangi – ekzistensial oqim vujudga keldi. Ekzistensializmning psixologiyaga ta’siri asl ekzistensializm yo‘nalishining shakllanishi bilan chegaralanib qolmadi. Juda

ko'plab psixologik maktablar u yoki bu miqyosda mana shu g'oyalarni o'ziga singdirdilar.

Ayniqsa, E. Fromm, F. Perls, K. Xorni, S. L. Rubinshteynlarning ekzistensial motivlari juda kuchli. Shunday qilib ekzistensial psixologiya quyidagilarni o'rganadi:

- 1) o'lim, hayot va vaqt muammolarini;
- 2) tanlash va javobgarlik erkinligi muammolarini;
- 3) yolg'izlik, sevgi va muloqot muammolarini;
- 4) mavjudlikning mazmunini qidirish muammolarini.

Ekzistensial psixologiyaning asosiy predmeti – odamzod hayotining mazmuni, uni yo'qotish, o'zgartirish va erishishning shart-sharoitlari. Viktor Frankl, Rollo Mey, Djeyms Byudjental kabi mualliflar tomonidan ekzistensial falsafa asosida ishlab chiqilgan umumpsixologik nazariyalar va psixologik praktikaning metodologik asoslari bugungi kunda ekzistensial psixologiyaning cho'qqilari hisoblanadi.

2. V.Frankl: ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi

Psixologiyada V. Frankl yaratgan ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi odam tabiatiga, shaxsning normal rivojining mexanizmlari va patologiya (g'ayritabiilik)ga, shaxs rivojida anomallarni yaxshilash yo'li va uslubiga bo'lgan tibbiy, falsafiy va psixologik qarashlarning murakkab tizimini o'z ichiga oladi.

Psixolog Franklning nazariyasi uch asosiy qismga bo'linadi: mazmunga intilish haqidagi ta'limot, hayot mazmuni haqidagi ta'limot va erkinlik irodasi haqidagi ta'limot. Mazmunga intilishni va odam o'z hayotining mazmunini anglashini V.Frankl barcha insonlarda mavjud bo'lgan va shaxs rivoji va fe'l-atvorini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lgan tug'ma motivasion g'oya sifatida ko'rib chiqadi. V.Franklning fikricha, hayotiy kuzatuvlar, klinik amaliyotlar va empirik ma'lumotlar shuni o'z ichiga oladiki, odam yashashi va faol harakat qilishi uchun o'zining qilmishlari ega bo'lgan mazmunga ishonishi kerak.

Biroq sevgi ham hayotni anglashning zarur sharti yoki eng yaxshi variant hisoblanmaydi. Hech qachon sevmagan va sevilman individ ham o'z hayotini ancha ma'no-mazmunli etib tashkil qilishi mumkin.

3) Inson o'zgartirishga qodir bo'lmagan sharoitlar iskanjasida qolganda munosabatlar qadriyatiga murojaat qiladi. Ammo har qanday shart-sharoitda insonda ularga nisbatan ongli pozitsiyaga ega bo'lish va o'z uqubatlariga chuqur hayotiy ma'no berish erki mavjud.

O'z asarlarida Frankl butun hayotning ma'nosi emas, balki muayyan insonning muayyan momentdagi hayotining ma'nosi masalasi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Insonning qanday qilib o'z mohiyatini anglashini logoterapiya amaliyotida hal qiluvchi masaladir. Ma'nolar bizga berilmagan, biz o'zimizga ma'nolarni tanlab ololmaymiz, biz faqatgina ma'noni anglab yetishga zamin yaratuvchi chorlovni tanlashimiz mumkin. Biroq, ma'noni toppish bu yarim ish; uni

amalga oshirish ham kerak. Inson o'z hayotining unikal ma'nosini amalga oshirishga ma'sul.

Shunday qilib, Frankl ta'limotining bosh tezisi: inson hayoti hech qanday shart-sharoitda ma'nosini yo'qotmaydi; hayot mohiyati har doim topilishi mumkin.

Frankl uchinchi ta'limoti- iroda erkinligi haqidagi ta'limotning asosiy tezisiga ko'ra inson hattoki erki obektiv sharoitlar bilan chegaralangan holatda ham o'z hayot m'anosini topishi va amalga oshirishga erkindir. Frankl insonning o'z qiziqishlari, irsiyati va tashqi muhit sharoitlariga nisbatan erki haqida so'z yuritadi.

Qiziqishlarga nisbatan erkinlik ularga "yo'q" deyish, ularni qabul qilish yoki rad etish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Iroda erkinligi ta'limotining muhim masalasi bu inson nimaga erkinlikka egaligidir. Bu o'z taqdiri uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olish, vijdoniga quloq tutish va taqdiri bo'yicha qaror qabul qilish erkinligidir.

Ko'pgina mualliflar asarlarida Viktor Frankl ma'no va be'manolik masalasiga eng katta hissa qo'shganligi ta'kidlanadi. U klinik amaliyotda uchraydigan nervozlarning 20% noogen xususiyatga ega ekanligi ya'ni hayot ma'nosining yo'qligi orqali vujudga kelganligiga alohida urg'u beradi. Shu bois ham aynan ekzistensial terapiya nazariya va amaliyoti boshqa tadqiqotchilar izlanishlarida o'z rivojini topgan.¹⁴

3. L. Binsvanger va M.Boss: shaxsning ekzistensial nazariyasi

Psixologiya va psixoterapiyada ekzistensial yo'nalishning yorqin vakillari shvetsariyalik psixiatrlar Lyudvig Binsvanger va Medard Boss. Ular o'z konsepsiyasini nemis faylasufi Martin Xaydeggerning ekzistensial nazariyasi asosida ishlab chiqishgan.

Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Avvalo, ular psixologiyaga tabiiy fanlardan sababiylik tamoyilining olib kirilishiga qarshi chiqdilar. Ular fikricha, inson hayotida hech qanday sabab- oqibat ga asoslangan munosabatlar yo'q. Asosan, xulq-atvorning ketma-ketligi mavjud bo'lib, bu ketma-ketlik orqali sababiylikni keltirib chiqarib bo'lmaydi¹⁵.

Shunday qilib, Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya kazuallikni rad etgan holda, pozitivizm, determinizm va materializmni ham inkor qiladi. Ushbu olimlar ta'kidlashicha psixologiya boshqa fanlarga o'xshamaydi va ular kabi model asosida qurilishi kerak emas. U o'z metodini (fenomenologiya) va tushunchalarini (hayotdagi mavjudlik, mavjuslik moduslari, erkinlik, ma'suliyat, aylanish, transendensiya, makoniylik, temporallik va b.q.) talab qiladi. Binsvanger va Boss ekzistensial nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri motivatsiyadir. Motivatsiya doim sabab va oqibat munosabatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri tushunishni

¹⁴ Boeree C. G. Viktor Frankl/ Personality Theories. PsychologyDepartment Shippensburg University. 1997. – P.8

¹⁵ Boeree C. G. Medard BOSS/ Personality Theories. PsychologyDepartment Shippensburg University. 1997. – P.3

talab qiladi. Bir xil voqea turi sabablar oqibatida yuzaga kelishi mumkin, shu jumladan tabiiy omillar tufayli, lekin faqat insongina mazkur harakatni amalga oshirish, biror bir maqsadga erishish uchun motivatsiyaga ega bo'ladi. Turli individlar turli maqsadlarga erishish uchun bir xil harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga inson tomonidan u yoki bu maqsadga erishish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va bu bosqichning har biri o'z oqibatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, mazkur holatda inson motivatsiyasini tushunish inson xulq-atvori, hatti-harakatini anglashning bosh mezoni bo'ladi. Binsvanger va Boss konsepsiyasi subekt (ruh) va obekt (tana, muhit, materiya) o'rtasidagi dualizmga salbiy qaraydi. Ushbu fikrni birinchi bo'lib Dekart ilgari surgan va keyinchalik inson kechinmalari va harakatlarini muhit stimullari hamda tana holati nuqtai nazardan ko'rib chiqishda keng qo'llanila boshlandi. Ekzistensial nazariya individning dunyoda birligini ta'kidlaydi va bu birlikni buzuvchi har qanday qarashni falsifikatsiya va inson voqeligini yagona oqimini bo'lib tashlashga bo'lgan urinish deya baholaydi. Boss so'zlariga ko'ra, egzistensial psixologiya maqsadi-insonning bog'liqlik strukturasi yuzaga chiqarishdir. U yozadi: "Bog'liqlik faqatgina buzilmagan butunlikda mavjud; bog'liqlik butunlikdan kelib chiqadi".

Ekzistensial psixologiyaning uhu yo'nalishi shuningdek fenomenlar ortida ularni tushuntirib berishi yoki aniqlab berishi mumkin bo'lgan nimadir bor degan farazni ham inkor etadi. U inson xulq-atvorini ananaviy bo'lgan "Men-konsepsiya", ongsiz, psixik va jismoniy energiya, instinktlar, miya elektrik jarayolari, arxitiplar va b.q. orqali talqin qilishni tan olmaydi. Binsvanger va Boss fenomen mohiyatini tushuntirib berishmaydi, ular faqat fenomen borligini tan olishadi va psixologiyaning bosh vazifasini ularni chuqur yoritish, tushuntirish yoki isbotlash emas deb aytib o'tadi. Bu tadqiqotchilar har qanday psixologik nazariyalarga salbiy munosabatda bo'lganlar, zero, nazariya ostida doim u yoki bu faraz yotadi, mazkur olimlar uchun esa inson tomondan his qilingan, uning boshidan o'tgan va anglab yetilgan hodisalar haqiqiydir, ilmiy farazlar emas. Bu yonalish tarafdorlari fikricha o'rganish bu hech qanday gipoteza va steriotiplarsiz ko'ra olishdir.

Binsvanger va Boss individga huddu buyumdek qarashga qarshi chiqdilar. Ular fikricha, insonga bunday munosabat nafaqat psixologiyaga insonlarni hayotdagi mavjudligi pozitsiyasidan anglash imkonini bermaydi, balkim alal qoibat shaxs degumanizatsiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular insonlarning texnisizm, byurokratiya, mexanizatsiya natijasida chetga chiqib qolishi, uzlatga chekinishi va buzilishi haqida so'z yuritgan. Olimlar nuqtai nazariga ko'ra, insonlar bilan buyum kabi munosabatda bo'lganda, ular ham o'zlarini ega bo'lish, nazorat qilish, forma berish, ishlatish mumkin bo'lgan buyum deb hisoblay boshlashadi. Natijada bunday insonlar haqiqiy inson hayotini yashab o'tishga qodir bo'lmay qoladilar. Inson o'z hatti-harakati uchun erkin va ma'suldir. Boss aytadiki, erk bu insonlar ega bo'lgan nimadir emas, bu shundoq ham mavjud hodisa. Binsvanger va Boss egzistensial falsafaisda juda katta o'rin inson o'limi mavzusiga ajratilgan. Mazkur mutaxassislar asarlarida o'lim oldidan qo'rquv hayot masalasidan kam o'rganilmagan. Binsvanger

va Boss konsepsiyasining fundamental tushunchasi “dunyoda mavjudlik” (Dasein) dir.¹⁶

Inson mavjudigi dunyosining 3 darajasi bor: 1) biologik yoki jismoniy atrof-muhit (landshaft); 2) insoniyat muhiti 3) insonning o‘zi, uning tanasi. Inson mavjudligining mohiyati masalasiga to‘xtalar ekan, Binsvanger va Boss insonlarning o‘zi dunyo mohiyati ekanligini, ular o‘z dunyosiga ega ekanligini, ammo doimo bu dunyo chegarasidan chiqishga harakat qilishini aytib o‘tadi. Mazkur holatda, dunyo chegarasida ortidagi mavjudlik haqida so‘z borar ekan, olimlar o‘zga – narigi olamda yashashni nazarda tutmaganlar, balki mavjud bo‘lgan muhitidan yangi dunyoga, muhitga o‘tish haqida fikr yuritganlar

15-mavzu. Rus psixologiyasida shaxsga yondashuvlar(2 soat)

Reja:

1. Muhit, shaxs rivojlanishi.
2. Psixologiyaning turli yo‘nalishlaridagi rivojlanish haqidagi tasavvurlar. Hayot tarzi, inson individual xususiyatlari, hamkorlik faoliyati-shaxs rivojlanishining asoslari.
3. Shaxs rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar.
4. Faoliyatni rivojlanishi prinsipi. Faoliyat tizimidagi qarama-qarshilik shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuch sifatida (A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn). Shaxs xulq-atvorida o‘zaro rivojlanish manbai. D.N.Uznadze funksional tendensiyalar holati haqida.
5. Funksional ehtiyojlarni ajratish va ularni o‘rganish va eksperimental tadqiqotlar hamda muomala ehtiyojini tadqiq etish. Shaxs rivojlanishi jarayonida faoliyat, hal qiluvchi tushuncha ekanligi (A.N.Leontev). Motivasion ehtiyoj va intellektual bilish sohalar orasidagi qarama-qarshiliklar.

Bir necha o‘n yillar davomida milliy psixologiya tadqiqotlari shaxs faoliyati prinsiplariga asoslangan edi. Bu prinsiplar muallif haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar yo‘q. Bu prinsiplar birinchi bo‘lib 1922-yil Rubenshteynning “Shaxs ijodiy faoliyati prinsipi” maqolasi orqali yuzaga kelgan degan fikrlar ham mavjud. Bundan tashqari o‘tgan asrning 20-30 yillarida L.S.Vigotskiy tomonidan yozilgan bir necha asarlar ham bu prinsiplarning fundamental g‘oayalariga asos bo‘lgan degan ma’lumotlar ham mavjud. Bu prinsipning ma’no mazmuni milliy psixolog L.Ya . Galperin yoritgan edi. Uning yozishicha shaxs ijodiy faoliyati faqatgina shaxs tor doirasida emas, subektning tashqi va obektiv faoliyatini o‘z ichiga olib o‘rganish kerak; shaxs ijodiy faoliyati psixikaning zarurligini, unig tarkibi va tuzilishi tashqi faoliyat bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganish ; psixologik faoliyatda shaxs ishtirok etmaydigan protses emas subektning muommoviy holatdagi faoliyati bilan ko‘rib chiqish.

Milliy psixologiyada shaxs ikki qarash bilan o‘rganiladi.

¹⁶ Boeree C. G. Medard BOSS/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

Barcha psixologik jarayonlar – e'tibor, xotira, fikrlash shaxsga tobe bo'lgan tanlangan xarakterga ega aktiv holtaga egadir. (motivatsiya, qiziqish, maqsadga , xarakter).

Shaxsni o'z-o'zidan o'rganish qarshi bilan sturukturasi, uning shakillanishi nazaryasini o'rgandi.

L.S.Vigotskiy (1896) – metodolog psixolog, ko'p yillar davomida bola psixikasini o'rganishda emperik usullardan foydalanish programmasi ustida ish olib brogan. 10 yil davomida olib borilgan tinimsiz va intensiv izlanishlar orqali u 180 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Bun basarlar orasida “San'at psixologiyasi”, “Fikr va nutq”, “Pedagogik psixologiya”, “Psixologik krizisning tarixiy mazmuni” kabi asarlari mashhurdir. Vigotskiy alohida e'tibor qaratgan “Markaziy kategoriga insonni ongi edi. Vigotskiy marksizm g'oyalariga asoslanib, psixik o'zgarishlarga tavsif qidirishga harakat qildi.

Ichki psixik jarayonlarni tushunish uchun. Inson organizmi doirasidan chiqib, uning atrof- muhit bilan bo'ladigan munosabatini o'rganish karak edi.

Uning konsepsiyasi ma'naviy- tarixiy deb atash mumkin edi, chunki ong va psixik jarayonlarga interpretatsiyani faqatgina ularning rivojlanishi va qurilishi orqali berish mumkin edi. Vigotskiyning asosiy g'oyasi , yuqori psixik funksiyalarning rivojlanishini tasqidlash bilan bog'liq edi. Ular yosh bolada kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Vigotskiyning fikricha, rivojlanish, ma'naviy belgilarni. Ularning ichida eng soddasi bo'lgan so'zlarni o'zalashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Oliy psixologiya doir muommolar birga insonda tug'ilishdan mavjud bo'lgan funksiyalar xususida han bahs yuritiladi. Vigotskiyning fikriga ko'ra rivojlanish ikki yo'nalishga bo'ladi:

Bola rivojlanishida bu ikki yo'nalish ham ishtirok etadi, va biz ularni izdir holatda filogeneza uchratishimiz mumkin: bular; biologik va tarixiy , tabiiy yoki ma'naviy xulqning rivojlanishidir. Ontogeneza bu ikki jarayonlar o'z parallellariga egadir.

Tabiiy funksiyalar bular mexanik xotira, e'tibor , obrazli fikrlarni organik rivojlanishlar bo'lib ular tashqi muhit bilan bo'lgan aloqa davomida shakillandi. Oliy psixik funksiyalarga – logik xotira, dunyoqarash, tushunchalarda fikrlash. Birinchi-tabiiy stimul reaksiya prinsipi asosida, ikkinchisi esa qonun bilan rivojlanadi.

Vigotskiy ikkta gipotezani oldinga surgan:

1) Oliy psixik funksiyalarning tarqalalishi

2) Tashqi integratsiya yo'li morqali ichki faoliyatning vujudga kelishi.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, xulq atvori o'zlashtirish avval tashqi (sotsial) planda, kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi va shundan so'ng funksiyalar ichiga aylanadi. Bu qonuniyat , ma'naviy rivojlanishning umumgenetik qonuni deb ataladi. Shaxsning shakillanishi, Vigotskiyning fikricha, moddiy rivojlanishni aks etadi. Uning fikricha bola shaxsiyati bilan moddiy rivojlanish o'rtasida teng belgisini qo'yishimiz mumkin. Shaxs shunday tarixiy rivojlanishda shakllanadi. Shaxsning ko'rsatkichi deb tabiiy va oliy psixik funksiyalar ko'rinishida ko'rishimiz mumkin.

Insonda qancha ma'naviy funksiyalar ko'p bo'lsa unda shuncha dunyo va o'z xulq-atvori ustidan bo'lgan boshliqligi kuchayadi.

A.N.Leontev (1903-1979) –psixolog, ilm tashkilotchisi, faoliyat nazariyasi asoschisi. Uning asarlari orasidan “Psixika rivojlanishi”, “Faoliyat, ong, shaxs”, kabilari mashhurdir. Leontev konsepsiyasi inson rivojlanishida ijtimoiy determinatsiyaning o'rni haqidagi qarashni ma'qullab, qaysidir ma'noda Vigotskiy yo'lini davom ettirgan. Leontevning shaxs teoriyasi asosiy prinsipi yordamida insonning natural faoliyatini tushunish bilan ifodalash mumkin. Uning konsepsiyasining asosiy tushunchasi bu faoliyat kategoriyasidir. Faoliyat fenomeni sabab, atrof olam ta'sirida yuzaga keladigan jarayon tekshiriladi.

Faoliyatning asosiy formasi uning tashqi faoliyatidir. Daliliy ma'nosi bu so'z ma'nosi bilan solishtiriladi. Leontev ta'kidlab o'tganidek, ma'no faqatgina bitta taalluqli bo'la olmaydi, chunki harakatni individ bajarmaydi. Tarixiy rivojlanishning tashqi faoliyat davrida ichki funksiyalar yuzaga kelishi mumkin, ular tez shakllanib 2ta formaga aylanadi.

Predmetli faoliyatda asosan o'z-o'zini ta'minlay oluvchi-harakat va operatsiyalar ajralib chiqadi. Ichki faoliyatda motiv va maqsad shularga kiradi. Butun bir faoliyatni o'rganishdan maqsad ichki sistema bog'lamishlar va munosabatlarni tadqiq qilishdir.

Leontev fikricha shaxs bu faoliyatning ichki momenti, shaxs tushunchasi asosan individ tushunchasi bilan adashtiriladi. “Individ” tushunchasi konkret subektning bo'linmasligi, butunligi va o'zgacha ekanligini ifodalaydi. Individ filogenetik va ontogenetik rivojlanishningso'nggi mahsulidir. Shaxs strukturasi motiv va faoliyat orqali yuritiladi. Uning ta'kidlashicha, insonning alohida psixologik yoki sotsial-psixologik tomonlaridan kelib chiqqan holatda “Shaxs strukturasi” hosil qilish mumkin emas, bu shaxs o'zagida unga o'rnatilgan genetik programmalarida, uning mavjud salohiyatida emas balki bilimi va faxmidadir.

Shaxs analizi birligida shaxs mazmuni inson ongida motivni maqsadga bo'lgan munosabati sifatida o'rta chiqadi. Shaxs mazmun shaxs analizi sifatida o'rta chiqmaydi chunki uning haqiqiy ko'rinishi individ bilan bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. Mazmun bu haqiqatning umumlashtirgani bo'lib asosan so'z va gaplarda kristallashib, fiksirlashib boradi. Bu jamoa tajribasining ideallashtirilgan ruhiy shaklidir.

Leontev faoliyat motivining o'zagarishi shaxs mazmuni o'zgarishi bilan birga amalga oshiriladi. Misol uchun, talaba tomonidan bitobning mutoola qilinishi uning maqsadini ifoda etadi. Uning motivi esa mutoola qilish orqali kelajakdagi kasbga tayyorlash yoki imtihonga tayyorlashdir. Shaxs fikrlarini o'rganish muomolarini Leontev ishlab chiqqan g'oyalar asosida o'rganishn psixologiyaning turli xil jabhalarida qo'llaniladi.

Rubenshteyn (1889-1960) mashhur psixolog , faylasuf va psixolog, fikrlash psixologiyasu muommosi ustidan tadqiqotlar olib borgan, psixologiya asoslari yaratuvchisi, “Umuman psixologiya asoslari” nomli darslik muallifi. “Ijodiy faoliyat prinsipi” maqolasida u ongni aktiv faoliyat deb baho berdi. Bu g'oya asosida ong birligi va faoliyati prinsipini yaratadi. Ong birligi va faoliya haqidagi g'oyalar

psixologiyaning rivojlanishining ayni bir etapida vujudga kelgan bo'lib XX asrning 30-40 yillarida introspektiv psixologiya va behaviorizm bilan bog'liq muommalarni hal qilish uchun ham vujudga kelgan. Ong birligi va faoliyat tasdiqi ong va psikani passiv bir mavjudlig deb emas subekt faoliyati, real individ va inson faoliyati uni atrof-muhit bilan bo'lgan munosabati jarayoni o'rganiladi.

Rubenshteyn alohida ta'kidlab shuni aytadiki, insonga faqatgina faoliyat emas balki shaxs ham tanlov huquqiga ega holda ta'sir o'tkazish kuchiga egadir. Shaxsni o'rganish davomidagi muhim daqiqalardan biri, Rubenshteyn fikricha faqatgina faoliyatini yoki hayot emas bundan kengroq jabhalarnio'z ichiga oladi.

V.S Merlin (1898-1982) shaxsiyatining integral nazariyalarini ishlab chiqadi va quyidagi bosqichlarini ko'rsatdi.

1. Biokimyoviy
2. Somatik
3. Neyrodinamik
4. Psixodinamik (temperament bosqichi)
5. Shaxsiyat
6. Jamiyatdagi sotsial roli.

Bu bosqichlarni orasida bir tomonlama. Aksincha ko'ptomonlama bog'liqlik bor, ya'ni bir bosqich bir vaqtda bir necha bosqichda aloqada bo'ladi. Temperamaent bosqichda quyidagilarni farqlaydi.

Yekstreversiya- obektiv holatdan kelib chiqib, psixik o'zini tutish. Sergaklik- to'siq bo'layotgan holatda qochishnorqali reaksiyaga kirishish.

Reaktivlik- xatti-harakatga shunday javob qaytarish.

Impulsivlik- tezlik undaemotsiyalar xatti- harakatning kuchi.

Emotsiyalarni uyg'onishi qo'yilgan maqsadga aktiv harakat qilish. Shaxsiy faoliyat haqida gapirdanda, shuni nazarda tutganki, psixologik vositalarning tizimi shundayki, inson o'zining shaxsiyatini ko'rsatish uchun harakat siz ulardan qochadi. Temperament B.S.Merlin fikricha ko'ra, o'zgartieish mumkin emas, chunki u genetic joylashtirilgan, lekin uni kompensatsiya qilsa bo'ladi.

Uning eng mashhur ishlaridan biri – “Temperament nazaryalari to'g'risidagi ocherk”, “Eksperimental shaxs psixologiyasi”, “Shaxsiyatning integral tadqiqotlari”.

2. Shaxsiyat psixologiyasining zamonaviy tadqiqotlari.

XX- asrning 80-90 yillarida shaxsiyat psixologiyasining rivojlanish bosqichi bo'ldi.

Bu bosqichning asosiy xususiyatlari K.A.Abulxan-Slavga ko'ra quyidagicha:

- Haqiqiy shaxsiyatga qaratilgan tadqiqotlar
- Shaxsiyat psixologiyasining etikaga o'zini tutishning tomonlariga tafakkur va motivatsiyaga yaqinlashgan
- B.F.Lomovning tizimli yondashuvi “shaxsiyat psixologiyasi”ning asosiy muomolariga aniq yondashuv.

16-mavzu. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish(2 soat)

Reja:

1. Inson rivojlanish davri psixologik prinsiplari va asoslari.
2. Shaxsning vujudga kelishi inqirozlarning rivojlanishi va ularning roli.
3. Shaxsning psixik rivojlanishini tabaqalashtirish sxemasi.(D.B.Elkonin).
4. S.Xollning bola taraqqiyoti konsepsiyasi: rekapitulyatsiya qonuni, shaxs kamoloti fazalari.
5. Kognitiv orientatsiya. Shaxs ongini axloqiy rivojlanish konsepsiyasining asosiy tavsiyalari.
6. Ijtimoiy psixologiyada shaxs kamoloti bosqichlari haqida tasavvurlar ishlanishi.
7. Inson kamolotining persogenetik nazariyalari.
8. E.Eriksonning epigenetik taraqqiyot konsepsiyasi.
9. Shaxsning psixosotsial holati haqida.
10. Shaxs kamolotida nizolarning roli.
11. Shaxs kamolotining bosqichlari.

Turning rivojlanishidan-filogenezdand farqli ravishda individning taraqqiyoti “ontogenez” tushunchasi bilan ishlatiladi. Bu tushunchani nemis biologi E.Gekkell taqdim etgan. Psixika ontogenezi insonning tug‘ilganidan to umrining yakunigacha davom etadigan uzluksiz rivojlanishi sanaladi.

Psixik taraqqiyot haqidagi masala boshqa so‘z bilan, ya’ni psixik taraqqiyotning harakatga keltiruvchi kuch masalasi orqali psixologiyadagi eng muhim muammolardan bir sanaladi. Uzoq yil davomida olimlar ushbu muammoga yondashgan bo‘lsalarda, ammo yagona bir to‘xtamga kelmadilar. Yosh psixologiyasi –psixologiyaning alohida sohasi bo‘lib, inson taraqqiyotining dalillari va qonuniyatlarini o‘rganadi¹⁷.

Psixik taraqqiyotni belgilovchi ikkita an’anaviy kategoriya mavjud: biologik va sotsial.

“Muhit”, jamiyat taraqqiyotini asosiy belgilovchi roli to‘g‘risidagi tasavvur tarafdorlari mavjud bo‘lib, ular *sotsiogenetiklar deb nomlanadi*. Ushbu yo‘nalish vakillaridan bir ingliz filosofi Dj. Lokk hisoblanadi. Uning talqinicha bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo‘lgan toza doskaga (tabula rasa) o‘xshaydi. Olimlar shaxsning har qanday qirrasini shaxs tajribaga bog‘liq, tug‘ma omillar katta ahamiyatga ega emas degan g‘oyani qo‘llab quvvatladilar. Insonning psixik taraqqiyotida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati bilan bog‘lovchilar hozirgacha mavjud. Masalan, shaxs nazariyasining “vaziyatlilik” yondashuviga ko‘ra insonlar boshidan pok va pok emas, mehribon yoki vahshiy, fidoiy va egoist bo‘lmaydilar, ular vaziyatning bosimi ostida tarkib topadilar degan g‘oyaga tayanadilar.

Yuqoridagi yondashuvga qarama-qarshi g‘oyani ilgari surganlar esa fransuz faylasuflari R. Dekart va *Jan-Jak Russolardir*. Bu yo‘nalish vakillari biologizatorlar

¹⁷ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P.173

hisoblanadilar. Ularning fikricha shaxs taraqqiyotida belgilovchi rolni nasliy, genetik omillar belgilashi ta'kidlanadi. Bola tabiat qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadi

Shaxs rivojlanishida har ikkala yondashuvni uyg'unligini ta'minlovchi qarashlar mavjud bo'ldiki, bu *konvergensiya nazariyasi deb ataladi va V. Shternga tegishli.* U psixik taraqqiyot tug'ma xususiyatlarni va tashqi ta'sirlarni oddiy namoyon bo'lishi emas, balki ichki imkoniyatlarni taraqqiyotning tashqi shart-sharoitlari bilan o'zaro konvergensiyasi deb hisobladi.

Konvergensiya nazariyasiga ko'ra psixik taraqqiyot X – nasliy element va U-muhit elementlari ostida to'planuvchi jarayon sifatida qaraladi. Bu g'arb psixologiyasida eng keng tarqalgan konsepsiya sanaladi. Masalan, ingliz psixologi G. Ayzenk *80% muhit ta'sirida, 20% irsiyat ta'sirida aniqlanadi deb hisoblaydi.*

Ammo konvergensiya nazariyasi vakillari irsiy omillarning o'rni muhim hisoblab, muhit nasliy belgilarning tartibga soluvchi ruyobga chiqishini ta'minlovchi sanaydi. Konvernesiya nazariyasining biologik va sotsial omillarni mexanik qo'shishidagi cheklanganligi insonning tabiat va jamiyatdagi mohiyatini tushunishga olib kelmadi.

Masalani hal etishga yo'naltirilgan boshqa bir yondashuv ikki omilning ta'siri bilan bog'liqlikni psixoanaliz va ko'pgina neofreydistlarning ishlarida kuzatildi.

Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog'liq tushunishga harakat qildi.

Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog'liq bo'lib, biologik, y tug'ma va tabiiy berilgan bo'lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o'zaro to'qnash keladi. Reallik prinsipiga ko'ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiyat bilan mayllar o'rtasidagi nizo shaxsning turli instatsiyalari –“Kayvoniy Men” va “U” o'rtasidagi tafovutda aks etadi. “Kayvoniy Men” o'zida shaxsning sotsial rollarni o'zlashtirishi, “U” Tada esa insondagi tabiiy boshlang'ich manba, chuqur mayllarni ifodalaydi¹⁸.

Psixikaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri - bu amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan “ishonch” tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'ilsa, u taqdirda voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

¹⁸ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 555.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo'lmish uyat va shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, o'z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchi davr - o'yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istakni ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya'ni guruhiy o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko'zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobiy xislatlari yetarli darajada bo'lmaganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o'spirinlik - o'zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolning uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati "rolni kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko'lamini kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo'lmaydi, vaholanki bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yetinchi davr - yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg'usi unga uzluksiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek,

mazkur davrda ayrim jihatlarida turg'unlik tuyg'usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr, ya'ni qarilik inson tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko'ngil sovish his-tuyg'ularini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lishlik bu yoshdagi odamlarning eng muhim jihati, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingan holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi¹⁹.

J.Piaje²⁰ intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, u intellekt funksiyalari va intellektning davrlari ta'limotini o'z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko'nikish) dan iborat bo'lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Muallif shaxsda intellekt rivojlanishining quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) sensomotor intellekti (tug'ilishdan to 2 yoshgacha),
- 2) operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan to 7 yoshgacha),
- 3) konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha),
- 4) formal (rasmiy) operatsiyalar davri.

Z.Freyd shaxs taraqqiyotini qoniqish va reallik prinsiplariga bog'liq tushunishga harakat qildi.

Qoniqish olishga intilish jinsiy mayllar bilan bog'liq bo'lib, biologik, tug'ma va tabiiy berilgan bo'lib, unga intilish ijtimoiy, jamiyatdagi muhit bilan o'zaro to'qnash keladi. Reallik prinsipiga ko'ra inson dunyodagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya tufayli reallik va qoniqish prinsipi ziddiyatga uchraydi. Shunday qilib, ikkala prinsip o'rtasidagi ziddiyatlar tufayli jamiyat bilan mayllar o'rtasidagi nizo shaxsning turli instatsiyalari –“Kayvoniy Men” va “U” o'rtasidagi tafovutda aks etadi. “Kayvoniy Men” o'zida shaxsning sotsial rollarni o'zlashtirishi, “U”da esa insondagi tabiiy boshlang'ich manba, chuqur mayllarni ifodalaydi²¹.

¹⁹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 556.

²⁰Boeree C. G. Jean Piaget/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3-10

²¹ Myers D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 555.

17-mavzu. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli

(2 soat)

Reja:

1. Shaxs xususiyatlari haqidagi tasavvurlar talqini (B.G.Ananov).
2. Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida.
3. Insonlar orasida individual farqlarni o'rganishning evolyusion sohasi.
4. Antropogenezda inson evolyusion mexanizmining gipotezasi (V.P.Alekseyev).
5. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari.
6. Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning shaxs xulq-atvori regulatsiyasidagi o'rni.
7. Individ organik ehtiyojlarining shaxs xulq-atvoriga ta'siri.
8. Temperament.
9. Temperament haqida faktorlik konsepsiyalari va ularning tanqidi.
10. ONF tiplari xususida I.P.Pavlov nazariyasi, temperament haqida hozirgi zamon nazariyalari.
11. Temperamentning evolyusion jarayonga moslashish imkoniyatlari.
12. Psixologiyada xarakter muammosi.
13. Xarakter shakllanishi. Xarakter aksentuatsiyasi.
14. Jinsiy dimorfizm va individning psixologik tavsifi. Jinsiy farqlanishning psixologik muammolari.
15. Shaxsning instrumental darajalari: qobiliyatlar haqida tushuncha.
16. Maxsus va umumiy qobiliyatlarni aniqlovchi testlar.

Temperament shaxsning o'zligini, ya'ni shaxs xulq atvorini umumiy formal-dinamik xarakteristikasini namoyon qiladi. Temperamentni o'rganishdagi asosiy muammolar uning biologik asosini ochib berish hamda genetik tabiatga ega ekanligini o'rganish bilan bog'liq. Boshqa muhim bo'lmagan masalalari esa uni tadqiq etish hamda temperamentni hosil qiluvchi psixologik mezonlari yoki uning tipologik asosini tashlik etuvchi xususiyatlari bilan bog'liq.

Temperamentning ayrim muhim masalalari: Shaxs individual tuzilishda uning o'rni aniqlash, xarakter va umumiy qobiliyatlar rivojlanishida uning rolini ko'rsatib berish hamda temperamentni professional faoliyatning muvaffaqiyatga eltuvchi omili sifatida o'rganishdan iborat.

Temperament so'zi lotincha "temperamentum" so'zidan olingan bo'lib "o'ziga xos a'zolarining o'zaro bog'lanishi" degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki Temperamentning biologik asoslariga doir masalalarga bag'ishlangan turli - tuman yondashuvlar mavjud. Gippokratning "Gumoral nazariyasi", ernest Krechmer va Sheldon tomonidan o'rganilgan shaxs somatik va temperament xarakteristikasining aloqasi, XX asrning 20-yillarida I.P.Pavlov Nerv sistemasining tipologiyasi va xususiyatlarini o'rganish sohasida o'lgan burilish yasadi va U bu xususiyatlarni Gippokrat taklif etgan tipologiya(sngvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) bilan solishtirdi.

Teplov va Nebelesin makatabidagi keyingi tadqiqodlar shuni ko'rsatdiki, temperamentning biologik asoslarini o'rganishda boshqa prinsipial qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha temperament tiplarini o'rganish emas, balki Pavlov taklif qilganidek nerv sistemasining o'ziga xos – xususiyatini o'rganish kerakligi ta'kidlanadi.

V.S.Merlanning konsepsiyasi tempermantnning psixologik nazariyalari deya ataladi .

Temperament ajralmas {integral} individuallikning umumiy tizimidagi alohida bir bosqich hisoblandadi .Ohirgisi quydagi darajalardan iborat:biokimyobiy ,somatik,neyrodinamik ,psixodinamik,shaxsning xususiyatlari darajasi,ijtimoiy o'rinlar darajasi.temperamntning strukyurasida quydagilar ajratilib ko'rsatiladi :ekstroversiya ,psixikfaoliyat ,obektiv holatga bog'liqligi kabi psixodinamik bezovtalik ,havfli holat qutulishidan qochish reaksiyasi kabi:

Reaktivlik rag'batlantirishga javoban reaksiya tezligi

Impulsilik u shunday tezlikki u yordamida emotsiyalar ma'lum bir faoliyatni rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'ladi

Emotsiyalar mustahkamligi,emotsiyalarning nazorat qila olish hususitati kabi.

Emotsional nal uyg'onish ,hissiy qayg'urish intensivligi kabi ;

Aktivlik ,faoliyatni maqsad sari yo'naltiruvchi kabi;

Yegilmaslik ,holat talabiga ko'ra faoliyat dasturini to'g'irlay olmaslik ;

V .S Merlin noaniqlik zonasi va faoliyatining individual uslubi tushunchalarni

Kritadi.Noaniqlik zonasi faraziga ko'ra inson 1(individual xususiyatlar va o'z qobiliyatlarini baholash 2(faoliyat usullari va ob'ektiv vazifalar o'rtasidagi mos kemasligini aniqlash 3(faoliyatga nisbatan turli darajada rag'batlantirishni hisobga olish kabilarga asosan ongli yoki ongsiz tarzda faoliyat usulini tanlashga qaror qabiul qiladi .

Individual faoliyati ostida bir turdagi psixologik tizm sifatida tushunib inson ongli yoki o'z o'zidan yahshiroq balansni ishga tushurish maqsadida unning individual ba mustaqil sharoitlar faoliyati bilan bog'liq .

Boshqa yo'nalish esa, qizishqonlik nasldan naslga o'tishi mumkinligiga oid belgilarni qidirish bilan bog'liqdir .RAO psixalogiya instituti laboratoriyalar birida , aynan shaxsiyat psixogenetikasida laborotoriyasida (I V Ravich- Chepotka boshchiligida) "egizak uslubi yordamida, turli yoshdagi bololarning shaxsiy psixogenetikasiga ta'sir o'tkazadigan irsiy va atrof-muhit omillarining o'zagarish surati tadqiq qilinmoqda. Nasldan naslga o'tish omili ko'rsatkichlari qiziqqonligi qaysi guruhga oid ekanligini aniqlashga yordam beradi. Egizak uslubiga ko'ra quyidagi guruhlar mavjud:

1.Qarama qarshi (contrast) guruhi uslubi monon va dizigot egizaklarni bir biriga uxshashlik jihatidan tatqiq qilishga yordam beradi.

2. Nazoratchi egizak uslubi (yoki guvoh egizak usuli) yani egizaklar juftligidan birini (eksperiment o'tkaziladigan guruh) tatqiqotga jalb etiladi. Boshqasini esa nazorat guruhi jalb etilmaydi.

3. Ajratilga egizaklar uslubi” genotip muhit “ muammosini hal qilishda tanqidiy eksperiment hisoblanadi. Chunki bu uslub tabiat(muhit) tomidan oʻrnatilgan farqliklarni topishga yordam berdi.

Bundan shunday xulosa qilindiki, dezigota egizaklar oʻrtasidagi farq ularga otalari tomonidan qilingan munosabatlarda kuchayadi. Genotip bolalar orasidagi farqqa alohida hissa olib kiradi. Biroq har xil sharoitlardagi yashash tarsi bu farqlarni oshirishi mumkin. Baʼzan esa, teskarisiga taʼsir qiladi yani susayadi.

Oʻsmirlar oʻrtasida oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, genetic shart-sharoitlarni aktivlovchi va sotsial maromlikni tasdiqladi. Har xil oʻtkazilgan izlanishlarda genotipning xissa bahosi $r=0,3$ dan $r=0,5$ gacha oʻzgaradi.

Plaminning koʻrsatmasi va egizaklarning metodiga qiziqish, bolaning rivojlanishidagi temperamenti, uning oʻsishida asos boʻlib xizmat qiladi. Bu- nisbiy va yangi oʻziga xos yoʻnalishdir. Bu metod butun jahon boʻyicha namoyish etilgan.

1960- yillar boshida Tomas va Chess rahbarligida “ Longetyut” temperament izlanishlari boshlangan edi. Ushbu izlanishlar natijasida quyidagi maqsad aniqlandi.

1) bolaning ontogenetic oʻsish xususiyatlari, temperamenti;

2) yoshlikdagi temperament xarakterlari, katta yoshga yetgandaligi bilan mos kelishi;

3) temperament aʼloqalari har xil sotsial sharoitlarda, bolalikda va katta yoshga yetgandagi holati.

Yempirik tekshiruvlar natijasida temperamentning 9 xil xususiyati borligi aniqlandi:

1) aktivlik- harakat aktivligining darajasi, uning passivlik bilan bogʻliqligi;

2) ritmlilik- bunga misol qilib bolaning yengil uxlab qolishi, bir xil vaqtda ovqatlanishi va hokozolar.;

3) yaqinlashish / ijobiy aʼloqalarga moyilligi; oʻz navbatida voz kechish esa, salbiy emotsialardan voz kechishdir.

4) adaptivlik- yangi sharoitga moslashish;

5) reaktivlik boʻsagʻasi- bunda katta shovqindan bola charchab qolishini misol qilishimiz mumkin;

6) kayfiyat-quvnoq va qoniqarsiz kayfiyatning nisbati;

7) chalgʻitish- bolani uvutish;

8) reaksiyalar intensivligi- mustaqil holatlarda energetic darajaning yoʻnalishi;

9) diqqat hajmi- bir holatni koʻp marta takrorlash va harakatlar uning keyingi hayotiy xarakatlarida qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Tomass va Chess klinik holatlarini tahlil qilayotib, temperamentning sindrom xususiyatlari hosil boʻladi degan xulosaga keldilar. Bunda 3 ta sindrom xususiyatlar bor:

1) yengil temperament- adaptatsiyaning tezligi, bolaning ovqatlanishga va uxlashga tez odatlanishlari, begona odamlardan qoʻrqmasliklaridir.

Kattalarda esa, muomilali, yangi ishlarga tez oʻrganib ketishlari kuzatiadi.

2) qiyin temperament- yuqoridagi xulosalarning teskarisidir.

3) vaqt mobaynida hosil bo'luvchi temperament- bunda insonga ovqatlarning yoqmasligi, yangi odamlarning yoqmasligi va tashqi ko'rinish va ifodalarning sekin astalik bilan ijobiy tomonga o'zgarishi.

Bu xossalar va uchchala sindrom ontogenetikstabilashtirishning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ba'zi ota-onalar farzandlarini har xil muammolarni yengishiga va omadsizlikka uchraganda nima qilish kerakligiga maxsus tayyorgarliklar bilan tayyorlaydilar.

15 yoshli egizaklarda o'tkazilgan tajribalarda T.Gensen izlanishlari monozigot egizaklarda, dizigot egizaklarga qaraganda o'xshashlik ko'proq. Biroq vaqt o'tishi bilan bu xususiyat kamayib boradi.

Monozigotli va dizigotli egizaklar o'rtasidagi farq ularning aktivliklarida ko'rinadi ya'ni 6 yoshgacha bu farq kamaya boradi, 15 yosh atrofida yana aktivlashadi. 600 juft egizaklar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki 0 yoshdan boshlab

Maktabgacha bo'lgan yoshdagi genetic xissalar diagnostic usullarga mos kelmaydi.

Xususan shuni takidlash joizki, monozigotli egizaklar, dizigotli egizaklarga qaraganda ko'p jihatda o'xshashdirlar.

Oila ichidagi muhit egizaklarning xarakterlarini susaytirishi va oshirishi mumkin.

Bunda ota-onalarning ularga munosabatlari muhim.

J.Ballegi fikricha og'ir xarakterdagi bolalar qattiq qo'l oilalarda uchrasa, yengil bolalar sevimli oilalarda, passiv bolalar esa, stimulyetishmovchiligi bor oilalarda uchraydi.

1990-yillarning o'rtalarida laboratoriya sharoitida longitjudyut metodlariboshlangan edi. Tajribadan maqsad genotipning temperament rivojlanishiga har xil yosh etaplaridagi xissasi edi. Bunda monozigot (genetic o'xshashliklari 1 ga teng) va dizigot egizaklar (0,5 ga teng) va bir o'zi tug'ilgan bolalar obekt qilib olindi(Sergeenko, Velenskaya va Dozartseva o'tkazgan).

Kuzatuvlar 3-4 oyli, 7-9 oyli, 9-12 oyligida uch marotabadan, keyin esa 2 yoshda va 6 oyda bir marotaba o'tkazildi. Monozigota egizaklardan 18 juft, 9 juft o'gil va 9

juft qizaloqlar, 22 juft dizigot egizaklar, 11 juft o'g'il bolalar, 11 juft qizaloqlar, 58 ta bittadan tanlab olindi.

J.Ballegi "Bola kuni" deb, nomlangan testdan va Beyli ning bolalar testlaridan foydalanildi. A. Balley testi bolaning temperamentini aniqlaydi. Ushbu temperament tiplari quyidagilardir:

- 1) og'ir temperament – katta ichki zo'riqish, past nazorat;
- 2) o'rtacha zo'riqish- yaxshi control, ijobiy va salbiy reaksiyalar;
- 3) yengil- zo'riqishni mo'tadillashtirish, o'rtacha nazorat;
- 4) passiv temperament- past zo'riqish, sust control;
- 5) bu metod oilaviy tarbiyani aniqlashga yordam beradi;

6) haddan tashqari talabchan oila- bunda bola va ota-onalar o'rtasidagi o'suvchan munosabatlar, qattiq talab,oila, bola bilan munosabatlarning yoqimlilik, ijobiy munosabatlar, qattiq qo'llikning kamligi;

7) passiv oilalar- ota- onalar bolalari bilan qiziqmaydi;

8) qattiq qo'l oila- ona farzand uchun qayg'uradi, zarur holatlarda ona nihoyatda qattiq qo'l ota o'zini zolim tutdi.

Aniqlanishicha monozigot egizaklarda og'ir va passiv xarakterlar ko'p uchraydi(yengil va o'rta zo'riqish).

Dizigotlarda esa, yengil va passiv, o'rtacha zo'riqish xakteri ularda juda kam uchraydi.

Yakka tug'ilgan bolalarda esa, temperament bazan o'rtachadir.

Temperamentning faktorli skalalariga ko'ra farqlari:

1) ota- onalarning munosabatlari kiradi;

2) zo'riqish holatlar- nohush holatlar, bunda monozigot egizaklarda bu shkala baland va past shkalalarda o'rtacha, yakka tug'ilgan bolalarda yuqori zo'riqish namoyon bo'ladi.

3) Bu o'rtacha zo'riqish- insonlarga va buyumlarga munosabat shkalasidir.

4) Monozigot egizaklarda otasi bilan munosabat shkalasi.Dizigot va yakka tug'ilganlarda esa, bu factor kuchsiz.

Aniqlanishicha, temperament yosh o'sib borishiga ta'sir qilmaydi.

O'rtacha ta'sir tipi bo'yicha (tarbiyaviy tip) monozigot va dizigot oilalarda o'xshashlik bor. Bular: sevuvchi va qattiq qo'l oilalardir.

Yakka holda tug'ilgan bolalar oilalarida sevuvchi jihati ko'proq. Shunday qilib, 12 oylik monozigot va dizigot bolalarda, 18 oyda qattiq oilaga o'zgaradi, 36 oyda stimullashgan oilaga o'sa boradi. Demak, Bellegi xulosalariga ko'ra temperamentning o'sish dinamikasi, yoshlik chog'idan boshlanar ekan. Ko'pgina avtorlarning takidlashlaricha temperamentning tabiati haqidagi savol ochiq qolmoqda.

18-mavzu. Sotsiogenezdada shaxs. Shaxsning o'z-o'zini anglashi va Men—konsepsiyasi. (2 soat)

Reja:

1. Madaniyat tarixida shaxs.
2. Xulq-atvor madaniyati va dasturi.
3. Shaxsda ijtimoiy tipik muammo, milliy xarakter va ijtimoiy xarakter.
4. Shaxsning rolli nazariyalari va ularning tahlili.
5. Shaxsning atrofdagilar tomonidan o'rganilishi va uning psixologik funksiyalari.
6. Shaxs va ijtimoiy guruh. «Ijtimoiy roli», «Ijtimoiy guruh», «Ijtimoiy status» tushunchalarining umumiy tavsifi.
7. Shaxs ijtimoiylashuvi.
8. Axloqiy xulq-atvor regulyatsiyasining takomillashuvi.

9. Xulq-atvor shakllarining ijtimoiylashuvi (L.S.Vigotskiy).
10. Shaxsning sub'ektiv xususiyatlarining umumiy tavsifi.
11. «Men» strukturasi va uni har xil yo'nalishlarda tadqiq etish.
12. O'zini o'zi baholash. Men konsepsiyasi. O'z-o'ziga munosabat.
13. Real va ideal "men".
14. U.Djemsning empirik «Men» mavjudligining uch jabhasi to'g'risidagi qarashi: jismoniy shaxs, sotsial shaxs va ma'naviy shaxs.
15. O'zaro munosabatlarning tuzilishi va shakllanishi.

O'z-o'zini anglash jarayon va natija sifatida ko'riladi. Odatda, o'z-o'zini anglash ob'ektiv dunyoga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda aloxida e'tibor ong va o'z-o'zini anglash nisbatiga, ong birinchiligi masalasiga beriladi. S.L.Rubenshteyn onga bo'lgan ideolistik qarashni tanqid qiladi, unga ko'ra "psixik mavjudlik uning anglashi bilan; psixikani mohiyati shundaki, u to'g'ridan-to'g'ri o'zini-o'zi bilishda; ruhiyat ong bilan, ong-ruhiyat bilan bir deb xisoblanadi. Natijada ruhiyat anglash doirasida cheklanib qoladi, uning ongi va bilishi- to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot borligi". O'z qarashini ong va o'z-o'zini anglash muammosida ximoya qilib Rubenshteyn, o'z-o'zini anglash o'z ichiga, o'z-o'ziga munosabatni kiritadi, lekin to'g'ridan-to'g'ri emas, balki shaxsning butun xayoti va sub'ektning xayotiy ko'rinishlari vositachiligida, deb ta'kidlaydi. Ong o'z-o'zini anglashdan emas, balki o'z-o'zini anglash sub'ektning aktivligidan shakllanadi. "O'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishning ob'ekti "toza" ong emas, balki ong insonning real material mavjudligida aloxida, insonning o'zi esa o'z borligining o'zluksiz butunligida".

O'z-o'zini anglashni jarayon va maxsulot sifatida ajralishini U.Djems tomonidan kiritilgan. U Men-angluvchi(I) va Men-ob'ekt-kabi(Me) ajratgan. Men-angluvchi toza tajriba, o'z-o'zini anglashning protsessual xarakteristikasi. O'z-o'zini anglashning bu ikki aspektni biz faqat nazariyasiga nisbatan avtonom sifatida tasavvur qilishimiz mumkin, chunki ular real xolatda bir-birisiz mavjud emas.

O'z-o'zini anglash jarayon sifatida

Bilish jarayoni bir necha parametrlar ko'rinishida ko'rsatilishi mumkin. K.Yasperga ko'ra, bunday parametrlar 4ta: 1) o'zini aktiv shaxsiyat sifatida anglash, 2) o'zining birligini anglash, 3) o'zining o'xshashligini anglash, 4) o'zining boshqa dunyodan farqliligini anglash(ob'ektlar dunyosi va boshqa odamlar).

O'z-o'zini o'xshashligini anglash, vaqtda o'z xaqida barqaror qarashlar nuqtai nazaridan bu jarayonni ifodalaydi. Boshqa so'zlar bilan, inson xayoti davomida bo'lib o'tadigan o'zgarishlar suratida, u o'z-o'ziga sodiq bo'lib qoladi. Xar doim kim bo'lsa o'sha ekanligini xis etgan xolda. O'xshashlik xisini buzilishi, o'zini o'tmishda ra qilishi, o'tmish va zozir o'rtasidagi Men suratlarini uzilishi bilan bog'liq. O'zini atrofidagi dunyodan aloxida ekanligini anglash, Men va Men-emas tushunchasini aniq tushunilishida namoyon buladi, o'zining shaxsiyati o'rtasida ko'rinmas chegara borligini va atrofdagi ob'ektlarni farqini borligini xis qiladi. Chegaralarni buzilishi, o'zini boshqa odamlar bilan, yoki xatto jonsiz ob'ektlar bilan taqqoslashida, xamda yaqinlashish va uzoqlashish konfliktida namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini anglash natija sifatida

O'z-o'zini anglash jarayn sifatida o'zining tugallanishini bilish va o'zini anglash natijasida namoyn bo'ladi. Albatta biz qandaydir tugallanish shartligi xaqida gapirayapmiz, chunki o'z-o'zini anglashni to'xtatish va bekor vilish kam uchraydigan xodisa va u insonning xayotidagi ekstremal xodisalar bilan bog'liq. O'z-o'zini anglan natija sifatida Men-konsepsiyasi terminlarida ifodalanadi.

Karl Rodjers fikriga ko'ra, Men-konsepsiyasi o'zining xarakteristikolari tasavvuridan va individ qobiliyatlaridan, boshqa odamlar bilan aloqa mavjudligi tasavvuridan, ob'ektlar va xarakatlar bilan bog'liq bo'lgan qimmatli tasavvurlardan iborat²².

Men-konsepsiyasi – bu inson ongidagi o'ziga bo'lgan tasavvurlri, suratlari, baxolari sistemasidir. U o'z ichiga boshqalar ko'zida o'zining qanday ko'rinishi, qanday bo'lishi va qanday o'zini tutishini kiritadi. Bu aniqlashga ko'ra Men-konsepsiyasi, bu real va ideal Men obrazlari o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni aks natijasi (Men boshqa odamlar tasavvurida, yoki Men aksi). Men-konsepsiyasini barcha uchta qisimlariuning usullari xisoblanadi.

Usullaridan tashqari men-konsepsiyasi kognitiv (Men-obrazi), emotsional (o'z-o'zini baxolash) va o'zini tutish (shaxsning o'z-o'zini aniqlash strategiyasi) komponentlari bilan namoyon etiladi.

2. Men-konsepsiyasi va jinsiy o'xshashlikning shakllanishi

Men-konsepsiyasi aniq funksiyalarni bajaradi:

1. Shaxsning ichki kelishuvini (Rodjers buyicha muvofiqliq) ta'minlaydi. Mustaxkamlikning muxim nuqtasi, o'zi xaqidagi informatsiyani tashqi informatsiya bilan to'g'ri kelishi xisoblanadi. Men-konsepsiyasi qila oladi: 1) Men suratiga tegishli tajribaga yo'l qo'yimoq, 2) oddiy ximoya usullarini qo'llab uni rad etmoq, 3) yanada yetuk ximoya mexanizmlari orqali un o'zgartirmoq, 4) o'zining o'zgarishi.

2. Atribut proeksiyasiga o'xshatib tajribasini interpretatsiya qiladi, jamiyatni o'zining ichki dunyosiga taqqoslab, agar yosh yigit ayolga joy bersa, unda ayol uning xarakatini yaxshilik namoyondasi deb xisoblashi mumkin, yoki yoshiga ishora, yoki tanishishga xarakat;

3. Izlanish va yutuqlarni yo'nalishini aniqlab, kelajakdagi yutuq va mag'lubiyatlarni ogoxlantiradi, yutuqning kutilishi joy emotsiyalar bilan kuzatiladi. Pozitiv shakllangan maqsadlar bilan, instrumental maqblag'lar shakllanishi, yutuqqa yetishishga yo'naltirilgan, mag'lubiyatni kutish esa boshqa strategiya va xissiyotlar- negativ emotsiyalar bilan, uning maqsadida avvaldan mag'lubiyat xaqida tasavvur mavjud bo'ladi.

4. O'zi xaqida tasavvurlarning sistematzatsiyasida jinsiy o'xshashlik axamiyati ilmiy adabiyotlarda aktiv muxokama qilinadi. Shunday qilib R. Berns o'zining aniq bir jinsga tegishli deb bilishi o'sib kelayotgan insonning Men-konsepsiyasida katta axamiyatga ega emas. Boshqa tarafdin F. Va R. Taysonlar bu faktorga qattiq axamiyat berishgan va turli yosh jarayonlarida, Men surati aspektlarini susayishi va kuchaishi, shaxsning Men-konsepsiyasida namoyon bo'ladi.

²² Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010.- P. 565.

Jinsiy o'xshashli biologik namoyon bo'lgan. "Aytish joizki biologik protsesslarni o'rni o'zaro xromosom, gormonal, morfologik va ijtimoiy faktorlarning kelishishidan iborat va ularning xammasi jinsiy o'xshashliq xissining normal rivojlanishini aniqlaydi²³."

1. Gender o'xshashligi

Xar vaqt va madaniyatlarda insonlarning tarqalgan klassifikatsiyasi odamlarning erkak va ayollarga bo'linishi V.A.Geodakyan teoriyasiga ko'ra evolyusion nuqtai nazariga ko'ra, jinslarning differentsiatsiyasi ularning mutaxassisligi bilan bog'liq va ularning maqsadi, yashash joyiga moslashish va tirik qolish xisoblanadi. Jinsiy demorfizm ayollar va erkaklar orasidagi psixologik farqlarda aniqlanadi. Shunday qilib erkaklarda analitik ong yaxshi rivojlangan, ayollarda esa-intuitiv, shakliy va xissiy. Ayol stress xolatida uning sabablariga bog'lanadi, erkak esa ulardan uzoqlashadi, boshqa muamollarga bog'lanadi.

Ayol va erkaklar o'zining ximoya mexanizmlari bilan farqlanadi, Erkaklar ko'rinishga moil, ayollar-inkorga.

Oxirgi kunlarda ilmiy adabiyotlarda bir necha marta jinsiy va gender xususiyatlarni, jinsiy va gender o'xshashlikni farqlashlik, zarurlik masalalari qo'yilgan. "Psixologlar gender terminini ishlatishni lozim topishadi. Va shu bilan ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqni, madaniyat orqali ifodalashadi. "Jins" so'zi aniq biologik so'zi bilan bog'liq". Gender o'z nuqtai nazaridan insonning sotsial, psixologik o'rnini ko'rsatadi, maskulinnost va femininnost nuqtai nazaridan.

Ikki ko'rsatkich- maskulinlik va feminlik 4ta gender o'xshashligini tashkil etadi:

- 1) Maskulinlik
- 2) Feminlik
- 3) Androgen
- 4) Nodifferensial

Adabiyotlarda ular, maskulinnost va femininnost komplekslari odamning adaptatsiyasi bilan bog'liq, qarama qarshi ma'lumotlar bor. Psixologik sog'lom shaxs, erkaklarni fikriga ko'ra aniq ifodalangan maskulin xarakteristikalariga ega bo'lishi shart. Ayollarga esa psixologik adaptatsion shaxs femininnost deb xisoblanadi.

Bir qator tadqiqotlar natijasi androgyny ruhiy salomatligiga ekvivalent emas, lekin salbiy mardlik erkaklar da va ayollarda ham g'am belgilari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Psixopatologiya erkaklar va ayollarda erkeklilik kursoratichi kamligi bilan bog'liq, va nazokat faqat erkaklar o'rtasida qayg'uning bir sifatidir.

Bilish mumkinki erkeklilik va ayollikning barcha kombinatsiyalari uchun, erkaklar va ayollarning ruhi bir ongli sifatida integratsiya qilinib, bu xususiyatlar birikmasi o'zgartirilishi mumkin, biologik jins xususiyatlariga tegishli va, behush

²³ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. P. 162-163

belgilari, va inson hayotining turli davrlaridada birlashtirish turiga va individual moslashish bilan munosabatlar sifatida o'zgarishi mumkin.

Taxminlarga ko'ra, o'sayotgan yoshda, kuchli farq tendensiyasi kuzatiladi, ya'ni erkaklik va nazokatlik xususiyatlari o'smirlar idrokida o'zlari va qarama-qarshi jinsdagi shaxs haqida buyuk farq, bir xil jinsdagi shaxs rasmida va ta'rifida kuzatilgan bo'lishi kerak.

Bizga ma'lum bo'lgan bugungi natijalar, faqat o'smirlar uchun ma'lum bir namuna sifatida, chegaradan chiqmaydigan psixik va somatik o'sishdir. Asosan bu kichik guruhda erkaklik va ayollik xususiyatlari differensiyasi va ularning qisman integrallashuvi kuzatiladi. Bu taxminlar o'smirlarda ko'rmoqchi bo'lgan "Konvertatsiya" xususiyatining yoqolishi kechikishiga asoslangandir.

Muayyan empirik tadqiqotda ko'rsatilishicha (Harlamenkova NIMA, Stodelova TS, 2002) balog'at yoshidagi qizlarda adaptiv rivojlantirish, o'z vaqtida nafaqat gormonal va tana o'zgarishlari bilan, balki boshqa jins bilan konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. O'smirlarning rivojlanish bosqichiga mos ravishda keyingi integratsiya xususiyatlari, qarama-qarshi biologik jins elementlari bilan erkaksiz va nazokatlikni farqlash differensiyasi aniqlangan.

O'g'il bolalardan farqli o'laroq qizlarning ko'pchiligi uchun, ayol nazokatli ko'rinadi va erkak tasviri ko'proq erkak sifatida ko'riladi, biroq ayol jinsida bu xususiyatlar ko'proq ko'riladi.

Aftidan, bu jismoniy va ruhiy o'zgarishlar tajribasi boshqa odamning bilim tajribasi bilan ko'proq tahlil etilishi lozimdir. Bu xususiyat, ammo, bu yoshda normal va adaptiv rivojlantirish uchun xarakterli bo'lgan namuna qismi uchun xarakterlidir.

Qachon ota-ona o'rtasida jinsiy kechikishlar yoki munosabatlarda muammolar kuzatilsa qizlar o'sish qatlamida sekinlashuv kuzatiladi (ya'ni, bir beqaror nazorat xatti bilan birlashganda salbiy hissiyotlar kelib chiqishi. Har qanday holatda ham, qizlar va ayollar bu ikki guruh uchun tipik defeminizatsiya masculizatsiya ko'rsatkichi bilan bog'liqdir.

Aytish mumkinki, qiz bolaning jinsiy o'zgarish vaqtidagi to'g'ri rivojlanish yo'li uch faza orqali ko'riladi; birinchisi - erkaklik va nazokatlik xususiyatlari da Men obrazining deferensiyalanmashuvi, ikkinchi bosqichi - giperdifferentsiatsiya, uchinchi bosqichi – ularning Men shaklida integratsiyalashuvi.

Balog'at davri davomida o'g'il bolaning adaptiv rivojlanishi ham bir xil omillar bilan belgilanadi. Faqat qizlar guruhida, vs o'g'il bolalarda ham o'zlari va qiz / ayol idrok kam farqli haqidagi fikrlar ham erkaksiz va nazokatli xususiyatlar kontrastini kuzatiladi. Shu bilan birga, bu holda jinsiy va ruhiy kechikishlarda rivojlanish buzilgan bo'ladi.

O'g'il bolalar uchun ayolni erkaklarga xos xususiyatlarga moyil qilinishi kuzatiladi. Bu hodisani tushuntirish maqsadida, bu hodisa jamiyatning masculinization oqibati va erkaklar va ayollar o'rtasida jinsi o'rning aralashtirish, deb taklif qilindi. Qo'shimcha o'rganish talab gipotezasi sinov qilish uchun, yosh erkaklar (17-18 yosh) guruhida bir sinov "Inson-rasm" yordamida o'tkazildi. Bu yigit rasm sezilarli darajada o'zgarar ekan. Ayollar har bir tasvir tanlangan klasterlari eril ko'proq ayol xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu ayollar, o'smir o'g'il

gipermaskulinizatsiya, degan xulosaga edi balki juda ko'p ijtimoiy bir ruhiy hodisalar va bola rivojlanishining o'ziga xos jihatlari kabi hisoblanadi. Bu o'g'il ob'ekt (- odipal ob'ekt aniqlash, kechikish va genital bosqichlarida otasiga, rivojlanish preoedipal bosqichlariga aniqlash ob'ekti edi onasi o'rniga,) aniqlash bir o'zgarish, deb ma'lum. Tashqi ko'rinishiga ko'ra, quyidagi tarzda amalga oshiriladi ob'ekt, aniqlash bir plastik o'zgarishi bilan bog'liq ayollar erkaklarga xos xususiyatlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish: ona bilan aniqlash - uning otasi bilan aniqlash - onasi va otasi bilan aniqlash orqali olib boriladi.

O'gil bolaning adaptatsiya yo'li, ayolnikidan farqli o'laroq, gipermaskulinizatsiya bilan aniqlanadi: Birinchi holatda – erkak tuzilishi, va, qisman, ayol tuzilishi, ikkinchi holatda – ayol.

Shunday qilib, o'smirlik da bola normal rivojlanishi liniyasi va uch bosqichda tomonidan vakili, lekin vaqt cho'zib endi va o'smirlik qadar davom etadi:

1) birinchi bosqichi - Men tarzda erkaksiz va nazokatli xususiyatlar farqlash yo'qligi;

2) ikkinchi bosqichi - ob'ekt aniqlash kabi ayollar masculinization;

3) Uchinchi bosqich - *feminlashtirish* va ob'ekt aniqlash kabi ayollar erkaklarning maskulinlashtirish.

4. Ijtimoiy tasavvur: muammolar va istiqbollor.

Moscovici tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy tasavvurlari nazariyasi. Uning faoliyatining - etakchi va noyob xususiyatlari, ijtimoiy va individual ong. Moscovici fan, shu jumladan, e'tiqodi, mafkuraviy qarashlardan, bilim, barcha shakllar, ijtimoiy qarashlari (Moscovici, S., 1995), deb aytadi.

Ijtimoiy qarashlari - sezmagani bir odamning qobiliyati, eslash, tushunish, xulosa narsalar ma'no berishga va shaxsiy vaziyatni tushuntirish uchun.

Moscovici tomonidan chiqishi, hamkorlikning asosi bo'lib: bir kishi yoki bir guruh bilan aloqada jalb oldin, individual hamkorlik mumkin yo'nalishlarga tasavvur qilish bor.

ijtimoiy qarashlarni o'rganish uchun bir usuli sifatida, muallif ijtimoiy tasavvur tadqiqotchisi to'g'ridan-to'g'ri kirish ochadi umumiy ma'no (xalq-fan), deb hisoblaydi.

Ichki psixologiyada, bu yondashuv psixologiya Psixologiya instituti va uning xodimlari (Abulkhanova Slavskaya-KA, 1994) laboratoriyasi rahbari K. Abulkhanova-Slavskaya asarlarida ifodasini topmoqda. Uznadze tasavvurida U LS tomonidan ishlab chiqilgan, o'rniga anglash nazariyasi bahs yuritadi. Bu yondashuv mohiyati - uning faoliyat kashf jarayonida individual ong ijtimoiy fikrlash.

Aql va fikrlash u muayyan ijtimoiy sharoitda hayot tarzi, shaxsini bir kengaytmasi hisoblanadi, chunki ijtimoiy fikrlash psixologik o'rganish, fikrlash, bu turdagi ijtimoiy sharoitlar oshkor cheklangan emas. Har bir butun insoniyat uchun umumiy individual operatsion tizimi tushunchalar va oddiy kundalik qarashlari, ijtimoiy guruhlar stereotiplar tafakkurida barcha tushunchalari, g'oyalar bir fikrlash mavzu sifatida, birga shaxsning funktsional tizimi olinadi. Quyidagi yordamlardan Ishlari ijtimoiy fikrlash bor: sorunlashtirilmasini, talqini, vakillik va tasnifi.

Tipologik usul va madaniyatlararo taqqoslash usuli - o'rganish ikki usullari yordamida funktsional tartib asoslangan edi.

SL Rubinshteyn tomonidan muammolashuv- fikrlash va bilish asosiy tartibi yoritilgan. Bu - haqiqat va mavzu bilan bog'liq nazariy qurish imkoniyat hisoblanibi; fikr ob'ekti ba'zi shaklsiz haqiqatga aylantiriladi. Ular mavhum va aniq, uzoq muddatli va shaxsan mazmunli va neytral, situatsion ajraldi.

Aslida munosabat, qoliplardan fikr yo'llarini va hayot yo'llarini bartaraf qilish qobiliyatini o'zgartirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Shaxs munosabatlarni rivojlantirish jarayoni - tajriba, aql mavzuga bog'liq tartib, voqeaga, haqiqatga, qarab, o'z fikrini shakllantirishdir.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri, ularning mazmuni ijtimoiy tasavvurlarini aniqlash semantik makon identifikatsiya tashkil qilishdir. Bunday yondashuv, ijtimoiy tasavvurlari mazmunini tashkil etuvchi turli tushunchalar xos birikmalarning ma'nosini topish. ijtimoiy vakolatxonalari semantik mazmuni tashqari bilan belgilanadi:

umumiy qadriyatlar va e'tiqod,

turli ijtimoiy toifadagi munosabatlar taqdimoti

aloqa va respondentlarning muayyan ijtimoiy holatiga vakillik.

Shuningdek o'rganish talqini va qayta rekonstruksiya qilish, muallifning nuqtai nazaridan o'z tahlil, baholash, qo'shimchalar kiritilgan muallifning tushunchasi ko'riladi.

Vakillik - Aslida turli sohalarda ijtimoiy qarashlar - huquqiy, shuningdek, o'zi haqida, siyosiy (uning Men, mas'uliyat, razvedka, va hokazo). milliy namunasi o'rganish barcha boshqa tasavvurlari mas'uliyat haqidagi g'oyalari).

V. Doisy nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning sabablari haqida ijtimoiy vakolatxonalari o'rganish hodisaning tahlil natijalarini tasvirlaydi. Ishida, uch omillar ajratiladi. birinchi omil o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini aks hukmlari edi (hokazo qamoqda jazo va natijasida ekspluatatsiya, ijtimoiy tengsizlik, jinoyat.). Ikkinchi omil qonunbuzarning paydo bo'lishi uchun biologik tushuntirish (kasallik, irsiyat, ruhiy tubining organik tabiat) aks ettiradi. Uchinchi omil bu holatning psixologik tushuntirish tashkil etiladi (o'smirlik inqirozi, o'rtoqlarimning aro munosabatlar,)

Toifalar – tartibi, boshqa odamlar va ularning identifikatsiya qilish shakllanishiga o'zingiz nisbatan ob'ektiv haqiqatga bilim aloqasi amalga oshirish uchun imkon beradi. Siz kimligi, hududiy etnik, jinsiy, shaxsiy va boshqa turdagi haqida gapirish mumkin. Marginal kimligi yashirin mexanizmi toifalashtirilishi: aro taqqoslash uchun istak fonida, taqlid yaqqol qarshi turibdi uchun "Men" va "boshqa".

Misol uchun, ijtimoiy kimligi dunyo tajribasi bilan bog'liq talqin tashkil etiladi Ijtimoiy xulq muharriridan sifatida harakat g'oyalar, munosabat, stereotip va umidlari bilan bog'liq hisoblanadi.

G. Tedzhfela Ijtimoiy hisobga olish ma'lum nazariyasi konsepsiyasiga ko'ra,

1) individ, o'zini bir guruh a'zosi hisoblaydi, guruh holati va hurmat ko'tarish uchun, uni ijobiy baholashni maqsad qiladi;

2) guruh sifati va qiymati, kategoriya (mantiqiy operatsiyalar) va parametrlari bir qator tashqi guruhlar bilan solishtirish orqali aniqlanadi; individning o'z taqdirini o'zi belgilash tasnifi va taqqoslash, bilim jarayonlarida kuzatiladi;

3) bir ijobiy ijtimoiy hisobga olish, ularning guruh guruh afzalliklari deb ataladi va taqqoslash asosida erishiladi;

4) ikkinchi turli his-tuyg'ular shaklida bir guruhiga mansubligi sifatida tasvirlanadi qayerda asl tajribasi hissiyot sevgi, nafrat, g'azab, bilan bog'liq.

O'zini o'zi anglash, axloq, ma'naviyat, taraqqiyot, dinamika va shaxsga oid tushunchalar to'g'risidagi qarashlar tashkil etadi. Mazkur tushunchalar o'zaro ierarxik tuzilmaga ega bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi va o'ziga xos muayyan tizimni vujudga keltiradi.

Psixologiya fanida axloqiy o'zini o'zi anglash ruhiy jarayon, hodisa, voqelik, xususiyat sifatida alohida o'rganilmaganligi tufayli uni tahlil qilish o'zini o'zi anglash, axloq, milliy xarakter, ma'naviyat, qadriyat kategoriyalari bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Axloqiy o'zini o'zi anglash «o'zini o'zi anglash» ning xususiy (alohida) ko'rinishi, jabhasi bo'lganligi tufayli uning ruhiy tuzilishi, tabiati, o'ziga xosligi, tarkib topishi, rivojlanishi va takomillashuvi, ob'ektiv, sub'ektiv, ichki hamda tashqi shart-sharoitlari, eng avvalo, o'zini o'zi anglash jarayonining ichki xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi zamon psixologiya fanida o'zini o'zi anglashning tabiatini tushuntirishda, talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish mavjud bo'lib, ular bir-biridan keskin darajada tafovutlanib turadi. Birinchi yondashishga qaraganda, o'zini o'zi anglash-bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir, xuddi shu bois u inson ongining maxsus ko'rinishi demakdir. Ushbu talqin sobiq sovet psixologiyasida keng tarqalgan nazariya bo'lib L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, Ye.V.Shoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin va ularning shogirdlari tomonidan ilmiy amaliy jihatdan tadqiq qilib kelinmoqda.

Bu sohadagi ikkinchi mulohaza S.L.Rubinshteynning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, keyingi davrlarda uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda izchil ravishda rivojlantirilmoqda. Uning fikriga binoan, ong va o'zini o'zi anglash jismoniy real hamda yuridik shaxsga taalluqli xususiyatlardan iborat bo'lib, ular uning hayoti va faoliyatini vosita yoki «qurol» sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir. Bizningcha, ikkinchi yondashish o'zini o'zi anglashning tabiati yuzasidan to'g'ri (adektiv) ma'lumot berish imkoniyatiga ega, binobarin, metodologik nuqtai nazardan uni ilmiy-nazariy va amaliy-tatbiqiy jihatdan tadqiqot qilish yuksak ko'rsatkichlar berish mumkin.

Yuqoridagi o'zini o'zi anglashning ruhiy tabiati haqidagi ikki xil munosabatning mavjudligi- uning paydo bo'lishi sabablarini, yo'nalish ob'ektini, tadqiqot predmetini turlicha yoritilishga olib keladi. Birinchi yondashishga ko'ra, o'zini o'zi anglashni vujudga kelishining bosh sababi-inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatning o'zaro nomutanosibligidir. Inson muayyan jamiyatda, mikro va mize muhitda yashar ekan, u xuddi shu muhitda (makro, mikro, mize) mavjud bo'lgan qonun-qoidalarga va tartib-intizomga bo'ysunishga hamda shular asosida, ularning

negizida o'z xulq-atvori, munosabatlarini idora qilishga, boshqarishga majburdir. O'z xulq-atvorini va munosabatlarini o'zi idora qilish jarayoni (uquvi) esa, ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyojlarni, xohish istaklarni, motiv va mayllarni, maqsad va qiziqishlarni (imitatsiya, identifikatsiya, refleksiya bosqichlari kechishini) boshqarishdan iboratdir. Bunday ko'rinishdagi, tuzilishdagi, mazmundagi anglash va uni idora qilish psixologik nuqtai nazardan ehtiyojning individual ongdagi ifodasini hamda ular o'rtasidagi bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishni taqozo etadi. Uning paydo bo'lishining bosh sababi ham, yo'nalish ob'ekti ham ongdir, ya'ni u ongning ichki barqarorligi natijasida yuzaga keladi va barqarorlikni (ichki muvofiqlikni) shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Shu narsani ta'kidlash o'rinliki, birinchi yondashishning namoyandalari talqinida ongning ichki beqarorligini vujudga keltiruvchi elementar (tarkiblar, ruhiy tuzilma qismlari) yuzasidan oladigan ma'lumotlarga qaratadi. Bunday ma'lumotlar inson tomonidan o'zlashtirilgandan keyin bir xil mazmunga ega bo'lmaganliklari tufayli o'zaro qarama-qarshilikka uchraydi, ularning o'zaro mutanosibligini ta'minlash uchun inson ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo'l orqali ma'nolar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi. Xuddi shu boisdan ham L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o'zini o'zi anglash turli xil ma'nolar o'rtasida birlikni (umumiylikni) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi.

A.N.Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi mohiyat bilan mazmun o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir. A.N.Leontevning shogirdi V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning asosida (negizida) «menlik» ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi.

B.G.Ananov izlanishlarida aks etishicha, o'zini o'zi anglashning paydo bo'lishi omili- odamning individual xosiyati, faoliyat sub'ektliligi shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko'ra, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.

Amalga oshirilgan psixologik tahlildan ko'rinib turibdiki, birinchi yondashuvda o'zini o'zi anglash xulq-atvorni va munosabatlarni belgilovchi hamda idora qiluvchi mustaqil sub'ektga aylanadi, natijada real inson tadqiqot markazidan uzoqlashadi, uning o'rnini ong va o'zini o'zi angldash egallaydi. Bizningcha, o'zini o'zi anglashni bu tarzda tushunish (va tushuntirish) uning psixologik tabiatini atroflicha, to'liq yoritishga imkon bermaydi va nazariy jihatdan noto'g'ri (noadekvat) xulosa chiqarishga, shoshilinch qaror qabul qilishga olib keladi.

Ikkinchi yo'nalishning asoschisi S.L.Rubinshteynning tadqiqotlariga asoslanib, biz o'zini o'zi anglash muammosini tadqiq etishga asosiy diqqat-e'tiborni, eng avvalo, uning sub'ektiga, ya'ni insonga-shaxsga qaratish maqsadga muvofiq, deb hisolaymiz. Ushbu fikrni boshqacha so'z bilan ifodalaganda, o'zini o'zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo'lmasdan, balki insonning tarkib topishi va rivojlanishi sanaladi. Ruhiy faoliyatning maxsus holdagi (vaziyatdagi) ob'ektiv shart-sharoitlar sifatida odamlarning hayoti, umumiy yashash sharoiti deb yozadi S.L.Rubinshteyn, - aks ettirish faoliyatining sharti haqida gap

ketganda, odamning turlicha namoyon bo'lishining, umumiy shartlari ichidan xuddi mana shu in'ikos etish faoliyatining maxsus shartini ajratib olishimiz zarur bo'ladi. O'zini o'zi anglashning paydo bo'lishini ta'minlovchi maxsus shartni aniqlash uning sub'ekti to'g'risidagi muammoni hal qilishni, muayyan yo'l-yo'riqlar va oqilona usullarga asoslanuvchi yechimni talab qiladi.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlardan ma'lumki, inson (shaxs) o'zini o'zi anglashi uchun xuddi shu o'zini o'zi anglash xususiyatining (jarayonining) sub'ekti bo'lishi muqarrar.

E.G'.G'oziev o'z-o'zini anglashning quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- 1) o'tmishdagi "Men" ("O'zlik");
- 2) hozirgi "Men" ("o'zlik");
- 3) bo'lg'usi "Men" ("o'zlik");
- 4) ideal "Men" ("o'zlik");
- 5) dinamik "Men" ("o'zlik").

O'z-o'zini anglash jarayoni milliy o'zligini anglash bilan uzviy bog'liq bo'lib, muayyan vaqt, muddat o'tishini, ya'ni ma'lum davrni taqozo etadi, lekin u ham evolyusion, ham revolyusion yo'l ta'sirida amalga oshishi mumkin. O'z-o'zini anglash borliq va jamiyatni in'ikos etishning yuqori bosqichi sanalib, pirovard natija sifatida yuzaga keladi, insonning donishmandligini namoyish qiladi. O'z-o'zini anglash besh tarkibdan iborat bo'lib, u o'ta murakkab jarayon hisoblanib, uning tarkiblari birin-ketin anglashinish imkoniyatiga ega emas. Chunki insonda o'zining hayoti va faoliyati yutuqlari, nuqsonlarini, xulq-atvor ko'nikmalarini, aql-idrok darajalarini, ichki imkoniyat zaxiralarini, qadriyat hamda ma'naviyat ko'rsatkichlarini oqilona baholash qurbi yetishmaydi. Shaxsda tanqid va o'z-o'zini tanqid, baholash va o'z-o'zini baholash, tekshirish va o'z-o'zini tekshirish, nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini boshqarish, takomillashtirish va o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish mutanosibligi maqsadga javob bera olmaydi. Individual va ijtimoiy ongni tobora rivojlanib borishi mazkur mutanosiblikni amalga oshirishni ta'minlaydi, bu esa muayyan muddatni talab qiladi.

Inson o'z-o'zini anglash jarayonida ko'pincha reallikdan boshlaydi, hozirgi va favquloddagi holatni tahlil qiladi, shaxsiy imkoniyati bilan taqqoslaydi, ma'lum mezon yoki namuna, ibrat tanlab, unga tenglashishga intiladi. Keyinchalik esa kelajak, istiqbol rejalari uni qiziqtiradi, o'zining nimalarga qodirligi yuzasidan mulohaza yuritadi va bu borada muayyan qaror qabul qilishga erishadi, lekin uning ongliligi yoki oqilliligiga shubhalanadi. Uni bir necha marta tahlil qilish, qiyoslash, unga o'zgartirishlar kiritish, yangilash orqali bo'lg'usi "Men" iga aniqlik kiritadi va faollik mexanizmiga aylantiradi.

O'z-o'zini anglashning navbatdagi bosqichida shaxs o'tmishini tahlil qiladi, undagi qusurli va ibratli jihatlarni o'zaro qiyoslab ustuvorlikni topishga intiladi, bu borada ayrim siljishlarga erishadi. Ijtimoiy hayotdan u o'ziga ideal bo'luvchi shaxsni tanlaydi va undagi ijobiy xislatlar, xususiyatlar va ko'rinishlarni, ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtira boradi. Shaxs o'z-o'zini anglash davomida dinamik

harakasiz hech bir narsani ro'yobga chiqara olmasligiga iqrar bo'ladi, natijada uzluksiz harakatlar asta-sekin, birdaniga, tavakkaliga amalga oshirish lozimligini tushunib yetadi. Dinamik holatni baholash, tekshirish, nazorat qilish, boshqarish natijasida dinamik "Men" shakllana boshlaydi. O'z-o'zini anglashning besh tarkibiy qismi bir tekis insonning ma'naviy dunyosiga aylansa, demakki, unda mukammallik, barkamollik darajasi vujudga kelganligidan dalolatdir.

O'z-o'zini anglash shaxsning fazilatiga aylanishi uchun muayyan davr, vaqt, muddat talab qiladi, shuning uchun o'quvchilar, talabalar va respublikamizning boshqa fuqarolari bilan dasturiy tadbir-choralar o'tkazish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

«Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, Ya'ni, uning o'zi sub'ektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maktovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u sub'ektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetrokda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik qayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday holat suisidal harakatlar, Ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sunhiy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, o'quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan o'zilgan», «manmansiragan»,

«dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar - ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi - referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maktab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob kaxramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va ehzozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho - o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan halq va millat mahnaviyatini kadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

19-mavzu. Shaxsning sotsial tasavvurlari(2 soat)

Reja:

1. Shaxsning sub'ektiv xususiyatlarining umumiy tavsifi.
2. «Men» strukturasi va uni har xil yo'nalishlarda tadqiq etish.
3. O'zini o'zi baholash. Men konsepsiyasi. O'z-o'ziga munosabat.
4. Real va ideal "men".
5. U.Djemsning empirik «Men» mavjudligining uch jabhasi to'g'risidagi qarashi: jismoniy shaxs, sotsial shaxs va ma'naviy shaxs.
6. O'zaro munosabatlarning tuzilishi va shakllanishi.
7. Egoizm, altruizm tushunchalari.
8. Shaxsning o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini namoyon qilish, o'z-o'zini ifodalash va o'z-o'zini e'tirof etish.
9. Shaxsning psixologik yo'nalishlari va hayotiy pozitsiyasi.
10. Erkinlik va javobgarlik jihatlari shaxs tanlanmasining o'lchami sifatida.

Sotsial o'rganishlar nazariyasi

Keyingi davrda klassik bixeviorizm rivojlanib, yangi sotsial-kognitiv yo'nalish shakllandi. Uning vakillari Albert Bandura va Djulian Rotterdir. Ularning yondashuviga ko'ra insonning xulq-avtoriga atrof muhmt ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida inson ham sotsial atrof muhitni shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. O'rganishlarning yuz berishi faqat to'g'ridan to'g'ri va tashqi qo'llab-quvvatlashda emas, xulq-atvor kuzatishlar va namunalar asosida shakllanadi. Garchi sotsial kognitiv nazariya ahamiyatiga ko'ra Skinnerning klassik bixeviorizmdan farq qildi. Ular keskin ilmiy va eksperimental metodologiyaga tayandi.

Dj.Rotter sotsial xulq-atvorni quyidagi tushunchalar orqali ifodaladi:

1. Xulq-atvor potentsiali: har bir inson butun hayoti davomida shakllanadigan ma'lum harakat, xulq-atvor to'plamini egallaydi.
2. Insonning xulq-atvoriga uning kutilmasi, sub'ektiv ehtimollari, ya'ni insonning fikricha ma'lum vaziyatlarda u yoki bu xulq-atvorni yuz bergandan keyin ma'lum mustahkamlash bo'ladi degan fikriga ko'ra ta'sir ko'rsatadi.
3. Insonning xulq-atvoriga inson uchun ahamiyatli bo'lgan mustahkamlash (chet ta'sirlar), qadriyatlar ta'sir ko'rsatadi.
4. Insonning xulq-atvoriga uning shaxs tipi, uning lokus nazorati ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, DJ.Rotterning ta'kidlashicha, xulqiy potentsial "texnik mavjud" bo'lgan beshta asosiy reaksiyalar blokini o'ziga qamrab oladi:

1. Muvaffaqiyatga erishganlikka yo'naltirilgan, natijada sotsial e'tirof etishni asoslashga xizmat qiladigan xulqiy reaksiyalar.
2. Ijtimoiy me'yorlar, boshqa insonlarning talablarisha moslashish bilan bog'liq adaptatsiyani ta'minlovchi xulqiy reaksiyalar.

3. Ayni damdagi vaziyatning ta'sirida foydalaniladigan himoyalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

4. "Zo'riqish maydonidan chiqish", qochish, dam olishga yo'nalgan qochish texnikasini ifodalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

5. Agressiv xulq-atvor reaksiyalari-boshqalarning tanqidi, kinoyasi, pichingi, qiziqish va manfatalariga zid harakatiga nisbatan jismoniy agressiyaning namoyon bo'lishi.

DJ.Rotter singari A.Bandura ham shaxs muammosiga o'ziga xos yondashuvlarini taqdim eta oldi. A.Bandura bixeviorizmning S-R sxemasiga o'zining to'rta oraliq reaksiyasini kiritdi:

1. Taqlid uchun harakat namunasiga bolaning e'tibori. Aniqlik, farqlanuvchanlik, emotsional jozibadorlik, funksional ahamiyatga egalik namunaga qo'ladigan talablardir.

2. Namuna, xulq-atvor modeli ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi xotira.

3. Bolaning taqlid namunasini idrok qilishi uchun sensor imkoniyatlar va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishi.

4. Bolaning taqlid modelini bajarishi uchun xohish-istaklarini belgilovchi motivatsiya.

Bola ilk davrlaridagi uning shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi.

Bandura taqdim etgan sotsial kognitiv nazariyaga ko'ra tashqi va sotsial muhit insonning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, u inson faolityatining mahsuli sanaladi. Demak, inson o'zining xulq-atvori tufayli atrof olmani o'zgartiradi, o'zining muhitiga va shaxsiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining xulq-atvor oqibatlarini ko'ra oladi, oldindan kutilish mumkin bo'lgan xavf-xatarning odini olishga harakat qiladi va bo'lg'usi natijalarni timsolini hosil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki klassik bixeviorizm, ularning zamonaviy izdoshlari –sotsial kognitiv nazariya vakillari shaxs muammosiga nisbatan yondashulari bilan boshqa shaxs nazariyalaridan o'zlarining g'oyalaridagi metodologik masalalar va tadqiqot metodlari bilan farq qiladilar.

20-mavzu. Shaxs taraqqiyotining psixotik, chegaralangan va nevrotik darajalari(2 soat)

Reja:

1. Shaxsdagi buzilishlarning xarakteri va darajasi haqidagi tasavvurlar.
2. N.MakVilyams yondashuvi.
3. Shaxs taraqqiyot darajalari mezonlari: himoya mexanizmlari; shaxsning asosiy muammolari, voqelikni testlashtirish qobiliyati, ego-identiklik, ob'ektiv munosabatlar.
4. Shaxs taraqqiyotining psixotik, chegaralangan va nevrotik darajalari
5. Ishonch-ishonchsizlik, yaqinlashuv-qochish muammolari.
6. O.Kenbergning strukturali yondashuvi.Strukturali intervyu.

1. Хarakter тuzилмаси ва унинг диагностикаси мезонлари

Xarakter bilan bog'liq muammolari bilan bog'liq hal etiladigan masalalardan biri uning buzilish bilan bog'liqligi, uni qanday mezonlar orqali baholash bilan bog'liq. Xarakterga bag'ishlangan jahon psixologik adabiyotlarda xarakter shaxs xususiyatlarini tizimlashuviga ko'ra aniqlanadi va unga quyidagilar kiradi:

- 1) barqaror ehtiyojlar va motivlar ,
- 2) shaxsning irodaviy sifatleri (maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, tashabbuskorlik va boshqalar),
- 3) barqaror emotsional reaksiyalar. Barqaror ehtiyojlar va motivlar , shaxsning irodaviy sifatleri psixikaning mazmuniiy xossasini, emotsional reaksiyalar esa psixikaning dinamik xossasini tashkil etadi.

Psixoanalitik adabiyotlarda xarakter muammosi quyidagi nuqtai nazardan qaraladi: Z.Freyd bo'yicha drayv nazariyasiga ko'ra natija sifatida libidoning rivojlanishini bir necha bosqichi qayd etiladi; 2) ego-psixologiya pozitsiyasidan xarakter himoya mexanizmi, ya'ni xavotirdan qochish sifatida namoyon bo'ladi²⁴.

Xarakter diagnostikasiga va shaxs buzilish darajasi ham Z.Freydning drayv nazariyasi asosida shakllantirilgan. N. Mak-Vilyamsning modeliga ko'ra xarakter modeli va uning diagnostikasi bo'yicha o'ziga xos yondashuv mavjud.

Mak-Vilyamsning xarakter tuzilmasi mazmuni ikki mezon asosida aniqlanadi:

- 1) shaxs tuzilmasini rivojlanish darajasini baholash (Freyd bo'yicha), shaxs individuatsiyasi yoki patologiya darajasini aks ettiradi. Mak-Vilyams taraqqiyotni to'rt darajaga ajradi: psixotik, cheklangan, nevrotik va normal.

²⁴ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

2) shaxsning himoya uslubi yoki xarakter tipi diagnostikasi (masalan, paranoid, shizoid, depressiv va boshqalar.).

Mak-Vilyams modeli vujudga kelishi bilan odatdagi psixologiya xarakterga nisbatan chetdan qarashni to'xtatdi. Ammo birdaniga yuz bermasdan, balki unga qadar kundalik ongda ikki kategoriyadagi insonlarga ajratiladigan odamlarni ajratuvchi mulohazalarga olib kelgan: bemorlar ("psixlar") va sog'lomlar ("psix emaslar"). Differensial nuqtai nazardan o'tkazilgan diagnozda amaliy jihatdan bunday yondashish qat'iy shart emas.

Bu yo'nalishga bog'liq diagnostik maqsadlarda uzoq vaqt davomida standart baholash uslubidan foydalanilgan. Bu psixiatr va psixoterapevtlarni qoniqtirib kelgan.

Ushbu sxemaga ko'ra real voqelikda sohlom yoki normal insonlar degan xulosaga olib keluvchi holat. Unga nisbatan og'ishni aks ettiruvchi boshqa bir munosabat esa reallik haqidagi ma'lumotlarga zid munosabatni aks ettiruvchi bemorlar guruhiga ajratishga olib keldi.

Odatda isterik, fobiyali, kompulsiv, maniakalli yoki depressivli tendensiyalilarga ma'lum psixologik qiyinchiliklarga uchraganlarga pasienlar deb murojaat qilishadi. Asotsial pasientlar esa axloqiy jihatdan aqlsiz pasientlar sifatida tansiflanadi.

20-asrning o'rtaalariga qadar nevrotik va psixotik darajali patologiya o'rtasidagi farqlarni tahlilchilar shaxs buzilishidagi oraliq shakllardan foydalanmasdan tafovutlashga olib keldilar.

Nevrotik voqelikni tushunishi, ammo shaxsiy muammolari borasida shaxsiy qiyinchilikka duch keladiganlar hisoblangan. Uning tayanch xususiyatlari hatdan tashqari mexanik va qayishqoq bo'lmagan psixologik himoya mexanizmlardan iborat. N. Mak-Vilyams nevrotiklarni qopqog'i mahkam berkitilib, qaynatilayotgan xumchaga o'xshatadi.

Psixotiklar esa voqelikdan munosabatni ajratib qo'ygan va kuch himoya mexanizmga ega bo'lganlar sanaladi.

19-asrdayoq salomatlik bilan bemorlik o'rtasidagi "cheklangan maydonga" ega pasientlarga ajratishga olib kelgan edi. 20-asrning o'rtasiga kelib, nevrozlar va psixozlar o'rtasidagi oraliq zona haqidagi g'oya paydo bo'ldi.

Xelen Doych buni "go'yoki shaxslar deb" nomladi. Xox va Polatin "psevdonevrotik shizofreniya" kategoriyasi olib kirishdi. 1953 yilda Nayt cheklangan holarlar haqidagi essenini e'lon qildi. 1968 yilda Grinker cheklangan sindromning asoslovchi tadqiqot o'tkazdilar

1980 yillarda umumqabul qilingan DSM-IV (Diagnostics and Statistics of Mental Disorders) atama paydo bo'ldi.

Bemorlarning ajratilgan guruhi xususiyatlari psixotiklarda gallyusinasiy yoki alahsirash mavjud emas, ammo nevrotiklarda nostabil va aytib bo'lmaydigan xulq-atvor mavjud. Pasientlarning psixoanalitik davolash vaqtida pasienlar vaqtinchalik psixotik bo'lib, psixoanalitikdan tashqari holatda barqarorlikni namoyon qiladi²⁵.

²⁵ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 597.

Mak-Vilyams psixotik, cheklangan va nevrotik darajalari E.Erikson bo'yicha shaxs taraqqiyot darajasiga to'g'ri keladi.

Psixotiklar Erikson bo'yicha taraqqiyotning birinchi darajasiga to'g'ri keladi. Ular ishonish yoki ishonmaslik, cheklangan shaxslarda separatsiya/individuatsiyalar, nevrotiklar – tashabbuskorlik yoki aybdorlik tuyg'usini kechirish bilan identifikatsiyalashgan.

Uch darajadagi shaxs taraqqiyotiga mansub kishilar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun maxsus standartlashgan so'rovnomalar pasientlar o'rtasida o'tkazilgan.

U quyidagi savollar bilan yoritiladi:

- Ustuvor sanaladigan himoyalar;
- Identiklik integratsiyalashgan darajasi;
- Testlashtirishning voqelikka mosligi va o'zining patologiyasini kuzatishga qobiliyatli;
- Asosiy nizolar tabiati;
- Ko'chish va ko'chishga qarshi xususiyatlar .
- Ushbu sxema oqibatida shaxsning alohida darajasi haqidagi xulosaga kelinadi: psixotik, cheklangan va nevrotik²⁶

2. Shaxs tuzilmasining nevrotik darajasi

"Nevrotik" atamasi nisbatan emotsional buzilish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keluvchi sog'lom kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Taraqqiyotning birinchi darajasida –oral va anal bosqichda xarakterda hech qanday ortiqcha buzilish kuzatilmaydi.

Biroq edip kompleksi bosqichida (3-6 yosh) nevrotik tuzilmada o'ziga xos o'zgarish kuzatiladi. J. Berjerida kuzatilishicha, o'smirlik yoshida bu holat yaqqol kuzatiladi va Menning nevrotik oldi nevrotik tuzilmaviy ko'rinish olishi va nevrozga o'sib o'tishi kuzatiladi. Menning psixotik tuzilmasi esa psixozga o'sib o'tishi xosdir.

Nevrotiklar ancha yuqori ximoyalaniшни boshdan kechirishadi. Ular oddiy himoya mexanizmlarini takomillashtirib, o'stirib boradilar. Nevrotiklar yetuklik sifatida –siqib chiqarish, intellektuallashtirish, rasionallashtirish kabi himoyalanişdan foydalanadilar. Shu bilan bir qatorda inkor etish, proektiv identifikatsiya, izolyatsiya va boshqa primitiv himoyalashdan foydalanadilar.

Ular idetikatsiyaning integrallashgan tuyg'usini egallaydilar va qiyinchiliklarsiz xarakter xislatlarini, qiziqishlari, temperament xususiyatlari, qadriyatlari va kamchiliklarini aniqlaydilar. O'z navbatida nevrotiklar boshqa insonlarga ham izoh beradilar.

Nevrotiklar voqelik bilan ishonch bilan aloqaga kirishadilar. Ularda gallyusinatsiya, maniakallik tajriba talqini yo'q. Ular psixoterapevt bilan bir dunyoda yashaydilar.

Ammo pasientning bir qator ego qismlari bezovtalantiradi va ular psixoterapevtga murojaat qiladilar. U –ego-diston. Nevrotik darajadagi paranoid

²⁶ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 202.

shaxs boshqa insonlarga shubha bilan qarashida ichki ziddiyat va agressiv tarzda idrok etishi oqibatida yuz beradi. Paranoidlar cheklangan yoki psixotik rpsientlar hisoblanadilar. Ularni qiyinchiliklari tashqi tafakkur bilan bog'liq va uning kasalligi va buzilishlari atrof olam xususiyatlari belgilaydi.

3. Shaxs tuzilmasining cheklanganlik darajasi

Bu darajadagi shaxslar nevrotik bilan psixotiklar o'rtasidagi holatni egallaydilar. Ular birinchi va ikkinchisi bilan solishtirilganda muvaqqat barqarorlikka ega bo'ladilar. J. Berjer bo'yicha cheklanganlik tuzilmasi bolalarning lat yeyishlari orqali shakllanadi va cheklanganlik tuzilmasini hosil qiladi.

Cheklangan shaxslar oddiy himoya usullarini qo'llaydilar. Bu bilan ayrim hollarda psixotiklardan farq qilmaydilar. Ularning o'rtasidagi tafovut suhbatni to'g'ri tashkil etilishi orqali aniqlanadi.

Cheklangan shaxsda Men ajralib qolgan, ziddiyatlar kuzatiladi. O'zini izohlashga to'g'ri kelganda qiyinchilikni boshdan kechiradi. Cheklangan pasientlar bilan to'g'ri suhbat uyushtirish psixotiklardan farq qilish imkonini beradi va o'zining patologiyasini kuzatishga maqbul bo'ladi. Ular atrofdagilar bilan ambivalentlikni boshdan kechiradi.

Bir tomondan yaqinlik xohishi, ishonish munosabati aks etsa, boshqa tomondan esa boshqalar bilan munosabatga kirishishda qo'rquv hosil bo'ladi.

E.Erikson bo'yicha shaxs taraqqiyotining ikkinchi bosqichidagi nizo kuzatiladi: avtonomiya/ uyat (separatsiya/individuatsiya). Cheklangan shaxsga xos xususiyat u bir vaqtni o'zida yordamga chaqirishi va uni inkor etishi ham mumkin. Cheklangan bolalarda ob'ektiv diadik munosabat kuzatiladi²⁷.

Cheklangan shaxslar bilan terapevtik maqsadda ishlash oqibatida ularda o'ziga va atrofda qilarga nisbatan muhabbatni shakllantirishdan iborat.

4. Shaxs tuzilmasining psixotik darajasi

Bu darajadagi shaxslar bo'shab qolgan, buzilgan holatda bo'ladilar. Bu xususiyatlar Menning ilk bosqichdagi cheklanishlari oqibatida shakllanadi. Menning psixotik tuzilishi Menning nevrotik tuzilmasi oqibatida kelib chiqishi mumkin. U so'ngra nevrotikka, keyinchalik esa psixotik va psixozga aylanishiga olib keladi.

Psixotiklar verbalgacha, rasionallikkacha bo'lgan himoya mexanizmlarga intiladilar. Psixotiklar "Men kimman?" savoliga qiyinchilik bilan javob beradilar. O'zini yuzaki izohlaydi va xatolarga yo'l qo'yadilar.

Voqelikni chalkash, noadekvat testlashtiradi. Psixotiklarning mulohazalarni talqin qilishi ekzistensial qo'rquvni keltirib chiqarishi hamda pasientda yanada yomonroq holatga o'zini ifodalashiga sabab bo'lishi mumkin.

Ekzistensial nizoning asosiy tabiati hayot va o'lim, xavfsizlik bilan qo'rquv o'rtasida kechadi. Bu muammo ishonch yoki ishonchsizlik, ota-onalarning qat'iy ustanovkalari yoki noaniq munosabatlari bilan bog'liq (masalan, mazoxist ona va sadist otaning mavjudligi). Psixotiklar uchun monadik ob'ektiv munosabatlar tipikdir.

²⁷ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 202.

5. O.Kernbergning tuzilmaviy yondashuvi

Otto Kernberg psixoanalizning ikki shoxchasini o‘zaro birlashtirdi, ya’ni mayllar nazariyasi bilan ob’ektiv munosabatlar nazariyasini birgalikda rivojlanishini ta’minladi.

U ikkita tayanch g‘oyadan kelib chiqdi: birinchisi – insonda ikkita mayl mavjud - libido va agressiya; ikkinchisi - Men-reprezentatsiya ob’ekt-reprezentatsiya bilan ma’lum munosabatlarda mavjud.

Kernberg psixoterapevtning psixik buzilishlar bilan ishlash yo‘nalishini izohlashga xizmat qiladi. Cheklangan shaxslar bilan ishlash uchun ekspressiv psixoterapiyani va mashhur tuzilmaviy intervyuni ishlab chiqdi.

O. Kernbergning tuzilmaviy yondashuvi quyidagilarni yoritishga xizmat qiladi:

- 1) ob’ektiv munosabatning sifatini ,
- 2) Super-ego integrallashganlik darajasini,
- 3) primitiv ko‘chish tabiatini.

U uch xil tipdagi shaxs tuzilmasini aniqlash orqali muhim vazifalarni hal qiladi:

1. Identiklikni integratsiya darajasini aniqlash;
2. Himoya mexanizm tiplarini yoritish;
3. Voqelikni testlashtirishga qobiliyatini aniqlash

Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus tuzilmaviy intervyu ishlab chiqildi. Tuzilmaviy intervyu pasient bilan klient o‘zaro ta’sirlashuviga asoslangan. Bu usul muammoni shaffof o‘rganish imkonini beradi. Uning oqibatida pasientning motivatsiyasi, psixoterapiyaga shayligi, qarshilik ko‘rsatish shakli, psixoterapiya tipini baholashga imkon beradi. U yordamida klientning ijobiy sifatleri yoritiladi.

Kernberg tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv psixoterapevt bilan muomala vaziyatida namoyon bo‘ladigan pasientning qiyinlashuvi, simptomlari va nizolariga alohida e’tibor qaratgan. Tuzilmaviy intervyu uchta fazaga ajratiladi: boshlang‘ich, o‘rta va yakunlovchi.

1. Boshlang‘ich fazada terapevt pasientga asosiy simptomlar, pasientning kutilmalari va qiyinchiliklari haqidagi sovallaridan iborat. Bu fazada pasient qanchalik savollarni tushunishi va o‘zining xatolarini anglaganligini, uning kutilmalar voqelikka qanchalik mos kelishini yoritishga xizmat qiladi.

Strukturali intervyuning birinchi fazadayoq shaxs tuzilmasi darajasini aniqlash mumkin. Agar pasient simptomlarni aniq va to‘liq tasvirini berishga maqbul bo‘lsa, u holda terapevt quyidagi qo‘shimcha savollarni berishi mumkin bo‘ladi: O‘zingizni simptomlaringizni alohida jihatini izohlay olishingiz mumkinmi?, “ular qanday rivojlandi, ular bilan bog‘liq qanday hodisalar mavjud?” Aynan ushbu bosqichda voqelikni testlashtirish darajasi tekshiriladi.

2. Intervyuning o‘rta fazasida klientning identikligini baholash vazifalari shakllantiriladi. Men qirralari yoki pasient timsoliga ziddiyatli bo‘lgan timsol haqidagi ma’lumotlar olish bilan bog‘liq diffuz identiklik aniqlanadi. Oqibatda Men-reprezentativlik bilan ziddiyatli bo‘lgan diffuz identiklik yoki to‘liq Men konsepsiyasi aniqlanadi. Ego-identiklikni o‘rganish bilan bir qatorda pasientning

reprezentlashuv qobiliyati tekshiriladi va uning uchun ahamiyatli boshqalar izohlanadi.

Pasiennning muammosi o'rganilayotgan vaqtda unda xavotirlanish ortishi, bezovtalanishning o'sib ketishi, himoya mexanizmlari faollashishi mumkin. Terapevt ularning yetukligini baholaydi. Menning ego-o'ziga xoslik jiahtlarini yoritadi.

Menning nospesifik jihatlari- bezovtalikni ko'chirish qobiliyati, impulslar ustida nazoratning mavjud/mavjud emasligi va yetuk sublimatsiya qiladigan usulni mavjud va mavjud emasligi tekshiriladi

Bezovtalikni ko'chirish qobiliyati pasientning emotsional zo'riqshlarga bardosh qilishi mumkinligi darajasini tavsiflaydi. Impulslar ustidan nazorat pasientning instiktiv xohishlarni kechirishi mumkinlik darajasini va impulsiv harakat qilmasligi darajasini tavsiflaydi. Sublimatsiyaning samaradorligi pasientning qanchalik tarbiya va ta'lim bilan bog'liq bo'lmagan holda ijodiy qobiliyatni rivojlanitirishini belgilaydi.

Bu fazada Super-egoni to'liq yoki xususiy integratsiyasining mavjud emasligi testlashtiriladi. Buning uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi: 1) pasient qanday darajada etikaviy qadriyatlar bilan identifikatsiyalashganligi mumkinligi va 2) aybdorlikning me'yordagi tuyg'usi uning xulq-atvorini ahamiyatli regulyatori ekanligi.

Haddan tashqari kuchli aybdorlik hissini kechirish va keskin Super-ego nevrotilklar uchun, integratsiyaning buzilishi va Super-ego integrallashmagan o'tmishdoshlarining mavjudligi –cheklangan va psixotik pasientlar uchun xarakterli.

Me'yordagi insonda Super-ego integrallashgan, ya'ni 1) individ etikaviy prinsiplar asosida o'zining xatti-harakatlarini tartibga soladi, 2) ekspluatatsiya va manipulisatsiyalashdan tiyiladi, 3) tashqi majburlash mavjud bo'lmaganda pok va axloqiy qimmatli bo'lib qoladi. Strukturalashgan intervyuning o'rta fazasida nevrotilk simptomlar va xarakterning patologik qirralari, asosiy himoya mexanizmlari, diffuz indentiklik sindromi, voqelikni testlashtirish darajalari o'rganiladi.

3. Strukturalashgan intervyuning yakuniy fazasida pasientga psixoterapevtga ma'lum qilmagan unga muhim bo'lgan nimanidir taklif qilishi so'raladi. Quyidagi tartibda savol beriladi: “ Sizning fikringizcha sizdan so'ramagan yana nimani so'rashim mumkin?”

Bu bosqichda terapevt pasientning svollariga javob beradi, kutilmagan bezovtalik va boshqa qiyinchiliklarga e'tibor qaratadi. Intervyuning har bir bosqichda terapevt pasient bilan o'zaro aloqada bo'ladi: u bilan holati, terapiya, diagnoz haqidagi yakuniy xulosalarni muhokama qiladi.

Butun intervyu uchun 1,5 soat (10-15 daqiqali intervalli 2 ta 45 daqiqali seans)ni tashkil etadi. Terapevt uchta muhim vazifani hal etadi:

1) Pasientning sub'ektiv olamini tadqiq qilish, 2) pasient bilan o'zaro munosabat vaqtida xulq-atvorini kuzatish, 3) pasientga shaxsiy emotsional reaksiyasi orqali e'tibor qaratish

Terapevt pasientning xulq-atvori va tafakkuri, emotsiyasidagi noadekvat namoyon bo'lishlarni baholash, ubilan o'z kuzatishlarini muhokama qilish, o'zini taktik tutish, pasientning unga qanchalik empatiya bilan munosabatga egaligini kuzatish.

N. Mak-Vilyams modelidagi , xarakter diagnostikasi va uning buzilishiga doir O. Kernbergning strukturali yondashuvi ikki asosga ko'rib chiqiladi: shaxs taraqqiyot darajasi va inson xarakter tipi.

Pasientning birinchi asos bilan muvofiqligida shaxs taraqqiyot darajasi va buzilganlik darajalariga ko'ra tafovutlanadi: psixotiklik, cheklanganlikka va nevrotiklikka. Bu darajalari o'zida diskret birliklarni emas, balki qandaydir xususiyatlar kontinuumini ifodalaydi.

Ikkinchi asos – xarakter tipi inson uchun ma'lum darajadagi ichki himoya stilini aniqlaydi. Xarakter tiplarini muhokama qilish - psixopatik, narsiss, shizoid, paranoid, depressiv, mazoxistik, obsessiv/kompulsiv differensial psixologiyaga aloqadorligi sababli bizning muhokamiz vazifasi hisoblanmaydi.

Ma'lum ma'noda xarakter tipi quyidagi tartibda baholanadi:

1. Yetakchi mayllar, affektlar, temperament.
2. Mening adaptiv va himoya funksiyasi.
3. O'zaro ta'sirlashuvning internallashtirilgan patternlari yoki ob'ektiv munosabatlari.
4. Shaxsiy Menning sub'ektiv tajribasi: chegara, qadriyatlar, o'zini idrok etishi .
5. Ko'chish va ko'chishga qarshilikda o'zi haqidagi tasavvurni namoyon qilish.
6. Davolanishga tavsiyalar.
7. Differensial tahlil uchun asos.

Sanab o'tilgan xarakter tiplari sog'lom kishilarda ham uchrashi mumkin, ammo bemorlardan farqli ravishda sog'lom inson xarakteri uning psixik taraqqiyoti va moslashuviga to'sqinlik qilmaydi.

Obsessiv inson tafakkur atrofida o'z hayotini tashkil qiladi: ta'lim olishga, mantiqiy tahlilga, atroflicha rejalashtirishga va sog'lom qaror qabul qilishga intiladi²⁸. Patologik obsessiv inson aqliy saqich bilan mashg'ul bo'ladi, xulq-atvorini tartibga sola olmaydi doira atrofidan cheksiz aylanadi.

“O'ylangan va bajarilgan” joyda harakatlantiruvchi psixologik motivlar sifatida eshitish, o'ynash, orzu qilish, sezish, san'atdan qoniqish olish qobiliyati bilan disproporsiya vujudga keladi. Bu obsessiv-kompulsiv strukturali shaxslar bilan ish olib borishga olib keladi²⁹.

Shaxs tiplari va ularning jarajalarini qiyoslashni terapiya diagnozi, uning turlari va natijalarining barqarorligi aniqlaydi.

²⁸ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 603.

²⁹ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 603.

GLOSSARIY

Instinkt - (lot. instinctus uyg'onish) - murakkab shartsiz refleks, u hulq - atvorning tug'ma yig'indisi, tashqi yoki ichki ta'sirotlarga javoban hosil bo'ladi.

Ontogenez (yunon. on, ontos - asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish) - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Seskanuvchanlik - tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyata ega javob qaytarish qobiliyati.

Filogenez (yunon.. phyle - qabila, urug', genesis - paydo bo'lish) - muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyusion taraqqiyot jarayoni.

Qo'zg'atuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik - tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarin o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

Ijtimoiy psixologiya - uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadi.

Differensial psixologiya - shaxs shakllanishining individual psixologik yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarni o'rganadi.

Din psixologiyasi - inson ongiga diniy qarashlarning tasiri masalalarini o'rganadi.

Etnopsixologiya - inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg'u, milliy g'oya, o'z-o'zini anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasi - bu psixologiya fanining shunday sohasiki, unda inson tomonidan - boshqarishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

Marketing psixologiyasi - yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish korxonalari va firmalarni boshqarishni va ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini tadqiq qiladi.

Shu bilan birga psixologiyaning bir qator tadbqiq sohalari ham mavjud.

Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida, eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda asosiy rol o'ynagan.

Ekstremal psixologiya - insonning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya sohasi.

Psixofiziologiya - odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixologiya sohasi.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir ko'rsatish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi - oila psixologiyasini o'rganuvchi, fanlararo tadqiqot qilishga yo'nalgan psixologiya sohasi.

Parapsixologiya - Hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi.

Aviasiya psixologiyasi (lot. Avis - qush - yunon, psyche - pyx logos - tushuncha, ta'limot) - psixologiya tarmoqi bo'lib, uchuvchilar shaxsi va turli uchish faoliyatining psixik xususiyatlarini o'rganadi.

Akmeologiya (yunon. Akme yuksak pog'ona, ziyraklik, yuqori, logos - tushuncha ta'limot) - tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganadigan fan.

Biografik metod (yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko'rsataman) - odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli.

Boshqarish psixologiyasi - psixologiya fanining boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi.

Genetik metod (denetikos - kelib chiqishga oid, methodos - tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Genetik psixologiya (yunon. Denetikos - kelib chiqishga oid, psycko -pyh) odamning individual psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning roli o'rganadi.

Determinizm (lot, determinare - aniqlamoq) - tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro'y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi degan ta'limot.

Din psixologiyasi - diniy ong xususiyatlari, tizimi va funksiyalarining ijtimoiy - psixologik omillarini o'rganuvchi psixologiya tarmoqi.

Differensial psixologiya - (lot. differentia - farq) psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rganadi.

Yosh psixologiyasi - psixologiya fani tarmoqlaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Zoopsixologiya (yunon. zoon hayvon, psyche - pyx, lodos ta'limot) - psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan soha.

Intervyu (interview - suhbat)- bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.

Introspektiv metod - bu odamning o'z- o'zini kuzatishga asoslangan psixologik metodi.

Kuzatish - psixologik metodlaridan biri bo'lib, odamning xatti- harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

Laboratoriya tajribasi (lot . laborate - ishlamoq) - psixologiya metodlaridan biri tekshiriluvchiga ta'sir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

Longityud tadqiqot (ing. longitude - uzoq muddat) - tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish.

Metod (yunon. Methodos tadqiqot, tekshirish) - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Mehnat psixologiyasi - turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Modellashtirish - bilim ob'ektlarini modellar asosida qarama - qarshi qilish qandaydir hodisa va jarayonlarning o'rnini bosuvchi, taqdim etuvchi bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq qilish va yaratish.

Musiqiy psixologiya - san'at psixologiyasining sohasi bo'lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga ta'sirini o'rganadi.

Muhandislik psixologiyasi - psixologiyaning tarmog'i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo'lishini o'rganadi.

Neyropsixologiya - muayyan psixik jarayonlar sodir bo'lishini ta'minlaydigan neyron tarmoqlarini o'rganuvchi fan.

Ong va faoliyat birligi - psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o'zaro bog'liqligini e'tirof etuvchi g'oya

Proektiv metod (lot. Prjektus - oldinga tashlangan, yunon. methodos - tadqiqot) - shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metoddanmas., tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

Prinsip (yunon. principium boshlanqich asos) - biror bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari, u odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga, borliqda, boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Statistik metod (lot. status - holat, yunon. methodos - tadqiqot) - o'tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

Suhbat - psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

Tabiiy eksperiment (lotin. experimentum - sinov, tajriba) - tekshiriluvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.

Test (ing. test - tekshirmoq) standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu holdagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir butunligicha yoki uning ayrim xususiyatlari o'rganiladi.

Shakllantiruvchi tajriba - psixologiya metodi, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

Egizaklar metodi - bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish. Bu metodni F.Galton taklif qilgan.

Eksperiment - tajriba (lot. experimentum - namuna, tajriba)- psixologiyaning asosiy metodlaridan, o'zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi.

Empirik metod (yunon.- empeiria - tajriba, methodos tadqiqot) - tekshiriluvchi haqidagi ma'lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбалари:

Асосий адабиётлар

1. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
2. Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5th Edition. – John Wiley & Sons, 2001. – 608 p.
3. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Т.: Ўқитувчи, 2010.
4. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии: учеб.пособие для студ.высш.учеб.заведений. – 5-е изд., стер. – М.: Смысл; Издательский центр «Академия», 2010. – 511 с.
5. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 320 с.

Қўшимча адабиётлар


6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти, 2017
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти, 2017
8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти, 2017
9. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент. Ўзбекистон нашриёти, 2017.
10. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. Ўзбекистон. 2014.
11. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.-Маънавият. 2008.
12. Каримов И.А. “Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажакки йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир”. Т.: Ўзбекистон. 2015.
13. David F. Lohman, Joni M. Lakin. Reasoning and Intelligence. New York: Cambridge University Press.- 2009.
14. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.
15. Edited by Michael Lewis, Jeannette m. Haviland-Jones, and lisa feldman barrett. Handbook of emotions/ The Guilford press. New york london.-2008.
16. Elizabeth A. Styles. The psychology of attention. This edition published in The Taylor & Francis e-Library, 2005.-232 p.
17. Gerald Matthews.- Cambridge University Press.- 2009.-906 p.
18. Strongman K. T. The Psychology of Emotion. Copyright. John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester. 2003.
19. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009
20. Андреев О.А. Тренируем свое внимание /Серия «психологический практикум».-Ростов н/Д: «Феникс», 2004.-232 с.
21. Андреев О.А. Тренируем свою память/ Серия «психологический практикум».-Ростов н/Д: «Феникс», 2004.-224 с.

22. Васильев И. А., Магомед-Эминов М. Ш. Мотивация и контроль за действием. М., 1991.
23. Гальперин П. Я., Кабыльницкая С. Л. Экспериментальное формирование внимания. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1999.
24. Гибсон Дж. Экологический подход к зрительному восприятию. М: Прогресс, 1988. 462 с.
25. Ғозиев Э.Ғ. Психология. -Т., ЎзМУ «Университет», 2003.
26. Ғозиев Э.Ғ. Тафаккур психологияси. Тошкент: Университет ,1990.
27. Ғозиев Э.Ғ. Хотира психологияси. -ТошДу , 1994.
28. Дормашев Ю. Б., Романов В. Я. Психология внимания. - М., 1995.
29. Зинченко Т. П. Память в экспериментальной и когнитивной психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 320 с.
30. Ж.Годфруа. Что такое психология? М. 1999 г. 2-том.
31. Зинченко Т. П. Память в экспериментальной и когнитивной психологии. - СПб, 2002.
32. Изард К. Эмоции человека. М., 2001.
33. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2002. – 512 с.
34. Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 368 с.
35. Ильин Е. Психология индивидуальных различий. М. 2003 г.
36. Клонингер С. Теория личности: познание человека. -СПб.: Питер. 2003. - 720 с.
37. Крылов А.А., Маничева С.А. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии.-Спб.: Питер, 2005.-550 с.
38. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М: Изд-во полит, литературы.2005. 304 с.
39. Лурия А. Р. Нейропсихология памяти. (Нарушения памяти при локальных поражениях мозга)». М., «Педагогика», 1998.
40. Любимов В.В. Психология восприятия. – М.: Эксмо, 2007. – 472 с.
41. Общая психология: в 7 т.: учебник для студ. высш. учеб. Под ред. Б.Братуся. – М.: Издательский центр «Академия», 2007.
42. Максименко С.Д.Общая психология.-М.: «Рефл-бук», К.: «Ваклер»-2004.- 528 стр.
43. Мартин Д. Психологические эксперименты .Секреты механизмов психики.-Спб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2004-480 с.
44. Маслоу А. Мотивация и личность. М., 1998.
45. Общая психология и психология личности/ под.ред. А.А.Реан.- М.:АСТ:Астрель;СПб.:Прайм-Еврознак,2009.-639 стр.
46. Петровский А. В., Ярошевский М. Г. Основы теоретической психологии. М., 1998.
47. Психология. Учебник. /Под. Редакцией А.А.Крылова.-М.: ПБОЮЛ МЛ.Захарова, 2001.-584 с.
48. Реан А. А. Психология изучения личности: Учеб. пособие. — СПб., Изд-во Михайлова В. А., 1999. — 288 с.
49. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. М., 1989.

50. Суннатова Р.И. Каримова В.М.,Таджибаева Р.Н. Мустакил фикрлаш. Тошкент, 2000.
51. Суннатова Р.И. Структура мыслительной деятельности. Ташкент: Фан, 1996.
52. Тинберген Н. Поведение животных. М., 1985.
53. Узнадзе Д. Н. Общая психология / Пер. с грузинского Е. Ш. Чомахидзе; Под ред. И. В. Имедадзе. — М.: Смысл; СПб.: Питер, 2004. — 413 стр
54. Узнадзе Д. Н. Психологические мотивации поведения человека. М., 1969.
55. Усманова Э.З. Ўқувчиларнинг мустакил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? -«Педагогика ва ёш психология» илмий-оммабоп серия, 2000, №1.
56. Усманова Э.З. Мотивационно-эмоциональная регуляция мышления в условиях интеллектуального конфликта. Ташкент: Ўқитувчи, 1993.
57. Фабри К.Э. Орудийное действие животных. М., 1980.
58. Файзуллаев А. А. Мотивационная саморегуляция личности. Ташкент, 1987.
59. Фромм Э. Психология человеческой деструктивности. М. 2000 г.
60. Хрестоматия по вниманию/ Под ред. А. Н. Леонтьева, А. А. Пузырея, В. Я. Романова. М.: Питер, 2004.
61. Хрестоматия по общей психологии. Психология памяти/ Под. ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, В, Я. Романова. М.: Изд-во Моск. ун-та, 2001.
62. Шиффман Х. Ощущение и восприятие. – 5-е изд. – СПб.: Питер, 2003. – 928 с.
63. Юнг К.Г. Очерки по аналитической психологии.-Мн.: ООО «Харвест», 2003.-528 с.
64. Юнг К.Г. Воспоминания, сноведения, размышления.-Мн.: ООО «Харвест», 2003.-496 с.
65. Юнг К.Г. Психологические типы. -Мн.: ООО «Харвест», 2003.-528 с.

Интернет сайтлари

66. <http://textshare.tsx.org>
67. <http://www.mgimo.ru/fileservers/>
68. <http://www.ssu.runnet.ru/...>
69. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm
70. <http://www.voppsy.ru>
71. <http://flogiston.ru/arch>
72. <http://psychol.ras.ru>
73. <http://psyberia.ru>



Psixologiyaning falsafa tarkibida rivojlanishi


Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Natija
Er.av. V-VI asrlar	Psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi	Ruh haqidagi fanning paydo bo'lishi va unda 2 yo'nalish - materialistik va idealistik yo'nalishlarning paydo bo'lishi. Psixik protsesslar sezgi idrok, xotira, tafakkur, affekt, iroda haqidagi ilk empirik bilimlarning paydo bo'lishi. Tana va ruh munosabatiga har xil yondoshish.
V-VIII asr	Ruh haqidagi fanning falsafiy ta'limoti doirasida tibbiy bilimlar asosida rivojlanishi	Tomistik psixologiyaning paydo bo'lishi.
XV-XVI asr	Ruh haqida fanning anatomik fiziologik bilimlar asosida rivojlanishini davom ettirish.	Tadqiqot ob'ekti sifatida ruhni inkor etish «Psixologiya» terminini kiritilishi.

Psixologiyaning mustaqil fan bo'lib rivojlanishi


Xronologiya	Bosqichning mazmuni	NATIJA
XIX asr boshidan XIX asrning 60-yillarigacha	Psixologiya mustaqil fan ekanligini takidlovchi ilk bilimlarning paydo bo'lishi.	Nerv sistemasi va sezgi organi faoliyatini eksperimental metod bilan o'rganila boshlashi psixofizika va psixogeometriyaning paydo bo'lishi, sezish va idrok etish teoriyalarining kashf etilishi
XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirigacha	Psixologiyaning bevosita mustaqil fan sifatida rivojlanishi	eksperimental metodlar psixologiyadan mustaqil o'rin egallashi psixologiyada amaliy tadqiqotlarni paydo bo'lishi fanda yangi tarmoqlarni vujudga kelishi
20 asrning 10-30-yillari	Psixologiyada ochiq krizis /inqiroz/	Chet el psixologiya maktablari Bixeviorizm
30-50-yillar	Inqirozning tugallanishi	Yangi tarmoqlar: genetik psixologiya, shaxs psixologiyasining paydo bo'lishi, yangi maktablar, neobixeviorizm, neofreydizmning vujudga kelishi
60-yillar	Yangi nazariy va amaliy qidirish	Yangi yo'nalish: gumanistik psixologiya, logopediya, kognitiv psixologiyaning paydo bo'lishi, psixologiya predmetini tahlil qilinishi, ongsizlik masalasiga katta e'tibor, sotsial psixologiya masalalarini chuqurlashtirish

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishining umumiy ko'rinishi


Bosqich	Psixologiyaning predmeti	Qisqacha ta'rifi
I bosqich	Psixologiya jon (ruh) haqidagi fan.	Bunday ta'rif psixologiyaga 2500 avval berilgan. Inson hayotidagi turli tushunarsiz hodisalarni jon (ruh)ning mavjudligi va uning xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qilganlar.
II bosqich	Psixologiya ong haqidagi fan.	XYII asrda tabiiy fanlarning rivojlanishi ta'siri ostida shakllangan. Kishining fikrlashi, his qilishi, istaklarini – ongning shakli deb qaralgan. Psixologiyaning asosiy metodi introspeksiya (o'zini kuzatish) deb hisoblaganlar.
III bosqich	Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan.	XX asrning boshida shakllangan. Psixologiyaning asosiy vazifasi kishining xulq-atvorini, harakatlarini, o'zini tutishini kuzatish deb hisoblaganlar. Hatti-harakatlar asosida yotgan motivlar hisobga olinmagan.
IV bosqich	Psixologiya psixikaning qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi fan.	Hozirgi zamon. Falsafiy va tabiiy fanlarga oid bilimlarning rivojlanishi ta'siri ostida shakllangan va mustaqil, ko'p sohali, eksperimental fanga aylangan.




Psixikaning asosiy vazifalari



Psixik hodisalarning asosiy turlari



Pedagogika va psixologiya.



Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Psixologiyaning asosiy tamoyillari

Determinizm.

Psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va yashash sharoiti o`zgarishi bilan o`zgaradi.

Ong va faoliyat birligi.

Ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, ular bir butunlikni tashkil qiladilar. Ong faoliyatning ichki rejasini, uning dasturini tashkil etadi.


Kishi psixikasi faoliyatda shakllanishi.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipiga ko`ra psixika taraqqiyot mahsuli, faoliyat natijasi deb qaraladi.


Psixologiya fanining asosiy tamoyillari

ASOSIY METODLAR	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) Ichki (o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatish Standartlashtirilgan kuzatish Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO'ROQ METODLARI	Og'zaki so'rov Yozma so'rov Erkin so'rov (suhbat) Standartlashtirilgan so'rov
TESTLAR METODI	Test-so'rov Test-topshiriq Proektiv test Intellekt testlari Klinik test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti Shakllantiruvchi eksperimenti
MODELLASH TIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish
FAOLIYAT NATIJALARINI O'RGANISH	Grafologiya Rasmlarni o'rganish

Psixologiyaning asosiy metodlari.



Psixologik tadqiqotlarning metodologiya, metodlar va metodikalari o'zaro munosabati.



Ekspiriment metodining ustunligi va kamchiligi.



AKS ETTIRISH ShAKLLARI	MOHIYaTI
I. INSTINKTLAR	Shartsiz reflekslarga asoslangan tug'ma hatti-harakat shakllari. O'zgarmas sharoitlarda maqsadga muvofiq.
II. KO'NIKMALAR	Individual hayot jarayonida o'ttirilgan hatti-harakat shakllari. O'zgaruvchan sharoitga qo'shimcha moslashish imkonini beradi.
III. INTELLEKTUAL HARAKATLAR	Predmet va hodisalar orasidagi bog'lanishlarni aks ettiradigan murakkab hatti-harakat shakllari. Murakkab sharoitlarga moslashish va tajribani yangi sharoitga ko'chirish imkonini beradi.

Hayvonlar olamida aks ettirish shakllari.


INSON VA HAYVONLAR PSIXIKASI O'RTASIDAGI FARQLAR	
TILI	Hayvonlar " tili " bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z to'ldasidagi boshqa hayvonlarga ayni choqdagi vaziyat va hodisalar haqida signal bera oladi xolos. Inson til yordamida boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi, va kelgusi zamondagi narsalar haqida ma'lumot bera oladi, ijtimoiy tajribani uzata oladi.
TAFAKKURI	Hayvonlar va odam tafakkuri o'rtasidagi farq ham ular tili o'rtasidagi farqqa bog'liqdir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarga faqat amaliy ("qo'l") tafakkuri xos, ularda abstrakt tafakkur yo'q. Shu sababli hayvon bevosita idrok qilinayotgan vaziyatning quli. Odamning hatti-harakatlari biron-bir konkret vaziyatdan abstraktlashishi va shu vaziyatning natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega. Odamning abstrakt tafakkur qila olish qobiliyati uni muayyan biron vaziyatga bevosita qaramlikdan qutqaradi.
QUROL YaSASH	Qurol yasash va uni asrash qobiliyatiga egalik odamni hayvondan ajratuvchi farqlardan biridir. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik qurol sifatida foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Hayvondan odamning farqi shundaki, u ilgaridan o'ylab qo'ygan reja asosida qurol yasaydi, qurolni tegishli maqsadlarda foydalanadi, va uni saqlab qo'yadi. Odam nisbiy doimiy buyumlar olamida yashaydi.
IJTIMOY TAJRIBA	Odam psixik faoliyatining yana bir farqi shundaki, inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi.
HISSIYoTI	Odam va hayvonlar o'rtasidagi g'oyat muhim farqlardan biri ular hissiyoti o'rtasidagi farqdir. Albatta yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlar ham atrofida bo'layotgan voqealarga befarq munosabatda bo'lmaydi. Lekin faqat odamdagina boshqa odamning qayg'u va shodligiga qo'shilish, hamdard bo'lish hissi rivojlangan. Faqat odamgina tabiat manzaralaridan lazzatlana oladi, faqat odamdagina intellektual hissiyot mavjud.
RIVOJLANISH ShAROITLARI	Hayvonlarning rivojlanishi biologik qonuniyatlarga asosida boradi. Odamning rivojlanishi, uning ongining taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari ustunlik qiladi.

Inson va hayvonlar psixikasi o'rtasidagi farqlar.

ONGNING XARAKTERISTIKALARI	
ONG, ANGLASH.	Inson ongi tevarak-atrof, tashqi va insonning o'zining ichki dunyosiga oid bilimlar to'plami, yig'indisidan iboratdir. Agar inson tashqi olam va o'zi ichki dunyosi haqida bilimlarni o'zlashtirish va anglashdek muhim xususiyatdan mahrum bo'lganda, unda hech qanday bilim va ong shakllanmagan bo'lar edi. Bizning bilimlarimiz ongning birlamchi asosini tashkil qiladi. Bilimlar turli psixik jarayonlar (bilimlar sezgi, idrok, diqqat va h.k. yordamida o'zlashtiriladi, xotirada saqlanadi, tafakkur jarayonida tahlil qilinadi) yordamida o'zlashtiriladi va boyitib boriladi.
SUB'EKT VA OB'EKTNI FARQLASH	Ongning ikkinchi xarakteristikasi - unda <i>sub'ekt va ob'ekt</i> o'rtasidagi farq o'z ifodasini topadi. Inson o'zini boshqalardan va tashqi olamdan farqlaydi, unda "men" va "men emas" tushunchasi mavjud. Odam organik olam tarixida birinchi marta undan ajralib chiqdi va o'zini tashqi olam, tevarak-atrofdagi muhitga qarshi qo'yadi. Bunday xususiyatning paydo bo'lishining natijasi <i>insonning o'z-o'zini bilishi va o'zligini anglashida, o'z-o'zini baholashida</i> aks etadi.
MAQSAD QO'YISH	Ongning uchinchi xarakteristikasi - <i>maqsad quyish va maqsadga yo'nalganlik</i> bilan belgilanadi. Har qanday faoliyat maqsadini aniqlash ongning funktsiyasi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda maqsad quyiladi, faoliyat motivlari yuzaga keladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari ishlab chiqiladi va sharoitni hisobga olgan holda zaruriy tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'lum sabablar ta'sirida maqsad ko'zlash yoki uni boshqarish, koordinatsiya qilishdagi buzilishlar ongning buzilishiga olib keladi.
MUNOSABAT	Ongning to'rtinchi xarakteristikasi - unda odamning ma'lum <i>munosabatlari</i> aks etishida. Inson o'z atrofida bo'layotgan voqealarga, ob'ektiv borliqqa, o'z faoliyati va uning natijalariga adekvat munosabatda bo'ladi. Bu munosabat uning his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. His-tuyg'ular va munosabatlarning o'zgarishi, noadekvatligi ongning buzilishidan darak beradi.



A.Maslou bo'yicha ehtiyojlar ierarxiyasi.



Psixik jarayonlar

Diqqat Sezgi Idrok Xotira Xayol Tafakkur
Nutq Hissiyot Iroda

Biologik sifatlangan xususiyatlar

Nerv tizimi xususiyatlari
Temperament
xususiyatlari
Layoqat
Jinsiy xususiyatlar

Xarakter va Qobiliyat

Orttirilgan tajriba


Bilim Ko'nikma Malaka
Odat

Ijtimoiy sifatlangan xususiyatlar Dunyoqarash E'tiqod Qiziqish Ideal


Shaxsning psixologik tuzilishi (Platonov K.K.)

Ta'sir vositasi	• Shaxsning xususiyatlari
Tarbiya	• Ijtimoiy sifatlangan xususiyatlar
Ta'lim	• Orttirilgan tajriba
Mashq	• Psixik jarayonlar
Trenerovka	• Biologik sifatlangan xususiyatlar


Shaxs xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar




Shaxsning yo'nalganligining asosiy shakllari.




Muloqot jarayonining tomonlari.



Nutqning turlari



Muloqotning vositalariga koʻra turlari.



Diqqatning turlari.